OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal

2025, №9

ISSN

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

EDITION 9

https://scientificjournal.uz/

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Osiyo Xalqaro Universiteti

“OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI”

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2025-yil, 9-son

Jurnal 2024-yildan chiqa boshlangan

“KAMOLOT” nashriyoti

BUXORO – 2025

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Muassis: OSIYO XALQARO UNIVERSITETI
Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 04-aprel №25-0649-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Bosh muharrir:
Elov Ziyodullo Sattorovich, Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.

Jamoatchilik kengashi raisi:
Dexkanov Suxrob Sobirovich, Osiyo xalqaro universiteti rektori

Mas’ul kotib:
Sattorov Mirshod Erkinovich
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 2 oyda bir marta o‘zbek, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 200100, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Namozgoh ko‘chasi 24-uy,
E-mail: sjkamolot@gmail.com
Jurnal sayti: https://scientificjournal.uz/

ISSN 3030-3796 e

ISSN 3060-4915 p

1936

Maqolada keltirilgan faktlarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’uldir.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

MUNDARIJA

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

1	**Berdiyev Nurmon Ochilovich** BO‘LAJAK ARXITEKTORLARNING RANGLARNI HIS QILISH VA ULARNI KASBIY FAOLIYATLARIDA QO‘LLAY OLISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH.	5
2	**Sattorov Anvar Ergashovich.** OLIY TA’LIMDA FUTBOL TO‘GARAKLARINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI	12
3	**Siddiqov Zayniddin Xoldorovich.** MODELLASHTIRISHDA TASODIFIY MIQDORLARNING SONLI XUSUSIYATLARIDAN FOYDALANISH	20
4	**Abdullayev Shuxrat Djumaturdiyevich.** SAMBO KURASHIDA SPORT MASHGULOTIARINING MAZMUNI	29
5	**Saidova Gulruh Halim qizi.** MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH	36
6	**Komilova Muxtsar Abdunabi qizi.** 10–11-SINF O‘QUVCHILARIDA INGLIZ TILIDA DIALOGIK NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING O‘RNI	43
7	**Davlatova Muhayyo Hasanovna., Ramazonova Nafisa Ixtiyor qizi.** TURLI YOSH DAVRLARIDA INGLIZ TILINI O‘QITISH	52
8	**Luqmonova Salomat Gafurovna.** BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI RAQAMLI TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI	58
9	**Sodiqova Nigora To‘rayevna.** TALABALARNING IQTISODIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIMNING AHAMIYATI	64
10	**Toshpo’latova Shaxnoza Shuhratovna.** TARIX FANINI O‘QITISHDA MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI	70
11	**Ramazonova Salomat Saidovna.** INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI	76
12	**Boltayeva Shahribonu Ahmad qizi.** O‘QITUVCHILARNING KREATIVLIK VA MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI	83
13	**Xamroyeva Nargiza Shavkatovna.** BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK FAOLIYATINI O‘Z-O‘ZINI TAHLIL QILISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	93
14	**Nurullayeva Aziza Ravshan qizi.**	100

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

	AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI	
15	**Raxmatov Mirzo Mukimovich** RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	107
16	**Баймурадов Раджаб Сайфитдинович** БЫСТРОТА – ОШИБКИ НА ЭТАПАХ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ, И МЕТОДЫ ЕЁ РАЗВИТИЯ	114
17	**Nazarov Jamshid Xoliyorovich.** BO'LAJAK CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANI O'QITUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK MUAMMOLARI	119

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

18	**Avezov Olmos Ravshanovich.** TABIIY OFATLAR SHAROITIDA PSIXOLOGIK YORDAMNING METODIKASI VA SAMARADORLIGI	129
19	**Kamolova Xadicha G'ayratovna., Elov Ziyodullo Sattorovich** MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQ RIVOJLANISHIDAGI O'ZGARISHLAR	137
20	**Berdiyeva Raxima Shakarboyevna.** PROFILAKTIKA INSPEKTORLARI KASBIY FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	144
21	**Zaripova Zilola Erkin qizi.** DEVIANT XULQ KO'RSATADIGAN O'QUVCHILARDA HISSIY-IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH ORQALI IJTIMOIY MOSLASHUV JARAYONLARI	153
22	**Kozimova Nigora Abduqahorovna.** BIRINCHI BOSQICH TALABALARINING OLIY TA'LIMGA MOSLASHUVINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI	161
23	**To'ymurodov Abdurahmon Shuhrat o'g'li.** SPECIFIC FEATURES OF PROVIDING PSYCHOLOGICAL SERVICE TO MILITARY PERSONNEL IN EXTREME SITUATIONS	167
24	**Nazarova Manzura Mustafo qizi.** CHET ELLIK TALABALARNING O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	176
25	**Hamroyev Temurbek Jamshid o'g'li.** MEHNAT MIGRATSIYASI SHAROITIDA BOLALARNING PSIXOLOGIK MOSLASHUVI	183
26	**Radjabova Umida Ubaydulloyevna.** ORTTIRILGAN IMMUN TANQISLIGI SINDROMI (OITS) TIBBIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA	191
27	**Xonzafarov Og'abek Otabek o'g'li.** BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA INTELLEKT SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI	199

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

BO‘LAJAK ARXITEKTORLARNING RANGLARNI HIS QILISH VA ULARNI KASBIY FAOLIYATLARIDA QO‘LLAY OLISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Berdiyev Nurmon Ochilovich
Toshkent Arxitektura qurilish universiteti dotsenti

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqolada bo‘lajak arxitektorlar faoliyatida ranglarning muhim o‘rin tutishi, ahamiyati, rangtasvir qonun-qoidalarini puxta egallash, amaliy ishlashda ularni samarali qo‘llay haqida so‘z boradi. Talabalarning ranglarni his qilish qobiliyatlarini rivojlantirish , turli bo‘yoqlarda amaliy ishlash va kasbiy faoliyatlarida ulardan foydalanish ko‘nikmalarini o‘stirish haqida fikr-mulohazalar bildiriladi. Shuningdek, maqsadga muvofiq ravishda rangtasvirning dekorativ usullaridan ko‘proq foydalanish, ta’limiy jarayonlarda masalaning ana shu jihatlariga ko‘proq e’tibor qaratilishi ta’kidlab o‘tiladi, bu borada qo‘llaniladigan pedagogik metodlar va eng samarali usullar tavsiya qilinadi.

MAQSAD: Arxitektura yo‘nalishlarida ta’lim oluvchi talabalarning ranglarni sezish, his qilish va ular bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

MATERIALLAR VA METODLAR:

Tasviriy san’at va uning turlari, ulardagi asosiy qonuniyatlar haqida kerakli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish bo‘lajak arxitektorlar uchun ham muhim hisoblanadi. Sababi, ular o‘z kasbiy faoliyatlarida tasvirlashning barcha qoidalaridan unumli foydalanishadi.

Rangtasvirdagi eng asosiy ta’sirchanlikni beruvchi vositalardan biri bu rang hisoblanadi. Tasvirlashda rangtasvir ishlash qoidalarini ilmiy asosda o‘rganish orqaligina tasvirlovchi kerakli bilim va malakalar hosil qilshi mumkin. Bu borada ko‘plab metodik qo‘llanmalar, o‘quv adabiyotlari chop etilgan. Ushbu adabiyotlarda talabalarga rangtasvir ishlashni o‘rgatishning turli usul va metodlari bayon qilingan. Ularning eng asosiylari rangshunoslik asoslarini haqidagi materiallar, turli xil ashyolarda naturaga qarab bosqichma-bosqich rangtasvir ishlash, shuningdek, dekorativ rangtasvir ishlash metodlari haqidagi ma’lumotlar berilgan, tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Arxitektura sohasi ta’limida ham rangtasvir ishlashning ana shu mavjud pedagogik tajribalarga asoslaniladi. Aytish kerakki, bo‘lajak me’morlar uchun garchi akademik rangtasvir ishlashning barcha qoidalari muhim bo‘lsada, dekorativ rangtasvir ishlashga ko‘proq e’tibor beriladi. Amaliy mashg‘ulotlardan o‘rin olgan, “Natyurmortni dekorativ usulda ishlash”, “Shahar manzarasini dekorativ usulda tasvirlash” kabi mavzular orqali talabalarning ranglarni sezish, his qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi, rangtasvir ishlashga qiziqish uyg‘otiladi.

XULOSA: Arxitektorlik kasbini tanlagan talabalarning ranglarni sezish, his qilish va ularni o‘z o‘rnida ishlata bilish kabi qobiliyatlarini, badiiy-estetik didlarini rivojlantirish hamda tarkib toptirishida ranngtasvir ishlash, jumladan, dekorativ rangtasvir ishlash mashg‘ulotlarining katta ahamiyati bor. Bu boradagi ta’lim mazmunining turli xil komponentlaridan izchil foydalanish, ta’sirli pedagogik metodlarni ishlab chiqish va ularni joriy etish orqaligina ko‘zlangan natijalarga erishish mumkin.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Rangtasviriy mashg‘ulotlarida hosil qilinadigan bilim va malakalar talabalarning zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida turli arxitekturaviy loyihalarni bajara olishlari uchun asos bo‘ladi. Shuningdek, kelgusi kasbiy faoliyatlarida ular bu tajriba va ko‘nikmalardan unumli foydalanish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Kalit so‘zlar: Arxitektura, badiiy ta’lim, rangtasvir, rangshunoslik, dekorativ rangtasvir, metodika, komponent, dekorativ natyurmort, kolorit.

РАЗВИТИЕ У БУДУЩИХ АРХИТЕКТОРОВ УМЕНИЯ ВОСПРИНИМАТЬ ЦВЕТ И ИСПОЛЬЗОВАТЬ ИХ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Бердиев Нурмон Очилович
Доцент Ташкентского архитектурно-строительного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматривается важная роль и значение цвета в деятельности будущих архитекторов, а также тщательное освоение принципов живописи и их эффективное применение на практике. Высказываются мнения о развитии у студентов способности воспринимать цвета, развитии навыков практической работы с различными цветами и их использования в профессиональной деятельности. Также подчеркивается, что целесообразно больше использовать декоративные методы живописи, больше внимания уделять этим аспектам вопроса в образовательных процессах, рекомендуются педагогические и наиболее эффективные методы, используемые в этом отношении.

ЦЕЛЬ: Развитие у студентов, обучающихся по направлению "Архитектура," способности воспринимать, чувствовать и работать с цветами.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Иметь необходимые знания и навыки изобразительного искусства и его видов, основных закономерностей в них важно и для будущих архитекторов. Причина в том, что они эффективно используют все правила описания в своей профессиональной деятельности.

Одним из основных средств, придающих живописи выразительность, является цвет. Изобразитель может приобрести необходимые знания и навыки только путем научно обоснованного изучения правил живописи. В этой связи опубликовано множество методических пособий и учебной литературы. В этой литературе описаны различные методы и приемы обучения студентов живописи. Наиболее важными из них являются материалы об основах цветоведения, информация о поэтапной живописи на различных материалах в зависимости от натуры, а также о методах декоративной живописи, и разработаны рекомендации.

Образование в области архитектуры также основано на этом существующем педагогическом опыте живописи. Следует отметить, что, хотя все правила академической живописи важны для будущих архитекторов, больше внимания уделяется декоративной живописи. На практических занятиях по таким темам, как "Разработка натюрморта декоративным способом," "Изображение городского пейзажа декоративным способом," развиваются способности студентов воспринимать и чувствовать цвета, пробуждается интерес к живописи.

ВЫВОД: Занятия живописью, в том числе декоративной живописью, имеют большое значение в развитии и формировании художественно-эстетических вкусов студентов, выбравших архитектурную профессию, таких способностей, как восприятие, чувствование и уместное использование цветов. В связи с этим желаемых результатов

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

можно достичь только путем последовательного использования различных компонентов содержания образования, разработки и внедрения эффективных педагогических методов.

Знания и навыки, приобретаемые на занятиях по живописи, станут основой для того, чтобы студенты могли выполнять различные архитектурные проекты с помощью современных компьютерных технологий. Они также получат возможность эффективно использовать этот опыт и навыки в своей будущей профессиональной деятельности.

Ключевые слова: Архитектура, художественное образование, живопись, цветоведение, декоративная живопись, методика, компонент, декоративный натюрморт, колорит.

DEVELOPING FUTURE ARCHITECTS' SKILLS TO PERCEIVE COLORS AND USE THEM IN THEIR PROFESSIONAL ACTIVITIES

Berdiyev Nurmon Ochilovich
Associate Professor, Tashkent University of Architecture and Construction

Annatation.

INTRODUCTION: This article examines the important role and importance of color in the activities of future architects, as well as the thorough mastery of painting principles and their effective practical application. Opinions are expressed on developing students' ability to perceive colors, developing practical skills in working with various colors, and using them in professional activities. It is also emphasized that it is advisable to use decorative methods of painting more, to pay more attention to these aspects of the issue in educational processes, and pedagogical and most effective methods used in this regard are recommended.

THE GOAL: To develop the ability to perceive, feel, and work with colors in students studying in the "Architecture" program.

MATERIALS AND METHODS: Having the necessary knowledge and skills in fine arts and its types, the basic patterns in them, is also important for future architects. The reason is that they effectively use all the rules of description in their professional activities.

One of the main means of giving expressiveness to painting is color. A painter can acquire the necessary knowledge and skills only by scientifically studying the rules of painting. In this regard, many methodological manuals and educational literature have been published. This literature describes various methods and techniques for teaching students painting.

The most important of these are materials on the basics of color theory, information on staged painting on various materials depending on the nature, as well as on the methods of decorative painting, and recommendations have been developed.

Architectural education is also based on this existing pedagogical experience of painting. It should be noted that all the rules of academic painting are important for future architects, but more attention is paid to decorative painting. In practical classes on topics such as "Developing a still life in a decorative way," "Depicting a city landscape in a decorative way," students' abilities to perceive and feel colors are developed, and their interest in painting is awakened.

CONCLUSION: Painting, including decorative painting, has great significance in developing and shaping the artistic and aesthetic tastes of students who have chosen the architectural profession, such as the ability to perceive, feel, and use colors appropriately. In this regard, desired results can only be achieved through consistent use of various components of educational content, development and implementation of effective pedagogical methods.

The knowledge and skills acquired in painting classes will become the basis for students to be able to perform various architectural projects using modern computer technologies. They will

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

also have the opportunity to effectively use this experience and skills in their future professional activities.

Keywords: Architecture, art education, painting, color theory, decorative painting, methodology, component, decorative still life, color.

Ranglarni sezish, his qilish va ularni o‘z o‘rnida ishlata bilish ko‘plab soha kishilari uchun, ayniqsa, rassomlar, dizaynerlar va me’morlar (arxitektorlar) uchun nihoyatda zarur. Jumladan, bo‘lajak arxitektorlar ham bevosita ranglar bilan ishlashadi va ular kundalik faoliyatlarida o‘zlaridagi ana shu sifatlarni doimiy rivojlantirib borishlari talab etiladi. Boshqacha aytganda, ular tasviriy san’at, undagi asosiy tushunchalar, rangshunoslikdagi eng muhim qoidalarni bilishlari va amalda qo‘llay olishlari kerak. Shuning uchun ham: “Rangtasvir – arxitektor va dizaynerlar tayyorlash tizimidagi eng muhim o‘quv fanidir.” [1]

Ammo, kompyuter texnologiyalarining o‘rni va salmog‘i tobora oshib borayotgan hozirgi davrda, arxitektura yo‘nalishlarida tahsil oluvchi talabalarga badiiy-grafika sohalarida ta’lim berish, jumladan, ranglar bilan ishlash va ularning ahamiyati haqidagi bilimlarni singdirish borasida ayrim muammolar yuzaga chiqmoqda. Bularning bir qancha sabablari bor, ular asosan quyidagilar: 1. Talabalarda tasviriy san’at sohasida boshlang‘ich bilim va malakalarning etarli emasligi; 2. Bu boradagi qiziqishlarining kamligi; 3. Chiziqli tasvirlash qoidalari, shuningdek, ranglar bilan ishlashning amaliy ahamiyatini to‘liq anglab etmaslik; 4. Ularda me’moriy loyihalar ishlash uchun kompyuter texnologiyalarini bilishning o‘zi etarli ekanligi haqidagi noto‘g‘ri tafakkurning shakllanganligidir.

Bunday holatlarda, shu soha ta’limida faoliyat olib borayotgan rassom-pedagoglar oldiga muammolarni ta’lim sifatini yanada oshirish barobarida yangi-yangi metodlarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish vazifalarini qo‘yadi.

Mavjud dasturlar asosida rangtasvir ishlashning an’anaviy akademik qoida va metodlariga urg‘u beriladi. Ya’ni, mashg‘ulotlarda natura hoh u akvarel bo‘yog‘ida, hoh shu kabi boshqa ash’yolarda bo‘lsin, ishni bosqichma-bosqich olib borish hamda ranglarning murakkab tuzilmalaridan foydalanib tasvir ishlash tavsiya qilinadi. Akademik qoidalar asosida rangtasvir ishlash esa qiyin vazifa. Chunki, har bir tasvir yoki tasvirlanayotgan yuzalarda aks etadigan murakkab ranglar jamlanmalarini ko‘rish, ularning o‘zaro munosabatlarini chuqur his qilish, amaliy ishlash jarayonlarida maqsadga muvofiq tarzda aks ettir olish oson ish emas. Tabiiyki, hali tasviriy san’at sohasida etaeli bilim va malakalarga, ish tajribasiga ega bo‘lmasdan turib, talaba bu vazifalarni ado etishda qiynaladi.

Shunday ekan, bo‘lajak me’morlarning ranglar bilan ishlash ko‘nikmalarini o‘stirish, ularga rangshunoslik asoslarini chuqurroq singdirish uchun nimalarga e’tibor berish maqsadga muvofiq ekanligi haqida o‘ylash, fikr yuritish pedagoglar oldidagi asosiy vazifalardandir.

Ushbu maqolada ko‘rib chiqilayotgan muammo, ya’ni talabalarning ranglarni sezish va his qilish qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi shu paytgacha nashr etilgan ko‘plab ilmiy adabiyotlarda turlicha yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Jumladan, S.Abdurasilov, B.Boymetov., N.Tolipov tomonidan (2009yil Toshkent)da chop etilgan “Tasviriy san’at” o‘quv qo‘llanmasi, S.S. Bulatov muallifligida chop etilgan (2009yil. Toshkent) “Rangshunoslik”nomli darslik, Z.R. Bobomurotov tomonidan (2013yil, Toshkent) chop etilgan “ Qalamtasir, rangtasvir” o‘quv qo‘llanmasi, N.O. Berdiyev., Z.R.Bobomuratovlar tomonidan chop etilgan (Toshkent. 2020yil) “Qalamtasvir va rangtasvir fanlaridan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish”nomli o‘quv qo‘llanma, N.V. Gilmanova muallifligida nashr etilgan (Toshkent: 2012yil) “Rangtasvirda yorug‘lik va rang” nomli o‘quv qo‘llanmasi, Z.Sotiboldiyev tomonidan chop etilgan “Dizayn

[1] Gilmanova N.V. Rangtasvirda yorug‘lik va rang. O‘quv qo’llanma. 8-bet. Toshkent, 2012.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

asoslari" nomli o'quv qo'llanmasi. (Toshkent, 2008yil), S.A. Proxorov., A.V. Shadurinlar tomonidan nashr etilgan "Живопис для архитекторов и дизайнеров" nomli o'quv qo'llanmasi (Barnaul: 2010yil) va boshqalarda rangshunoslik asoslari va ranglar bilan ishlash bo'yicha ko'plab metodik ishlanmalar keltirilgan, tavsiyalar bayon qilingan. Shu kabi tegishli o'quv adabiyotlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularda biz maqolada muammo sifatida tilga olinayotgan masalalar asosan umumiy tarzda bayon qilib borilgan, realistik rangtasvir asoslarini o'rganish bo'yicha tavsiyalar va amaliy mashqlar ishlanmalari ishlab chiqilgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, aynan dekorativ rangtasvir ishlash orqali bo'lajak arxitektorlarning ranglarni sezish va his qilish qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi alohida masala sifatida ko'rib chqilmagan.

Rangtasvir mashg'ulotlarning sifat darajasini ko'tarish, talabalarning ranglarni sezish, his qilis va ular bilan ishlay olish kompitentsiyalarini rivojlantirish uchun nimalarga e'tibor berish va qanday metodlardan foydalanish mumkin? Bu haqdagi fikr-mulohazalarimiz va tavsiyalarimizni keltirib o'tamiz. Jumladan, ular quyidagilar:

1. Talabalarga rangtasvir qonuniyatlarini o'rganishning bo'lajak arxitektorlar faoliyatidagi o'rni va ahamiyatini to'g'ri tushuntirish va talabalarga etkazib berish. Bunda: a) Turli xil arxitekturaviy loyihalarda, eskizlarda ranglardan foydalanish masalasining muhimligi; b) Bino va inshoatlar interyeri va eksteryerlarida ranglar kompozitsiyasidan foydalanishning ahamiyati, ulardan to'g'ri va talab darajasida foydalanishni bilish me'morning kasbiy mahoratini, ijodiy fikrlash darajasini belgilovchi omillardan biri ekanligini misollar asosida tushuntirish;

Bunda pedagog tomonidan talabaga quyidagi mazmundagi mustaqil ishlarni bajarishni tavsiya qilinishi mumkin: a) Kompyuter texnologiyasi yordamida ma'lum maqsadlarga xizmat qilishga mo'ljallangan bino interyeri devorlarinig rang echimlarini topish va amaliy ishlash. b) Birorta jamoat binosining eksteryerida ishlatilgan ranglar va ulardan foydalanish masalasi bo'yicha hayotiy misollar toppish, tegishli rangli foto tasvirlar tayyorlash, ularga izoh berish.

Vazifaning bunday qo'yilishi birinchi holatda (a-vazifa) masala garchi kompyuter yordamida bajarilishi talab qilinayotgan bo'lsada, talabaga anchagina qiyinchilik tug'diradi. Sababi, hali ranglar va ularni bir-biriga qo'shish orqali keltirib chiqarish, yangi rang tuslarini hosil qilish bo'yicha ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lmagan talaba uchun bu vazifani talab darajasida bajarish oson emas. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, uning ongu-shuurida tasvirlash asoslarini puxtaroq o'rganish va ranglar bilan ishlash borasida ko'proq amaliy ishlash kerkligi haqidagi tafakkur jonlanadi. Ikkinchi holatda esa, ranglar va ularning qo'llanishi haqidagi mashg'ulotlarning hayot bilan bog'lanishini, kelgusi kasbiy faoliyatidagi ahamiyatini yaxshiroq anglab etadi.

Tabiiyki, bunday pedagogik yondoshuvlar talabaning kelgusi kasbiy faoliyatida ranglarning ishlatilishi va uni nima sababdan yaxshi o'rganish kerakligi haqidagi masalaga oydinlik kiritadi, muammoning asl sabablarini tushnishiga yordam beradi.

2. Garchi, akademik rangtasvir talabaning ranglar bilan ishlash qobiliyatini yuqori darajada oshirish imkoniyatiga ega bo'lsada, biz ko'rib chiqayotgan hozirgi holatlar uchun anchagina murakkablik qiladi. Buning sabablari yuqorida takidlab o'tilganidek, talabaning akademik rangtasvir qoidalarini o'zlashtirishi va amaliy ishlash darajasiga etishi uchun kerak bo'ladigan dastlabki bilim va malakalarning etishmasligi, tayyorgarlik darajasining talab darajasida emasligi. Bundan tashqari, rangtasvir qonuniyatlarini o'zlashtirish, bu borada talabaning amaliy ko'nikmalar hosil qila olishi uchun dars mashg'ulotlariga ajratilgan vaqt (dars soatlari)ning nisbatan kamligi va boshqa omillar ta'sir qiladi.

Shuning uchun, dekorativ rangtasvir murakkablik jihatidan bir oz soddaroq ekanligi talabalarning bu borada anchagina samarali ishlash imkoniyatlarini oshiradi. Shuning baroborida ularda ranglar bilan ishlashga rag'bat o'ynashi mumkinligini ham e'tirof etsa bo'ladi.

Dekorativ rangtasvir nima? Bu-narsa yoki shakllar tasvirini stillashtirilgan (narsa tasvirini

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

shakl va rang jihatdan qayta ishlash) holatda, rang berishdagi shartlilik, bezakdorlik xususiyatiga ega bo‘lgan, badiiy-estetik talablarga javob beruvchi rangtasvir hisoblanadi. Ya’ni, undagi tasvirlash usullari, rang berish aynan hayotdagi rang ko‘rinishlariday bo‘lmaydi.

Arxitektur yo‘nalishlari talabalari uchun “Tasviriy san’at” faniga tegishli o‘quv mashg‘ulotlarida dekorativ rangtasvir ishlashning turli yo‘nalishlari bo‘yicha ish olib boriladi. Ularni quyidagicha turkumlash mumkin: dekorativ bezak ishlarida ranglardan foydalanish, dekorativ rangtasvir usulida natyurmortlar ishlash, shahar manzarasining dekorativ rangtasvirini ishlash va boshqalar.

Quyida dekorativ usulda natyurmort rangtasvirini bo‘yicha ayrim fikr-mulohazalarni keltirib o‘tamiz.

Dekorativ usulda ishlangan natyurmort o‘z xarakteri jihatidan chiziq va ranglardagi shartlilikka asoslangan. Masalan, narsa va predmetlar tasviridagi rang berish jarayonida har bir rang alohida-alohida qo‘yilishi mumkin, lekin ular eng asosiysi yaxlit ko‘rinish hosil qila olishi kerak. Bu yerda rang qo‘yishdagi shartlilikning turli xil tasviriy usullaridan foydalanish mumkin. Muhimi, o‘sha olingan usul yoki o‘ziga xos rang berish tartibi tasvir sifatiga halaqit bermasligi kerak. Chunki dekorativ usulda bajarilgan ishlarda rang va chiziqlardagi aniqlik, yorqinlik va ular jozibadorligi muhim hususiyat hisoblanadi.

Ammo tasvirlovchi rang tuslarini berishga berilib ketib, naturadagi narsa va buyumlarning umumiy ko‘rinishi, holati, bir-birlariga nisbatan och-to‘qligi kabi muhim jihatlarni nazardan chetda qoldirmasligi kerak. Bundan tashqari, ranglardan foydalanishda yorug‘va soya qonuniyatlari hisobga olinishi, shu tariqa tasvirlanayotgan buyumning hajmini ko‘rsatish imkoniyatini saqlab qolish ham muhimdir.

Bulardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, dekorativ ishlashga ham ranglardan foydalanishga yuzaki yondoshib bo‘lmaydi.

1-Rasm. Dekorativ rangtasvir usulida ishlangan natyurmortda rang tuslaridan foydalanish namunasi.

“Shuni alohida aytib o‘tish lozim-ki, aniq rang tuslariga nisbatan qo‘shimcha rang tuslari ko‘proqdir”[2] Ularning bir-biriga qo‘shilishidan yuzlab va undan ham ko‘p ranglar hosil bo‘lishi mumkin. Ammo, ranglarning bunday murakkab tuslanishi va tovlasnishini payqash, ajratish va o‘z o‘rnida ishlatish oson ish emas. Bu vazifalarni bajara olish, ranglarni tanlash va uni o‘z o‘rnida ishlata bilish uchun anchagina mehnat qilish, muttasil va astoydil ishlash kerak bo‘ladi. Bu jarayonlarda albatta natyurmortning umumiy rang yechimi, kolorit (lotincha *color - rang*) - bir san’at asarida o‘zaro uyg‘unlashgan rang tuslari yig‘indisi) va ranglar garmoniyasi kabi rangtasvir qoidalariga ham amal qilinadi.

[2] S.S. Bulatov. Rangshunoslik. Bakalavriatning 5140900kasbiy (52112000-Amaliy san’at) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik. 110-bet. Toshkent, 2009yil.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Dekorativ xarakterdagi natyurmort ishlashda ham tasviriy san’at metodikasidagi barcha usullar qo‘llaniladi. Masalan, uni bajarishda amaliy ishni bosqichma-bosqich olib borish yaxshi natijalar beradi.

Umuman olganda, talaba kelajakda o‘zining amaliy ishlash faoliyatida, ya’ni arxitekturaviy loyihalash ishlarida ranglardan foydalanishni mukammal o‘rganishi, ularni o‘z o‘rnida foydalanishni bilishi kerak. Bundan tashqari, tasvirlashning estetik jihatlarini yuqori darajada egallashi uchun shu kabi mashg‘ulotlarning muhim ahamiyati bor.

Bo‘lajak arxitektorlar uchun kerak bo‘ladigan ranglarni his qilish va ularni o‘z kasbiy faoliytlarida qo‘llay olish kabi eng muhim sifatlarni o‘stirish, bu boradagi ularning kompitetntsiyalarini rivojlantirishda dekorativ natyurmort ishlash mashg‘ulotlarining imkoniyatlari yuqoridir. Shu kabi mashg‘ulotlarni olib borishda turli xil metodlardan o‘z o‘rnida va to‘g‘ri foydalanish, samarali usullarini izlab topish va darslar sifatini oshirish pedagoglar oldidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Abdurasilov S., Boymetov B., Tolipov N. “Tasviriy san’at”, o‘quv qo‘llanma, Toshkent,2009yil.

2.Bulatov S.S.. Rangshunoslik. Bakalavriatning 5140900kasbiy (52112000-Amaliy san’at) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik. Toshkent, 2009yil.

3. Bobomurotov Z.R. Qalamtasir, rangtasvir. Toshkent, 2013.

4.Berdiyev N.O., Бобомуротов Z.R. Qalamtasvir va rangtasvir fanlaridan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020.

5. Bekmirov Sh.Ch. Akvarel texnikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2021.

6. Gilmanova N.V. Rangtasvirda yorug‘lik va rang. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2012.

7. Sulaymonov A. Tasviriy san’at ta’limi sifati va samadorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari. Monografiya. Qayta ishlangan, to‘ldirilgan va tuzatilgan 2-nashri – Toshkent: “Bayoz”, 2021.-192 b.

8.S.A. Proxorov., A.V. Shadurin. “Живопис для архитекторов и дизайнеров”. O‘quv qo‘llanma. Barnaul: 2010y.

9.Z.Sotiboldiyev Z. “Dizayn asoslari”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2008.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАТSIЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Berdiyev Nurmon Ochilovich
Toshkent Arxitektura qurilish
universiteti dotsenti,Toshkent shahri.
Manzil: Yangishahar ko‘chasi 9A-uy,
Toshkent shahar, Yunusobod tumani.
berdiyevnurmon@gmail.com

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

OLIY TA’LIMDA FUTBOL TO‘GARAKLARINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH METODIKASI

Sattorov Anvar Ergashovich
Buxoro davlat universiteti professori,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida futbol to‘garaklarini samarali tashkil etish masalalari chuqur tahlil qilingan bo‘lib, unda ushbu jarayonning ilmiy-pedagogik asoslari, metodik yondashuvlari hamda tashkiliy mexanizmlari keng yoritiladi. Futbol to‘garaklari nafaqat talabalar jismoniy rivojlanishini ta’minlash, balki ularning sport mahoratini oshirish, psixologik tayyorgarligini mustahkamlash va ijtimoiy faolligini kuchaytirishda muhim vosita sifatida baholanadi. Shu bilan birga, futbol mashg‘ulotlarining talabalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, stressni yengish, jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va liderlik sifatlarini yuzaga chiqarishdagi o‘rni ham ko‘rsatib beriladi.

Maqolada futbol to‘garak mashg‘ulotlarini samarali tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar interaktiv usullar, axborot-kommunikatsiya vositalari, multimediya dars ishlanmalari va videonaliz imkoniyatlaridan foydalanish zarurligi ta’kidlanadi. Shuningdek, mashg‘ulotlar mazmunini talabalarning individual jismoniy tayyorgarlik darajasi, psixofiziologik xususiyatlari va qiziqishlariga moslashtirish, ularni bosqichma-bosqich tayyorlash metodikasi ham ochib beriladi.

MAQSAD: Oliy ta’limda futbol to‘garaklarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish metodikasini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Zamonaviy oliy ta’lim tizimi sharoitida futbol to‘garaklarini samarali tashkil etish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash dolzarb masala hisoblanadi. Masalan, mashg‘ulotlarda multimediya vositalaridan foydalanish, o‘yin jarayonini videoanaliz qilish, individual yondashuv asosida mashqlarni differensiallashtirish va pedagogik monitoring orqali talabalar rivojlanishini baholash zamonaviy yondashuvlar sirasiga kiradi.

Shuningdek, futbol to‘garaklari talabalarning sport mahoratini oshirish bilan birga ularning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, milliy sport siyosatini amalga oshirish hamda yoshlar orasida sportni keng targ‘ib qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu boisdan futbol to‘garaklarini ilmiy asoslangan tarzda rejalashtirish, metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish va pedagogik innovatsiyalar bilan boyitish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

XULOSA: Oliy ta’lim muassasalarida futbol to‘garaklarini tashkil etish – talabalarning sport madaniyatini rivojlantirish, jismoniy va psixologik tayyorgarligini oshirish hamda ularni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirishning samarali usullaridan biridir. Tashkiliy, metodik va pedagogik jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan futbol to‘garaklari talabalarning nafaqat sport mahoratini, balki ijtimoiy faolligi va jamoaviylik ko‘nikmalarini ham mustahkamlaydi.

Kalit so‘zlar: futbol, to‘garak, oliy ta’lim, integral tayyorgarlik, sport mashg‘ulotlari, pedagogik texnologiya.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ ФУТБОЛЬНЫХ КРУЖКОВ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА

Сатторов Анвар Эргашович
Профессор Бухарского государственного университета, доктор педагогических наук (PhD)

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье глубоко анализируются вопросы эффективной организации футбольной клубной деятельности в высших учебных заведениях, широко освещая научно-педагогические основы, методические подходы и организационные механизмы этого процесса. Футбольные клубы рассматриваются как важный инструмент не только обеспечения физического развития студентов, но и повышения их спортивного мастерства, укрепления психологической готовности и повышения социальной активности. При этом показана роль футбольных тренировок в формировании здорового образа жизни студентов, преодолении стресса, развитии навыков командной работы и раскрытии лидерских качеств.

ЦЕЛЬ: Научный анализ методологии организации футбольных клубов в высших учебных заведениях на основе инновационного подхода.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В условиях современной системы высшего образования применение инновационных педагогических технологий в процессе эффективной организации футбольных клубов является актуальной проблемой. К таким современным подходам относятся, например, использование мультимедийных средств в обучении, видеоанализ игрового процесса, дифференциация упражнений на основе индивидуального подхода, а также оценка развития студентов посредством педагогического мониторинга.

Также футбольные клубы служат эффективным инструментом повышения спортивного мастерства студентов, формирования здорового образа жизни, реализации национальной спортивной политики и широкой популяризации спорта среди молодёжи. Поэтому научно обоснованное планирование, методически грамотная организация футбольных клубов и обогащение педагогическими инновациями являются одной из наиболее актуальных задач сегодня.

ВЫВОД: Организация футбольных клубов в высших учебных заведениях является одним из эффективных способов развития спортивной культуры, повышения физической и психологической подготовленности студентов, ориентации их на здоровый образ жизни. Грамотно организованная в организационном, методическом и педагогическом плане футбольная секция укрепляет не только спортивные навыки студентов, но и социальную активность, а также навыки командной работы.

Ключевые слова: футбол, секция, высшее образование, интегрированное обучение, спортивная тренировка, педагогические технологии.

THE METHODOLOGY OF ORGANIZING FOOTBALL CLUBS IN HIGHER EDUCATION BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH

Sattorov Anvar Ergashovich
Professor of Bukhara State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Annatation.

INTRODUCTION: This article deeply analyzes the issues of effective organization of football clubs in higher educational institutions, which broadly covers the scientific and

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

pedagogical foundations, methodological approaches and organizational mechanisms of this process. Football clubs are considered an important tool not only for ensuring the physical development of students, but also for improving their sports skills, strengthening psychological readiness and increasing social activity. At the same time, the role of football training in forming a healthy lifestyle in students, overcoming stress, developing teamwork skills and revealing leadership qualities is also shown.

The article emphasizes the need to use modern pedagogical technologies, interactive methods, information and communication tools, multimedia lesson plans and video analysis capabilities in the effective organization of football club training. It also reveals the methodology for adapting the content of the training to the individual level of physical fitness, psychophysiological characteristics and interests of students, and their gradual preparation.

THE GOAL: Scientific analysis of the methodology for organizing football clubs in higher education based on an innovative approach

MATERIALS AND METHODS: In the conditions of the modern higher education system, the use of innovative pedagogical technologies in the process of effectively organizing football clubs is a pressing issue. For example, the use of multimedia tools in training, video analysis of the game process, differentiation of exercises based on an individual approach, and assessment of student development through pedagogical monitoring are among the modern approaches.

Also, football clubs serve as an effective tool for improving students' sports skills, as well as forming a healthy lifestyle, implementing national sports policy, and widely promoting sports among young people. Therefore, scientifically based planning, methodologically correct organization of football clubs, and enrichment with pedagogical innovations are one of the most urgent tasks today.

CONCLUSION: The organization of football clubs in higher education institutions is one of the effective ways to develop sports culture, increase physical and psychological fitness of students, and direct them to a healthy lifestyle. Properly organized football clubs in organizational, methodological, and pedagogical terms strengthen not only sports skills of students, but also social activity and teamwork skills.

Keywords: football, club, higher education, integrated training, sports training, pedagogical technology.

Oliy ta’lim muassasalarida sport to‘garaklarini tashkil etish yoshlarning ta’lim jarayoni bilan bir qatorda ularning jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda talabalarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish, ularni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish, zararli odatlardan xoli bo‘lishini ta’minlash hamda sportga qiziqishini kuchaytirish davlat siyosati darajasida belgilab qo‘yilgan vazifalardan biridir. Ayniqsa, futbol kabi keng ommalashgan sport turi talabalarni jismoniy chiniqtirish, ularda tezkorlik, chidamlilik, koordinatsiya, kuch va chaqqonlik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirish, shuningdek, psixologik barqarorlikni oshirishda katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, futbol to‘garaklari talabalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Birinchidan, futbol jamoaviy sport turi bo‘lgani uchun talabalar orasida ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari, hamkorlikda ishlash, jamoada o‘z o‘rnini topish va liderlik fazilatlari shakllanadi. Ikkinchidan, muntazam mashg‘ulotlar talabalarni o‘zini boshqarish, maqsad sari intilish, tartib-intizom va iroda kabi sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Uchinchidan, sport

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

faoliyati ularning psixofiziologik holatini yaxshilaydi, stressni kamaytiradi va o‘quv jarayonida samaradorlikni oshiradi.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimi sharoitida futbol to‘garaklarini samarali tashkil etish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash dolzarb masala hisoblanadi. Masalan, mashg‘ulotlarda multimediya vositalaridan foydalanish, o‘yin jarayonini videoanaliz qilish, individual yondashuv asosida mashqlarni differensiallashtirish va pedagogik monitoring orqali talabalar rivojlanishini baholash zamonaviy yondashuvlar sirasiga kiradi.

Shuningdek, futbol to‘garaklari talabalarning sport mahoratini oshirish bilan birga ularning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, milliy sport siyosatini amalga oshirish hamda yoshlar orasida sportni keng targ‘ib qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu boisdan futbol to‘garaklarini ilmiy asoslangan tarzda rejalashtirish, metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish va pedagogik innovatsiyalar bilan boyitish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, futbol to‘garaklari nafaqat sport ko‘nikmalarini shakllantirish, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishning ham muhim vositasidir.

Reilly va Williams (2015) futbolni nafaqat sport, balki ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik vositasi sifatida baholaydi. Ularning tadqiqotlarida futbol jamoaviy hamkorlik, tezkor qaror qabul qilish va strategik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligi ko‘rsatiladi[3].

Bompa (2018) o‘zining «Periodization» asarida sport mashg‘ulotlarini bosqichma-bosqich rejalashtirishning ilmiy asoslarini bayon qilib, talabalar sport tayyorgarligida bosqichli yondashuv samaradorligini ta’kidlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6099-sonli Farmoni (2020) hamda «Yoshlar – kelajagimiz» davlat dasturi (2017) da yoshlarning sportga qiziqishini oshirish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi PQ-115-son “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori jismoniy va ma’naviy salomatligini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan.

Axmedov B.F. (2020) tomonidan ishlab chiqilgan «Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi» kitobida talabalarda jismoniy sifatlarni shakllantirishning metodik asoslari keltirilgan bo‘lib, unda futbol kabi sport to‘garaklarining o‘quv-tarbiyaviy ahamiyati alohida ta’kidlanadi.

Nazarov A. (2019) «Sport pedagogikasi asoslari» asarida sport mashg‘ulotlari jarayonida pedagogik yondashuvning ilmiy asoslarini ishlab chiqib, futbol to‘garaklari orqali yoshlarni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirishning metodlari keltirilgan.

Mohr (2017) tadqiqotlarida esa futbolning fiziologik jihatlari, talabalar organizmiga jismoniy yuklamaning ta’siri va mashg‘ulotlarni nazorat qilish tizimlari keng yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, futbol to‘garaklari oliy ta’lim muassasalarida nafaqat sport mashg‘ulotlari sifatida, balki ijtimoiy-tarbiyaviy hamda sog‘lomlashtirish omili sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois mazkur masalani yanada chuqurroq ilmiy tadqiq qilish va milliy sharoitga mos metodik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Futbol to‘garaklarining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

Oliy ta’lim muassasalarida futbol to‘garaklarini tashkil etishning asosiy maqsadi - talabalarning jismoniy tayyorgarligini yuqori darajaga ko‘tarish, sport texnikasi va taktik

[3] Reilly T., Williams A.M. Science and Soccer: Developing Elite Performers. – Routledge, 2015. – 340 p.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ularning ijtimoiy-psixologik moslashuvini ta’minlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdan iboratdir. Futbol to‘garaklari orqali talabalar muntazam ravishda sport faoliyatiga jalb qilinib, ularning shaxsiy salohiyati, jamoaviy ishlash ko‘nikmalari va hayotiy faoliyati yanada takomillashadi.

Mazkur maqsad nafaqat sport sohasida, balki talabaning shaxs sifatida shakllanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Zero, futbol mashg‘ulotlari davomida o‘quvchi-talaba o‘zini nazorat qilish, maqsad sari intilish, qat’iyat va iroda kabi sifatlarni egallaydi, bu esa kelgusida ularning professional faoliyatida ham foydali bo‘ladi.

Maqsaddan kelib chiqib quyida vazifalar belgilandi:

1. Talabalarda futbolga oid nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.

Futbol to‘garaklari faqatgina maydondagi mashg‘ulotlar bilan chegaralanmasdan, nazariy bilimlarni ham o‘z ichiga olishi zarur. Talabalar futbol tarixi, o‘yin qoidalari, taktik sxemalar, hakamlik asoslari va zamonaviy futbol rivojlanishidagi tendensiyalar bilan tanishtiriladi. Amaliy mashg‘ulotlarda esa ular to‘pni boshqarish, zarba berish, uzatish va himoya qilish kabi asosiy texnik elementlarni mukammal o‘zlashtirishlari kerak. Bu yondashuv talabaning nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirgan holda rivojlanishiga yordam beradi.

2. Jismoniy sifatlarni (kuch, chidamlilik, tezkorlik, chaqqonlik, moslashuvchanlik) rivojlantirish.

Futbol to‘garaklarining asosiy vazifalaridan biri talabalar jismoniy sifatlarini har tomonlama rivojlantirishdir. Kuch – zarba va qarshi kurashlarda, chidamlilik – uzoq davom etadigan o‘yinlarda, tezkorlik va chaqqonlik – hujum va himoya paytidagi qaror qabul qilishda, moslashuvchanlik esa turli o‘yin vaziyatlarida samarali harakat qilishda muhim ahamiyatga ega. Mashg‘ulotlarda turli xil yugurish mashqlari, epchillik estafetalari, sakrash mashqlari va kuch mashqlari orqali bu sifatlar izchil rivojlantiriladi.

3. Texnik va taktik harakatlarni bosqichma-bosqich o‘rgatish va takomillashtirish.

Futbolchilarni tayyorlash jarayonida texnik va taktik ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish katta ahamiyatga ega. Avval individual texnik elementlar – dribling, zarba, to‘pni qabul qilish va uzatish o‘rgatilsa, keyinchalik kichik guruhli hamkorlik mashqlari va jamoaviy o‘yin sxemalari qo‘llaniladi. Bu usul orqali talabalar o‘yin vaziyatlarini to‘g‘ri baholash, qaror qabul qilish tezligini oshirish va jamoaviy taktikalardan samarali foydalanishni o‘zlashtiradilar.

4. Jamoaviy o‘yin ruhini, sport etikasi va halollik tamoyillarini singdirish.

Futbol to‘garaklari talabalarda jamoaviylik ruhini shakllantiradi. Har bir talaba maydonda nafaqat o‘z o‘rnini, balki jamoadoshlarining vazifalarini ham to‘g‘ri anglashni o‘rganadi. Shu orqali u hamkorlikda ishlash, liderlik fazilatlarini namoyon etish va jamoada o‘z o‘rnini topish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Sport etikasi va halollik tamoyillariga amal qilish, raqibga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, intizomli bo‘lish kabi qadriyatlar esa shaxsiy rivojlanishda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

5. Talabalarning bo‘sh vaqtini samarali va sog‘lom tarzda tashkil etish.

Zamonaviy jamiyatda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish katta ahamiyatga ega. Futbol to‘garaklari talabalarni turli zararli odatlardan himoya qiladi, ularni sport bilan muntazam shug‘ullanishga yo‘naltiradi va sog‘lom turmush tarzini shakllantiradi. Shu bilan birga,

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

to‘garak mashg‘ulotlari talabalarning ijodiy salohiyatini ochish, ularda sport musobaqalarida ishtirok etish orqali o‘ziga ishonchni mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.

Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalarida futbol to‘garaklarini tashkil etishning maqsad va vazifalari talabalarning jismoniy rivojlanishi, texnik-taktik tayyorgarligi, ijtimoiy-psixologik shakllanishi va sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirilishini ta’minlashga qaratilgan. Bu vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali talabalarning sport madaniyati shakllanadi va ularning umumiy hayot faoliyatida muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari ortadi.



Oliy ta’lim muassasalarida futbol to‘garaklarini samarali tashkil etishda eng avvalo mashg‘ulotlarni yillik, oylik va haftalik reja asosida rejalashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunda umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik mashqlar hamda nazariy bilimlar uyg‘un holda olib borilishi ta’minlanadi. Rejalashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi: tayyorlov bosqichida talabalar umumiy tayyorgarlikka jalb qilinadi, asosiy bosqichda texnik-taktik ko‘nikmalarni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratiladi, nazorat-musobaqa bosqichida esa o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini amalda sinovdan o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishda differensial yondashuv qo‘llanilishi muhim bo‘lib, talabalar tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib guruhlarga ajratiladi va mashqlar individual xususiyatlarga moslashtiriladi. Bu usul har bir talabaga o‘z imkoniyatlari va salohiyatidan kelib chiqib rivojlanish imkonini beradi.

Bugungi kunda futbol to‘garaklarini tashkil etishda innovatsion metodlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Videoanaliz yordamida o‘yin jarayonidagi xatoliklar tahlil qilinadi, interaktiv mashg‘ulotlar orqali nazariy bilimlar mustahkamlanadi, shuningdek, mobil ilovalar va raqamli texnologiyalar yordamida talabalar jismoniy holati va rivojlanish dinamikasi muntazam monitoring qilinadi.

Talabalar o‘zlashtirish darajasini doimiy nazorat qilib borish uchun musobaqa va nazorat o‘yinlari muntazam tashkil etiladi. Universitet ichida kichik turnirlar o‘tkazilishi, shuningdek, boshqa oliy ta’lim muassasalari bilan musobaqalar uyushtirilishi talabalar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantiradi, ularning sportga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va o‘yin davomida olgan ko‘nikmalarini real sharoitda sinab ko‘rish imkonini beradi.

Bundan tashqari, futbol to‘garaklarining samaradorligini oshirishda integrativ yondashuv muhim o‘rin tutadi. Bunda futbol mashg‘ulotlari nafaqat texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlikni, balki psixologik mashqlarni, nazariy bilimlarni hamda tiklanish tadbirlarini o‘z ichiga oladi. Bu esa talabaning jismoniy, aqliy va ruhiy salohiyatini uyg‘un rivojlantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, futbol to‘garaklarini yuqorida qayd etilgan tashkiliy usullar asosida tashkil etish talabalarning sport mahoratini oshirish, jismoniy rivojlanishini ta’minlash, psixologik barqarorligini mustahkamlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda samarali natijalar beradi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Oliy ta’lim muassasalarida futbol to‘garaklarining samaradorligini aniqlashda bir qator mezonlarga tayaniladi. Avvalo, mashg‘ulotlar jarayonida talabalarning jismoniy ko‘rsatkichlaridagi ijobiy dinamikalar kuzatilishi muhimdir. Bu o‘zgarishlar yugurish tezligi, chidamlilik, kuch, epchillik va chaqqonlik kabi sifatlarda o‘z aksini topadi hamda muntazam mashg‘ulotlarning samaradorligini yaqqol ko‘rsatadi.

Shuningdek, talabalar tomonidan bajarilayotgan texnik va taktik harakatlarning sifat darajasi futbol to‘garaklarining muvaffaqiyatli tashkil etilganidan dalolat beradi. To‘pni boshqarish, zarba berish, uzatish, himoya va hujumdagi hamkorlik kabi elementlar mashg‘ulotlarda mukammal bajarila boshlasa, bu jarayonning samarali kechayotganini bildiradi.

Futbol mashg‘ulotlarida talabalarda jamoaviylik ruhining shakllanishi, o‘zaro hurmat, hamkorlik va sport etikasi tamoyillariga rioya qilinishi ham samaradorlik mezonlaridan biridir. Maydonda nafaqat shaxsiy, balki jamoa manfaatini ustuvor qo‘yish, halollik va intizomni saqlash talabalar shaxsida muhim ijtimoiy sifatlarni rivojlantiradi.

Bundan tashqari, futbol to‘garaklarining samaradorligi talabalar o‘rtasida o‘tkaziladigan musobaqalardagi natijalar va ularda ishtirok etish faolligi orqali ham baholanadi. Talabalar universitet ichida, shuningdek, boshqa oliy ta’lim muassasalari bilan musobaqalarda muntazam qatnashib, yuqori natijalarga erishsa, bu o‘quv mashg‘ulotlarining samarali yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatadi.

Eng muhimi, futbol to‘garaklari talabalar hayotida sog‘lom turmush tarziga intilish va muntazam sport bilan shug‘ullanish odatlarini shakllantiradi. Talabalar sportni hayotiy zarurat sifatida qabul qilib, o‘z salomatligini mustahkamlashga intiladi, bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etadi va zararli odatlardan uzoq bo‘lishga harakat qiladi.

Umuman olganda, futbol to‘garaklarining samaradorlik mezonlari talabalarning jismoniy rivojlanishi, texnik-taktik mahorati, ijtimoiy ko‘nikmalari va turmush tarzidagi ijobiy o‘zgarishlar orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu esa to‘garaklarning nafaqat sportiy, balki tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyatini ham chuqur tasdiqlaydi.

Oliy ta’lim muassasalarida futbol to‘garaklarini tashkil etish – talabalarning sport madaniyatini rivojlantirish, jismoniy va psixologik tayyorgarligini oshirish hamda ularni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirishning samarali usullaridan biridir. Tashkiliy, metodik va pedagogik jihatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan futbol to‘garaklari talabalarning nafaqat sport mahoratini, balki ijtimoiy faolligi va jamoaviylik ko‘nikmalarini ham mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Bompa T., Buzzichelli C. Periodization: Theory and Methodology of Training. – Human Kinetics, 2018. – 424 p.

2. Ахмедов Б.Ф. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси // Илмий-методик журнал. – Тошкент, 2020. – №2. – Б. 45–52.

3. Назаров А. Спорт педагогикаси асослари // “Жисмоний маданият ва спорт” илмий журнали. – Тошкент, 2019. – №3. – Б. 67–74.

4. Mohr M., Krustrup P., Bangsbo J. Match performance of high-standard soccer players with special reference to development of fatigue // Journal of Sports Sciences. – 2003. – Vol. 21(7). – P. 519–528.

5. Алиев Ш. Олий таълим муассасаларида спорт тўгаракларини ташкил этишнинг педагогик асослари // “Спорт ва ижтимоий ҳаёт” илмий журнали. – Самарқанд, 2021. – №1. – Б. 112–118.

6. Каримов Ф.Ф. Футбол тўгаракларида талабаларнинг жисмоний сифатларини ривожлантириш методикаси // Жисмоний тарбия ва спорт илмий амалий журнали. – Тошкент, 2020. – №4. – Б. 78–85.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

7. Anderson L., Orme P., Di Michele R., Close G., Milsom J. Quantification of training load in UK professional soccer players // International Journal of Sports Physiology and Performance. – 2016. – Vol. 11(4). – P. 479–487.

8. Хусанов Д.Ф. Олий таълимда спорт тўгараклари орқали талабаларнинг ижтимоий фаоллигини ривожлантириш // Педагогика ва психология илмий журнали. – Бухоро, 2022. – №6. – Б. 91–97.

9. Weston M., Castagna C., Impellizzeri F.M., Rampinini E., Abt G. Analysis of physical match performance in English Premier League soccer referees with particular reference to first half and second half differences // Journal of Sports Sciences. – 2007. – Vol. 25(7). – P. 787–792.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Sattorov Anvar Ergashovich
Buxoro davlat universiteti professori,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Manzil: O'zbekiston, 200100, Buxoro shahri

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

MODELLASHTIRISHDA TASODIFIY MIQDORLARNING SONLI XUSUSIYATLARIDAN FOYDALANISH

Siddiqov Zayniddin Xoldorovich
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya.

KIRISH: Maqolada jarayon va tizimlarni modellashtirishda tez-tez uchraydigan differensial va integral taqsimot funksiyalar, ularning o‘zgarish sohasi, ko‘rsatkichlari, sonli xususiyatlarini o‘rganish masalalari bayon qilingan. Jarayon yoki tizimlarning ko‘rsatkichlarini o‘lchashda, tasodifiy miqdorlarning to‘la xususiyatlari bo‘lib, ularning taqsimot qonunlari xizmat qilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

MAQSAD: Modellashtirishda tasodifiy miqdorlarning sonli xususiyatlaridan foydalanishni ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Xalq xo‘jaligini muvaffaqiyatli boshqarish uchun ularning alohida sifat ko‘rsatkichlarini hisobga olish yetarli emas. Murakkab tizimlar va jarayonlarni to‘la tahlil qilish uchun texnik kibernetika usullarini keng qo‘llash zarur bo‘ladi. Ishlab chiqarishda tobora keng ommalashib borayotgan texnik-kibernetika tadbiqiy fan bo‘lib, bu fan nazariy kibernetika ishlab chiqqan vositalar bo‘yicha murakkab jarayonlar va tizimlarni EHM yordamida, kompyuterlar yordamida boshqarish usullarini o‘rganadi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, jarayon yoki tizimlarning ko‘rsatkichlarini o‘lchash va hisoblashda tasodifiy miqdorlarning to‘la xususiyatlari aniqlanadi va yuqoridagi formulalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda jarayon va tizimlarni modellashtirishda tez-tez uchraydigan differensial va integral taqsimot funksiyalar, ularning o‘zgarish sohasi, ko‘rsatkichlari va sonli xususiyatlari hisobga olinadi.

Kalit so‘zlar: jarayon va tizim, hisoblash texnikasi, differensial va integral taqsimot funksiyalar, ilmiy texnika taraqqiyoti.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЧИСЛОВЫХ СВОЙСТВ СЛУЧАЙНЫХ ВЕЛИЧИН В МОДЕЛИРОВАНИИ

Сиддиков Зайниддин Холдорович,
доцент Ферганского государственного университета,
доктор педагогика (PhD)

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В статье рассмотрены вопросы исследования дифференциальных и интегральных функций распределения, их области изменения, показателей и числовых свойств, часто встречающиеся при моделировании процессов и систем. Показано, что при измерении показателей процессов или систем случайные величины являются полными свойствами, а их законы распределения – их законами распределения.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

ЦЕЛЬ: Научный анализ использования числовых свойств случайных величин в моделировании.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Для успешного управления народным хозяйством недостаточно учета их отдельных качественных показателей. Для полного анализа сложных систем и процессов необходимо широкое использование методов технической кибернетики. Техническая кибернетика, приобретающая все большую популярность в производстве, является прикладной наукой, изучающей методы управления сложными процессами и системами с помощью вычислительной техники с использованием средств, разработанных теоретической кибернетикой.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: В заключение следует отметить, что при измерении и расчете показателей процессов или систем определяются полные свойства случайных величин и рекомендуется использовать приведенные выше формулы. При этом учитываются дифференциальные и интегральные функции распределения, их области изменения, индикаторы и числовые свойства, часто встречающиеся при моделировании процессов и систем.

Ключевые термины: процессы и системы, вычислительная техника, дифференциальные и интегральные функции распределения, научно-технический прогресс.

USE OF NUMERICAL PROPERTIES OF RANDOM VARIABLES IN MODELING

Siddikov Zayniddin Kholdorovich,
Associate Professor of Fergana State University, (PhD)

Annatation.

INTRODUCTION: The article describes the issues of studying differential and integral distribution functions, their domain of variation, indicators, and numerical properties that are often encountered in modeling processes and systems. It is shown that when measuring the indicators of processes or systems, random quantities are complete properties, and their distribution laws serve.

THE GOAL: Scientific analysis of the use of numerical properties of random quantities in modeling

MATERIALS AND METHODS: For successful management of the national economy, it is not enough to take into account their individual qualitative indicators. For a complete analysis of complex systems and processes, it is necessary to widely use the methods of technical cybernetics. Technical cybernetics, which is becoming increasingly popular in production, is an applied science that studies methods for controlling complex processes and systems using computers using the tools developed by theoretical cybernetics.

CONCLUSION: In conclusion, when measuring and calculating the indicators of processes or systems, the full properties of random variables are determined and the above formulas are recommended to be used. In this case, differential and integral distribution functions, their domain of variation, indicators and numerical properties, which are often encountered in modeling processes and systems, are taken into account.

Keywords: process and system, computing techniques, differential and integral distribution functions, scientific and technical progress.

Ilmiy texnika taraqqiyoti hisoblash texnikasini keng qo‘llanishi asosida jarayonlar va tizimlarni avtomatik hamda avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlaridan foydalanib,

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

mamlakatimiz xalq xo‘jaligiga fan texnikaning eng yangi yutuqlarini keng ko’lamda qo‘llab borishni taqozo etadi.

Modellashtirish metodologiyasining mohiyati dastlabki ob’yektni uning "tasviri" – matematik model bilan almashtirish va kompyuterlarda amalga oshirilgan hisoblash mantiqiy algoritmlari yordamida modelni yanada o‘rganishdan iborat. Idrok, dizayn, dizaynning ushbu "uchinchi usuli" ham nazariyaning, ham eksperimentning ko‘plab afzalliklarini birlashtiradi. Ob’yektning o‘zi (hodisalar, jarayon) bilan emas, balki uning modeli bilan ishlash har qanday taxmin qilinadigan vaziyatlarda uning xususiyatlari va xatti-harakatlarini og‘riqsiz, nisbatan tez va sezilarli harajatlarsiz tekshirishga imkon beradi.

Quyida bitta chiqish ko‘rsatkichi bo‘yicha regression model qurish masalasini ko‘rib chiqaylik. Odatda jarayon yoki ob’yektning bitta chiqish ko‘rsatkichi bo‘yicha regression modelini qurish uchun X faktorning keng miqyosda o‘zgaradigan qiymatlari bo‘yicha faol tajriba o‘tkaziladi.

Xalq xo‘jaligini muvaffaqiyatli boshqarish uchun ularning alohida sifat ko‘rsatkichlarini hisobga olish yetarli emas. Murakkab tizimlar va jarayonlarni to‘la tahlil qilish uchun texnik kibernetika usullarini keng qo‘llash zarur bo‘ladi. Ishlab chiqarishda tobora keng ommalashib borayotgan texnik-kibernetika tadbiqiy fan bo‘lib, bu fan nazariy kibernetika ishlab chiqqan vositalar bo‘yicha murakkab jarayonlar va tizimlarni EHM yordamida, kompyuterlar yordamida boshqarish usullarini o‘rganadi.

Hozirgi davrda modellashtirishning regression, korrelyatsion, o‘xshash, taqlidiy, argumentlarni guruhlab hisobga olish usullari keng tarqalgan.

Matematik modellar ob’yektni nazariy va amaliy tahlil qilish natijasida yaratiladi. Tajribalarni matematik rejalashtirish usullari qaralayotgan jarayon yoki tizimning matematik modelini chiquvchi ko‘rsatkichga ta’sir etuvchi faktorlarni o‘zgarish miqyosida optimal usulda qurish imkonini beradi.

Texnika oliy o‘quv yurtlarining ko‘pchilik mutaxassisliklari bo‘yicha «Modellashtirish» darslari kiritilib, bu darslarda har xil ob’yektlarning statik va dinamik modellarini qurish usullari va vositalari o‘rganiladi.

Jarayon yoki tizimlarning ko‘rsatkichlarini o‘lchashda, tasodifiy miqdorlarning to‘la xususiyatlari bo‘lib, ularning taqsimot qonunlari (funksiyalari) hisoblanadi.

Jadvalda jarayon va tizimlarni modellashtirishda tez-tez uchraydigan differensial va integral taqsimot funksiyalar, ularning o‘zgarish sohasi, ko‘rsatkichlari, sonli xususiyatlari keltirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Taqsimotning nomi	Taqsimot funksiyalar	Tasodifiy miqdorning o‘zgarish sohasi	Taqsimot parametrlari	Asosiy sonli xarakteristikalar
1	2	3	4	5
Gaussning normali	$f(Y)=\frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}}ex\eth\left[-\frac{(Y-\eta}{2\sigma^2}\right.$ $F(Y)=\int_{-\infty}^{Y}\frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}}\times$ $\times ex\eth\left[-\frac{(Y-\eta)^2}{2\sigma^2}\right]dY$	$-\infty<Y<\infty$	$M\{Y\}=\eta;$ $-\infty<\eta<\infty$ $D(Y)=\sigma^2;\ \sigma>0$	$M\{Y\}=\eta;$ $D(Y)=\sigma^2;$ $K_A=0;\ K_E=3$

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

$Z=\frac{Y-\eta}{\sigma}$ **uchun Normal**	$f(Z)=\frac{1}{\sqrt{2\pi}}\exp\left(-\frac{Z^2}{2}\right)=\sigma f(Y)$ $f(Z)=\frac{1}{\sqrt{2\pi}}\int_{-\infty}^{Z}\exp\left(-\frac{Z^2}{2}\right)dZ=$ $=1/2+\Phi(Z)$	-∞<Z<∞ -∞<Y<∞	M{Y}=η; D(Y)=σ²;	M{Z}=0; D(Z)=1; K_A=0; K_E=3
Puasson	$f(Y)=\frac{\lambda^Y}{Y!}e^{-\lambda}$ $F(Y)=\sum_{i=0}^{Y}\frac{\lambda^i}{i!}e^{-\lambda}$	Y=0,1,2	λ>0	M{Y}=η=λ; D{Y}=σ²=λ ; $K_A=\frac{1}{\sqrt{\lambda}};K_{\acute{y}}=\frac{1}{\lambda}.$
Logarifmik normal	$f(Y)=\frac{1}{Y\sigma\sqrt{2\pi}}\exp\left[-\frac{(\ln Y-\mu)^2}{2\sigma^2}\right]$ $F(Y)=F(Z)=\frac{1}{2}+\hat{O}(Z)$ $\hat{O}(Z)=\frac{1}{\sqrt{2\pi}}\int_0^Z\exp\left(-\frac{1}{2}Z^2\right)dZ$	0≤Y<∞	-∞<μ= =M{lnY}<∞ 0<σ²=D{lnY}	M{Y}=η= exr(μ+ +0,5σ²)=eμ $\sqrt{\zeta}$; D{Y}=σ²=(ζ- - 1)exr(2μ+σ²)= (ζ-1)η²;- $\hat{E}_{\grave{A}}=\sqrt{\xi-1}(\xi+2);$ ζ=exrσ²; K_E=(ζ- 1)(ζ³+3ζ²+6ζ+ 6)+3; M_0{Y}=exr(μ- -σ²); Me{Y}=exrμ.
Gamma - taqsimot	$f(Y)=\frac{\lambda^\alpha}{\partial(\alpha)}Y^{\alpha-1}\exp(-\lambda Y)$ $F(Y)=\int_0^Y f(Y)dY$ $\partial(\alpha)=(\alpha-1)!$	0≤Y<∞	λ>0 α>0	$M\{Y\}=\eta=\frac{\alpha}{\lambda};$ $D\{Y\}=\sigma^2=\frac{\alpha}{\lambda^2};$ $K_A=\frac{2}{\sqrt{\alpha}};K_{\acute{y}}=\frac{3(\alpha+2)}{\alpha}$
Eksponensial	f{Y}=λexp(-λY) F{Y}=1-exp(-λY)	0≤Y<∞	λ>0	M{Y}=η=1/ λ; D{Y}=σ²=1/λ² ; K_A=2; K_E=9; M_0{Y}=0; Me{Y}=ln2/ λ
1	2	3	4	5
Ko‘rsatkich darajali	$f(Y)=\frac{Y^\alpha}{\alpha!}\exp(-Y)$ $F(Y)=\frac{1}{\alpha!}\int_0^Y t^\alpha\exp(-t)dt$	0≤Y<∞	λ>0	M{Y}=η=α+1 ; D{Y}=σ²=α+ 1;

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

				$ж_A = \frac{2}{\sqrt{\alpha+1}}$; $K_э = \frac{3(\alpha-3)}{\alpha+1}$
Veybulla	$f\{Y\}=\alpha\lambda Y^{\alpha-1}exr(-\lambda Y^{\alpha})$ $F\{Y\}=1-exr(-\lambda Y^{\alpha})$	$0\le Y<\infty$	$\lambda>0$ $\lambda=1/\beta>0$	$M\{Y\}=\eta=\beta^{1/\alpha}$ $G(1+$ $+1/\alpha)$; $D(Y)=\sigma^2=\beta^{2/\alpha}\{$ $G(1++2/\alpha)-$ $G^2(1+1/\alpha)\}$; $\hat{E}_{\grave{A}} = \frac{\mu_3}{D^3\{Y\}}; K_{\acute{y}} = \frac{\mu_4}{D^2\{Y\}}$ $\mu_3=[G(1+3/\alpha)-$ $-3G(1+$ $+1/\alpha)G(1+2\alpha)$ $+2G^3(1+1/\alpha)]\beta^{4/\alpha}$; $\mu_4=[G(1+4/\alpha)-$ $-4G(1+$ $+3/\alpha)G(1+1/\alpha$ $)+$ $+6G(1+$ $+2/\alpha)G^2(1+1/$ $\alpha)-$ $-$ $3G^4(1+1/\alpha)]\beta^{4/\alpha}$;
Styudentning t–taqsimoti	$f(Y) = \frac{\tilde{A}[(n+1)/2]}{\tilde{A}(n/2)\sqrt{\pi n}} \times$ $\times(1+Y^2/n)^{-(n+1)/2}$ $F(Y) = Sn(t) = Đ(Yn < Y) =$ $= \int_{-\infty}^{Y} f(\xi)d\xi$	$t = \frac{x}{\sqrt{x^2/n}}$ $M\{x\}=0$ $D\{x\}=1$	$n>0$	$M\{Y\}=0$ $(n\ge2)$; $D\{Y\}=\sigma^2=n/(n$ $-2)$ (bunda $n\ge3)$ $K_A=0$ $(n\ge4)$; $M_0\{Y\}=0$ $\hat{E}_{\acute{y}} = \frac{3(n-2)}{n-4}$
Fisher – Snedekorning F – taqsimoti	$f(Y) - C\frac{Y(f_1/2)-1}{(Yf_1+f_2)^{(f_3+f_2)/2}}$ $C = \frac{\partial[(f_1+f_2)/2]f_1^{f_1/2}f_2^{f_2/2}}{\partial(f_1/2)\partial(f_2/2)}$ $F(Y) = m(Y<t) = \int_0^t f(Y)dY$	$0\le Y=F<\infty$ $F = \frac{\chi_1^2/f_1}{\chi_2^2/f_2}$ $M\{x\}=0$ $D\{x\}=1$	$f_1=n_1-1>0$ $f_2=n_2-1>0$	$M\{Y\} - \eta = \frac{f_2}{f_2-2}$ $(á\ óí\ äàf_2>2)$ $D\{Y\} - \sigma^2 = \frac{2f_2^2(f_1+f_2-2)}{f_1(f_2-2)^2(f_4-2)}$ $(á\ óí\ äàf_2>4)$ $M_0\{Y\} = \frac{(f_1-2)f_2}{f_1(f_2+2)}$

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Beta – taqsimot	$f(Y)=\frac{\tilde{A}(\alpha+\beta)}{\tilde{A}(\alpha)\tilde{A}(\beta)}Y^{\alpha-1}(1-Y)^{\beta-1}$ $F(Y)=\frac{\tilde{A}(\alpha+\beta)}{\tilde{A}(\alpha)\tilde{A}(\beta)}\times$ $\times\int_0^Y t^{\alpha-1}(1-t)^{\beta-1}dt$	0≤Y<∞	α>0 β>0	$M\{Y\}=\eta\frac{\alpha}{\alpha+\beta}$ $D\{Y\}=\sigma^2=\frac{\alpha\beta}{(\alpha+\beta)^2(\alpha+\beta+1)}$ $K_A=\frac{2(\beta_\alpha)\sqrt{\alpha+\beta+1}}{(\alpha+\beta+2)\sqrt{\alpha\beta}}$ $M_0\{Y\}=\frac{\alpha-1}{\alpha+\beta-2}$ $K_{\dot{Y}}=\frac{3(\alpha+\beta+1)[2(\alpha+\beta)^2+}{+\alpha\beta(\alpha+\beta-6)]}{\alpha\beta(\alpha+\beta+2)(\alpha+\beta+3)}$
Teng o‘lchamli to‘g‘ri burchakli	$f(Y)=\frac{1}{Y_2-Y_1}$ $F(Y)=\frac{Y-Y_1}{Y_2-Y_1}$ F(Y)=1 bunda Y>Y_2	Y_1≤Y<Y_2	Y_1;Y_2;	M{Y}=η=(Y_1 +Y_2)/2; D(Y)=σ^2=(Y_2- -Y_1)^2/12; K_A=0; K_E=1,8
Pirsonning χ^2– kvadrat	$f(Y)=\frac{1}{2^{n/2}\partial(n/2)}Y^{n/2-1}e^{-Y/2}$ $F(Y)=m(\chi_n^2<Y)=\int_0^Y f(t)dt$	0≤Y=χ^2<∞ $\chi^2=\sum_{i=1}^{n}x_i^2$ M{x}=0 D{x}=1	*n*	M{Y}=η=n; D(Y)=σ^2=2n; $K_A=2\sqrt{2/n}$; K_E=(12/n)+3 M_0{Y}=n-2 (bunda n>2)

Hisoblash ishlarini soddalashtirish maqsadida tasodifiy miqdorlarning asosiy sonli xususiyatlarini hisoblashdan oldin tajriba natijalari ustida ba’zi bir operatsiyalar bajariladi:

1) Agar tajriba natijalari kasr qiymatlardan iborat bo‘lsa, ularni butun holga keltirish uchun biror songa ko‘paytiriladi.

2) Agar tajriba natijalari bir-biridan faqat oxirgi bir necha raqamlari bilan farq qilsa, sonlarning oldingi bir xil bo‘lgan raqamlari tashlab yuboriladi.

Misol: faraz qilaylik, jarayon yoki tizimning biror ko‘rsatkichini o‘lchash natijasida quyidagi natijalar olingan bo‘lsin: 8,35; 8,09; 8,93; 8,64; 8,37; 8,71; 8,19; 8,24; 8,64; 8,32.

Bunda sonlarni 100 ga ko‘paytirib 800 ni ayirsak, 35; 9; 93; 64; 37; 71; 19; 24; 64; 32 butun sonlarga ega bo‘lamiz. Sonli xususiyatlarni hisoblab bo‘lgandan keyin bajarilgan operatsiyalarga teskari operatsiyalar bajariladi, ya’ni natijaga 800 qo‘shilib, 100 ga bo‘linadi.

Tasodifiy miqdorlarning asosiy sonli xususiyatlari o‘rta qiymat (matematik kutilish), dispersiya va variatsiya koeffitsiyentlaridir. O‘rta qiymat tasodifiy miqdor taqsimotining markazini aniqlaydi. O‘rta qiymat o‘rta arifmetik orqali hisoblanadi va M{Y}= $\bar{Y}$ ko‘rinishida belgilanadi.

Dispersiya – tasodifiy miqdor qiymatlarining o‘rta qiymat atrofida taqsimlanishini harakterlaydi va δ^2{Y} bilan belgilanadi. δ^2{Y}=S^2{Y} formuladan hisoblanadi. Bunda

$$\delta\{Y\}=\sqrt{\delta^2\{Y\}}$$

o‘rta kvadratik og‘ish deyiladi.

Tajribalar soni kichik (m<30) bo‘lganda dispersiya

$$S^2\{Y\}=\frac{1}{m-1}\sum_{i=1}^{m}\left(Y_i-\bar{Y}\right)^2; \qquad (1)$$

yoki

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

$$S^2\{Y\} = \frac{1}{m-1}\left[\sum_{i=1}^{m} Y_i^2 - m\bar{Y}^2\right]; \qquad (2)$$

yoki

$$S^2\{Y\} = \frac{1}{m-1}\left[\sum_{i=1}^{m} Y_i^2 - \frac{1}{m}\left(\sum_{i=1}^{m} Y_i\right)^2\right]. \qquad (3)$$

formulalar bo‘yicha hisoblanadi.

Variatsiya koeffitsiyenti – tasodifiy miqdorning nisbiy taqsimotini harakter-laydi. V{Y} yoki CV{Y} ko‘rinishda belgilanadi va

$$\tilde{N}V\{Y\} = V\{Y\} = \frac{S\{Y\}}{\bar{Y}}. \qquad (4)$$

formula bo‘yicha hisoblanadi.

Ba’zan foiz ko‘rinishda ham hisoblanadi va kvadratik notekislik deyiladi.

$$\tilde{N}\{Y\} = \frac{S\{Y\}}{\bar{Y}} \cdot 100. \qquad (5)$$

Natija va muhokama

Agar tajribalar soni 30 dan ortiq bo‘lsa, hisoblashni osonlashtirish uchun “ko‘paytirish uslubi” yoki “shartli nol Y_0 dan boshlab hisoblash usuli” qo‘llaniladi. Bunda tajriba natijalari intervallarga ajratiladi. *m* ga bo‘g‘liq ravishda intervallar soni quyidagicha hisoblanadi. *m* va *k* orasidagi bog‘lanish quyidagi formula orqali topiladi yoki *m* va *k* orasidagi bog‘lanish 2-jadvalda ham keltirilgan (2-jadvalga qarang).

$$\left.\begin{array}{l} k = 3{,}332\lg m + 1, \quad 50 < m < 200 \\ k = 4\sqrt[5]{0{,}75(m-1)^2}, \quad m > 200 \end{array}\right\} \qquad (6)$$

2-jadval.

m	40-60	61-100	101-200	201-300	301-500	500 va undan ortiq
k	5-7	7-10	10-13	13-15	15-18	18-25

Shundan so‘ng, intervalning miqdori aniqlanadi.

$$\Delta_y = \frac{Y_{max} - Y_{min}}{k}. \qquad (7)$$

Δ_y ning qiymatiga qarab intervallarning chegaralari va intervallarning o‘rtacha qiymatlari hamda har bir intervaldagi chastotalar (intervalga tushgan tajriba natijalari sonlari) aniqlanadi (3-jadvalga qarang).

3-jadval.

Interval chegarasi	**Intervalning o‘rta qiymati Y_i^***	**Chastota m_i**	**y_i tasodifiy miqdorlar-ning nor-mallangan qiymati**	**m_iy_i**	**y_i^2**	**$m_iy_i^2$**
$Y_{min} \div Y_{min}+\Delta_y$	Y^*_1	m_1	y_1	m_1y_1	y_1^2	$m_1y_1^2$
……	…..	…….	…..	…….	…..	…….
$Y_0^* - \frac{\Delta_y}{2} \div Y_0^* + \frac{\Delta_y}{2}$	Y^*_0	m_0	y_0	m_0y_0	y_0^2	$m_0y_0^2$
……	…..	…..	…..	…..	…..	…..
$Y_{max}-\Delta_y \div Y_{max}$	Y^*_k	m_k	y_k	m_ky_k	y_k^2	$m_ky_k^2$
Σ	—	$\Sigma m_i = m$	—	Σm_iy_i	—	$\Sigma m_iy_i^2$

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

3-jadvaldan va “shartli nol usuli” dan foydalanib o‘rta qiymat va o‘rta kvadratik og‘ishni hisoblaymiz:

$$\overline{Y} = Y_0^* + \Delta_y \frac{1}{m}\sum_{i=1}^{m} m_i y_i \qquad (8)$$

$$S_y = S\{Y\} = \frac{\Delta_y}{\sqrt{m}}\sqrt{\sum_{i=1}^{k} m_i y_i^2 - \frac{1}{m}\left(\sum_{i=1}^{k} m_i y_i\right)^2}, \qquad (9)$$

bunda

$y_i = \frac{Y_i^* - Y_0^*}{\Delta_y}$ – ko‘rsatkichning normallangan qiymati;

Y_0^* – shartli nol, odatda m_i ning maksimal qiymatlari olinadi;

Y_i^* – i-intervalning o‘rta qiymati (8) formula bo‘yicha kvadratik notekislik hisoblanadi. Kvadratik notekislik (%) foizlarda belgilanadi va (9) formuladan topiladi.

$$C = \{Y\} = \frac{S\{Y\}}{\overline{Y}} \cdot 100$$

Misol: 4-jadvalda 200 ta tajriba natijalari keltirilgan, bunda Δ_y=0.4 va Y_0^*=12.4 (4-jadvalga qarang).

4-jadval.

Chegaraviy qiymatlar	**Y^*_i**	**m_i**	**y_i**	**$m_i y_i$**	**y_i^2**	**$m_i y_i^2$**
10.6-11	10.8	8	-4	-32	16	128
11-11.4	11.2	10	-3	-30	9	90
11.4-11.8	11.6	15	-2	-30	4	60
11.8-12.2	12.0	41	-1	-41	1	41
12.2-12.6	12.4	42	0	0	0	0
12.6-13.0	12.8	40	1	40	1	40
13.0-13.4	13.2	24	2	48	4	96
13.4-13.8	13.6	17	3	51	9	153
13.8-14.2	14.0	3	4	12	16	48
Σ	—	200	—	+18	—	656

(7), (8) va (9) formulalardan foydalanib, quyidagi qiymatlarga ega bo‘lamiz:

$$\overline{Y} = 12{,}4 + \frac{0{,}4 \cdot 18}{200} = 12{,}44;$$

$$S_y = \frac{0{,}4}{\sqrt{200}}\sqrt{656 - \frac{1}{200}(18)^2} = 0{,}72;$$

$$C\{Y\} = \frac{0{,}72 \cdot 100}{12{,}44} = 5{,}78\ \%.$$

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jarayon yoki tizimlarning ko‘rsatkichlarini o‘lchash va hisoblashda tasodifiy miqdorlarning to‘la xususiyatlari aniqlanadi va yuqoridagi formulalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda jarayon va tizimlarni modellashtirishda tez-tez uchraydigan differensial va integral taqsimot funksiyalar, ularning o‘zgarish sohasi, ko‘rsatkichlari va sonli xususiyatlari hisobga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Алиев Э., Уразов Н. Моделирование процессов и систем. ФАН. Ташкент – 1986 г.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

2. Тихонов А.А., Самарский А.П. Математическое моделирование: Идеи. Методы. Примеры. М. – Физматлит. 2001г. Монография. –320с.
3. Кузнецов В.Л. Математическое моделирование. МГТУ. Учебное пособие. – М. часть 1. 2003г.
4. Urazov N. va boshqalar. Jarayon va tizimlarni modellashtirish. Darslik. Farg‘ona – 2010-y. – 140 b.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАТSIЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Siddiqov Zayniddin Xoldorovich,
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Manzil: O‘zbekiston, Farg‘ona shahri

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

SAMBO KURASHIDA SPORT MASHGULOTIARINING MAZMUNI

Abdullayev Shuxrat Djumaturdiyevich
Buxoro davlat pedagogika instituti professori,
pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya.

KIRISH: Mazkur maqolada Sambo kurashi mashg′ulotlarida harakatlar va mashqlarni bajarishdagi kamchiliklarini bartaraf etish va to′g′ri bajarish bo′yicha murabbiy uslubiy tavsiyalar va ko′rsatmalar berishi, mashq va harakatni bir necha bor takrorlab ko′rsatib berishlari haqida fikr yuritilgan. Shundan so′ng har bir kurashchini alohida holatda kurash mashq va harakatlarini bajara olish malakasini nazorat qilinishi, kamchiliklarini tuzatishi kerakli tavsiyalarni berishi bayon etilgan.

MAQSAD: Sambo kurashi mashg′ulotlarini tashkil etishda murabbiylar so′z va amaliy uslubdan keng foydalanadilar. Har bir harakatni bajarish va har bir mashqga tayyorgarlik jarayoni haqida murabbiy to′liq tushantirish beradi. Mashqni va harakatni bajarib ko′rsatadi. Kurashchilar mashq va harakatni bajarib takrorlaydilar. Tushunmagan vaqtda savol berish, qayta bajarib ko′rsatishni taklif etishlari mumkin.

MATERIALLAR VA METODLAR: Sambo kurashi turlarida mashg′ulotlar jarayonlarida quyidagi yo′nalishlarda olib boriladi: jismoniy fazilatlarni rivojlantirish, texnik va taktik mahoratni shakllantirish. Jismoniy fazilatlarni rivojalantirish har bir mashg′ulot jarayonlarida tashkil etiladi. Shu bilan birga haftalik mashg′ulot jarayonlarining bir kunini jismoniy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo′lishi ham mumkin.

XULOSA: Har bir mashg′ulotlarda kurashchilar jismoniy fazilatlarini rivojlantirishda xususiy yondoshishi maqsadga muvofiq bo′ladi. Bunda kurashchilar o′zlarining yaxshi rivojlanmayotgan jismoniy sifatlarini rivojlantirishga e′tibor qaratadilar. Jismoniy mashqlarda quyidagi mashqlarni bajarish tavsiya etiladi. Bunda chidamlilikni rivojlantirish uchun uzoq masofalarga yugurishlar va krosslar o′tkaziladi. Kuch fazilatini rivojlantirishda kuch trenajerlarida mashqlar bajariladi. Chaqqonlikni rivojlantirish uchun futbol, basketbol, gandbol yoki regbi o′yini o′tkazilish mumkin. Shuningdek suzish mashqlari yordamida ham kurashchilar organizmi jismoniy rivojlantirilishi va sog′lomlashtirilishi mumkin.

Kalit so’zlar: jismoniy fazilatlarni rivojlantirish, texnik va taktik mahorat.

СОДЕРЖАНИЕ СПОРТИВНОЙ ПОДГОТОВКИ САМБИСТОВ

Абдуллаев Шухрат Джуматурдиевич
Профессор Бухарского государственного педагогического института,
кандидат педагогических наук.

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье обсуждается идея о том, что для устранения недостатков в выполнении движений и упражнений на тренировках по самбо тренер должен

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

давать методические рекомендации и указания, многократно демонстрировать упражнение и движение. После этого поясняется, что необходимо контролировать выполнение борцом борцовских упражнений и движений в конкретной ситуации и давать необходимые рекомендации по исправлению недостатков.

ЦЕЛЬ: При организации тренировок по самбо тренеры широко используют вербальные и практические методы. Тренер подробно объясняет процесс выполнения каждого движения и подготовки к каждому упражнению. Демонстрирует упражнение и движение. Борцы повторяют упражнение и движение. Борцы могут задавать вопросы и предлагать повторить выполнение, если им непонятно.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В тренировочном процессе по борьбе самбо реализуются следующие направления: развитие физических качеств, формирование технико-тактических навыков. Развитие физических качеств организовано в каждом тренировочном процессе. При этом один день еженедельного тренировочного процесса может быть посвящен развитию физических качеств.

ВЫВОД: Целесообразно, чтобы на каждой тренировке борцам подходил индивидуальный подход к развитию их физических качеств. В этом случае борцы уделяют внимание развитию недостаточно развитых физических качеств. Рекомендуется выполнять следующие упражнения в рамках физической подготовки. В данном случае для развития выносливости используются бег на длинные дистанции. Для развития силовых качеств выполняются упражнения на силовых тренажёрах. Для развития ловкости можно играть в футбол, баскетбол, гандбол или регби. Также с помощью упражнений по плаванию можно физически развивать и укреплять тело борцов.

Ключевые слова: развитие физических качеств, технико-тактические навыки.

CONTENTS OF SPORTS TRAINING FOR SAMBO WRESTLERS

Abdullayev Shukhrat Dzhumaturdievich
Professor of Bukhara state ppedagogical institute,
candidate of pedagogical sciences

.

Annatation.

INTRODUCTION: This article discusses the idea that, to address deficiencies in the execution of movements and exercises during SAMBO training, a coach should provide methodological recommendations and instructions, and demonstrate the exercise and movement repeatedly. It then explains the need to monitor the wrestler's performance of wrestling exercises and movements in a specific situation and provide the necessary recommendations for correcting these deficiencies.

THE GOAL: When organizing Sambo training, coaches make extensive use of verbal and practical methods. The coach explains in detail the process of performing each movement and preparing for each exercise. They demonstrate the exercise and movement. The wrestlers repeat the exercise and movement. Wrestlers may ask questions and suggest repeating the exercise if they do not understand.

MATERIALS AND METHODS: Sambo training focuses on the following areas: developing physical qualities and developing technical and tactical skills. Physical development is organized into each training session. One day of the weekly training session can be dedicated to developing physical qualities.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

CONCLUSION: It is advisable for wrestlers to have an individualized approach to developing their physical qualities during each training session. In this case, wrestlers focus on developing underdeveloped physical qualities. The following exercises are recommended as part of their physical preparation. In this case, long-distance running is used to develop endurance. Strength training is performed on weight machines. Agility can be developed through playing football, basketball, handball, or rugby. Swimming exercises can also be used to physically develop and strengthen wrestlers' bodies.

Keywords: physical development, technical and tactical skills.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024 yil 18-dekabr kuni “Yoshlarning sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi. Hujjat sport maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish, xususiy sport klublari hamda mahallalarda sport to‘garaklarini tashkil etgan trenerlarning yoshlarni muntazam sport bilan shug‘ullantirish borasidagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida qabul qilingan.

Respublikamizda, xususan, sport turlaridan – milliy kurash yoshlarni tarbiyalash va ta′lim berish ishlari yuqori darajada tashkillashtirilgan. Ya′ni bo′lajak xalqaro arenada yurt bayrog′ini baland ko′taruvchi yuqori malakali kurashchilar poydevori yaxshi yo′lga qo′yilgan. Kurash sport turi bilan shug′ullanuvchilarni tayyorlashda poydevorning mustahkamligi, ya′ni bazaviy va mutaxassislikka chuqurlashtirish davrida har bir jabhaga murabiy e′tibor berishi lozim.

Sambo kurashi mashg′ulotlarini tashkil etishda murabbiylar so′z va amaliy uslubdan keng foydalanadilar. Har bir harakatni bajarish va har bir mashqga tayyorgarlik jarayoni haqida murabbiy to′liq tushantirish beradi. Mashqni va harakatni bajarib ko′rsatadi. Kurashchilar mashq va harakatni bajarib takrorlaydilar. Tushunmagan vaqtda savol berish, qayta bajarib ko′rsatishni taklif etishlari mumkin. Yosh kurashchilar mashqni va harakatni bajarib o′rganishda dastlab qismlarga bo′lib bajaradilar. Kurashchi mashq va harakatni uslubiy jihatdan to′g′ri bajarganlaridan so′ng, murabbiy mashq va harakatni yaxlit shaklda bajarishlari talab etadi.

Kurashchilarni harakatlar va mashqlarni bajarishdagi kamchiliklarini bartaraf etish va to′g′ri bajarish bo′yicha murabbiy uslubiy tavsiyalar va ko′rsatmalar beradi. Mashq va harakatni bir necha bor takrorlab ko′rsatib berishlari mumkin. Shundan so′ng har bir kurashchini alohida holatda kurash mashq va harakatlarini bajara olish malakasini nazorat qiladi. Kamchiliklarini tuzatadi, kerakli tavsiyalarni beradi.

Kurashchilar har bir mashq va harakatni ko′p marotaba takrorlashlari kerak. Bu jarayonda kurash mashqlar va harakatlarini avtomatik tarzda bajara olish maxorati shakllanadi. Shu bilan birga kurash mashq va harakatlarini bellashuv jarayonlarida samarali bajarish malakasi shakllantiriladi. Buning uchun har bir mashg′ulotda aynan bir kurash mashq yoki harakatini qo′llab kurash tushish tavsiya etiladi. Bu uslub kurashchilarda kurash harakatlari va mashqlarini bellashuv jarayonlarida muvaffaqiyatli bajara olish malakasini shakllantirishga katta yordam beradi.

Sambo kurashi turlarida mashg′ulotlar jarayonlarida quyidagi yo′nalishlarda olib boriladi: Jismoniy fazilatlarni rivojlantirish, texnik va taktik mahoratni shakllantirish. Jismoniy fazilatlarni rivojalantirish har bir mashg′ulot jarayonlarida tashkil etiladi. Shu bilan birga haftalik mashg′ulot jarayonlarining bir kunini jismoniy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan bo′lishi ham mumkin. Bunda chidamlilikni rivojlantirish uchun uzoq masofalarga yugurishlar va krosslar o′tkaziladi. Kuch fazilatini rivojlantirishda kuch trenajerlarida mashqlar bajariladi. Chaqqonlikni rivojlantirish uchun futbol, basketbol, gandbol yoki regbi o′yini o′tkazilish mumkin. Shuningdek suzish mashqlari yordamida ham kurashchilar organizmi jismoniy rivojlantirilishi va sog′lomlashtirilishi mumkin.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Har bir mashg'ulotlarda kurashchilar jismoniy fazilatlarini rivojlantirishda xususiy yondoshishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda kurashchilar o'zlarining yaxshi rivojlanmayotgan jismoniy sifatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratadilar. Jismoniy mashqlarda quyidagi mashqlarni bajarish tavsiya etiladi.

Muskul kuchini rivojlantirish uchun; og'irliklar bilan mashqlar. gantellar, shtanga va polvon toshlar bilan kuch mashqlari bajarish. Kurashchilarning o'tirib turish mashqlarini bajarish: chuqur o'tirish, o'rta o'tirish, bir oyog'qa o'tirish, o'tirib harakatlanishlar. Sherigi qarshiliklari bilan mashqlar - surish, tortish, qisish, bosish mashqlari. Tezkorlikni ortirish uchun arqonda sakrash mashqlari. Sherigi yordamida tezkor mashqlar bajarish.

Buyumlarsiz bir kishi bajaradigan mashqlar. Ular asosiy muskul guruhlarini qisqartirish, cho'zish va bo'shashtirishga hamda kuchlilikni, tezlikni, chaqqonlikni va egiluvchanlikni rivojlantirish uchun harakatlar koordinasiyasiga yo'naltirilgan bo'ladi. Buyumlarsiz bajariladigan mashqlar bir joyda tik turib, o'tirib va yotib bajariladi. Ular katta amplituda bilan ravon, tezlikni asta-sekin oshirib va tez ijro etiladi.

Sambochilar umumiy va maxsus sport tayyorgarliklarining ko'rsatkichi (%)

1-Jadval

Sport tayyorgarlik shakllari	Tayyorgarlik bosqichlari		
	Dastlabki tayyorgarlik	Mutaxassislik tayyorgarlik	Yuqori malakali sportchilar
Nazariy tayyorgarlik	5-7%	6-8%	7-9%
Jismoniy tayyorgarlik	43-55%	32-40%	22-28%
Texnik tayyorgarlik	14-18%	16-20%	18-23%
Taktik tayyorgarlik	16-19%	25-30%	24-35%
Ma'naviy, psixologik - iroda tayyorgarlik	10-14%	20-26%	40-50%
Uslubiy hakamlik tayyorgarlik		12-18%	30-40%
T iklanish j arayonlari		6-7%	7-10%
O'quv yig'inlari va musobaqalar	0,5-1%	1-2%	3-5%

Sambo kurashida yillik musobaqa faoliyatini rejalashtirish (marta)

2-Jadval

Musobaqalar turlari	Sport tayyorgarlik bosqichlari					
	Dastlabki tayyorgarlik		Mutaxassislik tayyorgarlik			Yuqori Malakali sportchilar
	1 yil	2 yil	1 yil	2 yil	3 yil	Natijaga ko'ra
Nazorat	-	1	2	3	4	8
Saralash	-	-	1	2	3	4
O'rtoqlik	-	2	3	4	4	Ixtiyoriy
Asosiy	-	-	-	1	4	4

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Guruhdagi bellashuvlar	8	12	16	20	30	Ixtiyoriy

Murabbiyning mashg′ulotlarga tayyorgarlik ko′rishi. Murabbiy maxsus o′quv va uslubiy adabiyotlarni o′rganishi, musobaqa qoidalarini bilishi shart.

Har bir mashg′ulot uchun siz uning mazmunini aks ettiruvchi mashg′ulotlarning qisqacha mazmunini mashg′ulot ishlanmasini yozishingiz kerak (umumiy rivojlanish va maxsus mashqlar, kurash usullari va turlari).

Sambo kurashi mashg′ulotlarini o'tkaish bo'yicha namuna.[4]

1-MASHG′ULOT

- Saf mashqlari.
- Yurish-yugurish.
- Moslashuvchanlik uchun umumiy rivojlantiruvchi mashqlar.

Berilgan mashg′ulotlar faqat umumiy rivojlanish uchun turli mashqlar bilan to′ldirilishi kerak bo′lgan sxema. Mashqlarning m′yori jismoniy rivojlanishga, tarbiyalanuvchilar va murabbiyning tayyorgarligiga qarab o′zgaradi.

2- MASHG′ULOT

Yon tomonga yiqilib tushganda o′z-o′zini himoyalash (straxovka) (1-rasm). Ishtirokchilar yiqilish paytida yakuniy holatni o′rganadilar, so′ngra ular o′tirgan holatdan (to′liq cho′zilgan, yarim cho′zilgan, tik turib) orqaga burilib, oldingi holatga kelishadi.



Orqa oyog′ poshnasi bilan tashlash (2-rasm). Kurashchi uloqtirishni amalga oshiradi, ikkinchisi esa yonboshiga yiqilishida o′z-o′zini himoyalashning boshqacha usul

[4] Чумаков Е.М. 100 уроков борьбы самбо. - Издание. 3-е исправл. дополн. Москва, Физкультура и спорт, 1988. - 304 с.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Yon tomondan ushlash (3-rasm).

Bir kurashchi sherikni ushlab turishga imkon beradi, so′ngra sherik qarshilik ko′rsatuvchi sherikni ushlab turishni o′rganishi uchun ozgina kuch sarflab, qo′yib yuborishni boshlaydi. U ushlab turishni o′rgandan so′ng, sherigi to′liq kuch ishlatishi mumkin. Kurashchilar kurashishi mumkin. Sherigi chalqancha yotadi, qorniga burilmaydi va boshqasini ushlab turishga imkon bermaydi. 30-40 soniyadan so′ng kurashchilar rollarni o′zgartiradilar, so′ngra kurashchi sherikni boshqa tomondan, (chap va o′ng) tomondan tutadi.

1-mashg′ulotda o′rganilgan yon tomondan tushishni takrorlash, bir tomondan ikkinchisiga dumalab, tayoq orqali orqaga tushish daslabki holatga o′tishni o′rganish **(5-rasm).**



Yon tomondan supurmaga (podsechka) o′rganish (6-rasm). Sherigi oyog′larini qimirlatmay turganida usul bajariladi, keyin supurib tashlash sherigi harakat qilganda (orqaga chekinish, yon tomonga o′tish) o′rganiladi.



Qo′llarni yon tomondan ushlash orqali aylantirish (7-rasm). To′rt oyog′qa turgan sherikning orqa tomoniga aylantiring. Qaytishdan so′ng, yon tomondan ushlab turing. Avvaliga sherik qarshilik ko′rsatmaydi.Sambochi burilish usulini o′zlashtirgandan so′ng, sherik ushlagandan keyin qarshilik ko′rsatishi mumkin, keyin u qarshilik ko′rsatishi va qo′lini ushlashning oldini olishi mumkin. Har bir murabbiy etarli darajada psiholog bo′lishi, sportchilar fikri va hissiyotlarini tushunish qobiliyatiga ega bo′lishi hamda zo′riqishli mashg′ulot jarayoni, musobaqa faoliyati sharoitlarida ularning holatini boshqara olishi lozim.

Kurash turlari bo′yicha mashg′ulotlar uch bosqichda olib boriladi. Bular dastlabki tayyorgarlik, mutaxassislik tayyorgarligi xamda yuqori malakali sportchilar tayyorlash bosqichlaridan iborat bo′ladi. Dastlabki tayyorgarlik bosqichida yosh kurashchilar kurashchilarga xos bo′lgan harakatlar va usullarga o′rgatiladi. Shu bilan birga asosiy e′tibor ularning jismoniy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo′ladi. Mutaxassislik tayyorgarlik mashg′ulotlarida kurashchilarining texnik va taktik tayyorgarliklarini tashkil etish amalga oshiriladi. Bu bosqichda kurashchilarning nazariy, psixologik iroda va ma′naviy tayyorgarliklari ham amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Атаев А.К. Кураш Т., 1987.
2. Abdullayev Sh. Dj. Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi (Sambo). O‘quv qo‘llanma. Buxoro “Durdona” nashriyoti, 2022:- 232 bet.
3. Abdullayev Sh. Dj. Кураш турлари ва уни ўқитиш методикаси (Самбо) Дарслик. “Мухаммад полиграф” нашриёти, Бухоро:- 2023.- 452бет.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

4. Abdullaev Sh. Dj. Samboning jismoniy tarbiyadagi ko'p funksiyanalligi hamda murakkab vazifalari. — “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 12., 175-181bet.
5. Колодников И. П. Борьба самбо. -М. : Воениздат, 1960. - 80 с.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Abdullayev Shuxrat Djumaturdiyevich.
Buxoro davlat pedagogika instituti
“Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” kafedrasi professori,
pedagogika fanlari nomzodi.
Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KREATIV SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH

Saidova Gulruh Halim qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutni doktoranti

Annotatsiya

KIRISH: Muammoli ta'lim texnologiyalari zamonaviy pedagogik jarayonlarda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va takomillarni rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ salohiyatni shakllantirishda ushbu texnologiyalarning o‘rni katta ahamiyatga ega. Kreativlik nafaqat pedagogik faoliyatning sifatini oshiradi, balki kasbiy muvaffaqiyatga erishishda asosiy omil hisoblanadi.

MAQSAD: Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi muammoli ta'lim texnologiyalari yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirishning samarali usullarini aniqlash va tizimli yondashuvlar asosida pedagogik jarayonni takomillashtirishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: Tadqiqot uchun psixologik-pedagogik adabiyotlar, amaliy tajriba natijalari va o‘quv jarayonidagi kuzatishlardan foydalanildi. Metodik jihatdan muammoli ta'lim texnologiyalari, o‘yinlar, muammoli vazifalar, guruhli va individual faoliyatlar tahlil qilindi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativlik darajasini baholash uchun test va so‘rovnomalar qo‘llandi.

Tadqiqot natijalari muammoli ta'lim texnologiyalarining kreativ salohiyatni rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va muammolarni innovatsion tarzda hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Guruhli faoliyat esa kommunikatsiya va hamkorlik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Test va so‘rovnomalar natijasiga ko‘ra, o‘quvchilarning kreativlik salohiyati sezilarli darajada oshganligi aniqlangan.

XULOSA: Olingan natijalar muammoli ta'lim texnologiyalarining bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu texnologiyalar o‘quv jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirib, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, pedagogik jarayonni yangilash va takomillashtirishda muammoli yondashuvlarning ahamiyati oshadi, bu esa kelajakda sifatli ta'lim berish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kalit so‘zlar: muammoli ta’lim texnologiyalari, kreativ salohiyat, muammo, yechim, innovatsion metodlar, yangiliklar, bilim, ko‘nikma, dasturlar, pedagogika.

РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ПРОБЛЕМНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Саидова Гульрух Халимовна
Докторант Национального института педагогики образования имени Кори Ниязи

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: Технологии проблемного обучения являются эффективным средством развития у учащихся самостоятельного мышления и доработки в современных педагогических процессах. Особенно велика роль этих технологий в формировании творческого потенциала будущих педагогов. Креативность не только повышает качество педагогической деятельности, но и является ключевым фактором в достижении профессионального успеха.

ЦЕЛЬ: Основная цель данного исследования — выявить эффективные методы развития творческого потенциала будущих учителей с использованием проблемных образовательных технологий и совершенствовать педагогический процесс на основе системных подходов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Для исследования использовалась психолого-педагогическая литература, результаты практического эксперимента и наблюдения в процессе обучения. Методически проанализированы проблемные образовательные технологии, игры, проблемные задания, групповая и индивидуальная деятельность. Он также использовал тесты и анкеты для оценки уровня креативности будущих учителей.

Результаты исследования показали, что технологии проблемного обучения эффективны в развитии творческого потенциала. Они формируют у студентов навыки самостоятельного мышления и инновационного решения проблем. Групповая работа, в свою очередь, укрепляет навыки коммуникации и сотрудничества. По результатам тестирования и анкетирования установлено, что творческий потенциал студентов значительно возрос.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Полученные результаты показали высокую эффективность проблемных образовательных технологий в развитии творческого потенциала будущих педагогов. Эти технологии помогают формировать навыки решения проблем, стимулируя самостоятельное мышление учащихся в процессе обучения. Вместе с тем возрастает значимость проблемных подходов к обновлению и совершенствованию педагогического процесса, что в дальнейшем расширяет возможности качественного образования.

Ключевые слова: проблемно-ориентированные образовательные технологии, творческий потенциал, проблема, решение, инновационные методы, инновации, знания, навыки, программы, педагогика.

DEVELOPING CREATIVE COMPETENCES IN FUTURE TEACHERS BASED ON PROBLEM-BASED EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Saidova Gulruh Halim qizi
Doctoral student at the National Institute of Educational Pedagogy named after Qori Niyazi

Annotation

INTRODUCTION: Problematic educational technologies are an effective tool for the development of independent thinking and improvement of students in modern pedagogical processes. Especially in the formation of creative potential in future teachers, the role of these technologies is of great importance. Creativity not only increases the quality of pedagogical activity, but is also a key factor in achieving professional success.

THE GOAL: The main goal of this study is to identify effective methods for developing creative potential in future teachers using problem-based learning technologies and to improve the pedagogical process based on systematic approaches.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

MATERIALS AND METHODS: psychological and pedagogical literature, results of practical experience and observations in the educational process were used for Research. Methodically, problematic educational technologies, games, problematic tasks, Group and individual activities were analyzed. Tests and questionnaires were also used to assess the creativity level of prospective teachers.

The results of the study showed that problem-based learning technologies are effective in developing creative potential. These technologies form independent thinking and innovative problem-solving skills in students. Group work, on the other hand, strengthens communication and cooperation skills. According to the results of tests and questionnaires, it was found that the creative potential of students has increased significantly.

CONCLUSION: The results obtained showed that problematic educational technologies have a high efficiency in the development of creative potential in future teachers. These technologies promote independent thinking of students in the learning process, helping to form problem-solving skills. At the same time, the importance of problematic approaches in updating and improving the pedagogical process increases, which expands the possibilities of quality education in the future.

Keywords: problem-based learning technologies, creative potential, problem, solution, innovative methods, innovations, knowledge, skills, programs, pedagogy.

Muammoli ta’lim texnologiyalari zamonaviy ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda ta’lim sohasida faqat nazariy bilimlarni yetkazib berish emas, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va muammolarni hal etish qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, muammoli ta’lim texnologiyalari o‘quvchilarni faollikka, ijodkorlikka va izlanishga yo‘naltiruvchi samarali usul sifatida ko‘riladi. Muammoli ta’lim asosida o‘quvchi oldiga murakkab va noaniq vaziyatlar, muammolar qo‘yiladi. Bu muammolarni hal qilish jarayonida o‘quvchi o‘z bilimlarini mustahkamlash bilan birga, yangi ma’lumotlarni o‘zlashtiradi, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Ushbu texnologiya ta’lim jarayonini interaktiv va dinamik qiladi, o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini rag‘batlantiradi. Muammoli ta’lim texnologiyalarining asosiy maqsadi — o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, ularni yangi va innovatsion g‘oyalar yaratishga undashdir. Bu yondashuv nafaqat ilmiy darajadagi bilimlarning chuqurlashishiga, balki o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, pedagogika sohasida o‘qiyotgan bo‘lajak o‘qituvchilar uchun muammoli ta’lim texnologiyalari ulkan ahamiyatga ega, chunki ular o‘zlari kelajakda ta’lim jarayonida yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarni kreativ yondashuv bilan yengib o‘tishlari kerak bo‘ladi. Shu bois, muammoli ta’lim texnologiyalarini o‘rganish, ularning mohiyatini va usullarini chuqur anglash bugungi ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning ijodkorlik salohiyatini rivojlantirish va zamonaviy ta’limning talablariga mos kadrlar tayyorlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Muammoli ta’lim yondashuvi pedagogik amaliyotda keng qo‘llanilib, natijada ta’lim jarayoni samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Muammoli ta’lim texnologiyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirish mavzusiga bag‘ishlangan adabiyotlar sharhida ko‘plab olimlar va pedagoglar bu yondashuvning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini chuqur tahlil qilganlar. Muammoli ta’lim texnologiyasi – bu o‘quvchilarga yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish, murakkab va noaniq vaziyatlarga yechim topish imkoniyatini beruvchi pedagogik yondashuv hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi – o‘quvchilarni faqat tayyor javoblarni yodlashga emas, balki tanqidiy va ijodiy fikrlashga, mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatishdir. Shu bois, muammoli ta’lim

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

texnologiyasining bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda kreativ salohiyatni shakllantirishdagi roli juda muhimdir.

Qodirova o‘z tadqiqotida muammoli ta’lim texnologiyasining pedagogik samaradorligini ochib beradi. U ta’kidlaydiki, muammoli ta’lim o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi, ularni o‘z bilimlari asosida yangi va ijodiy yechimlar izlashga rag‘batlantiradi. Bu esa kreativ salohiyatning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, muammoli vaziyatlar yaratish o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni, muhim va murakkab masalalarni tahlil qilishni o‘rgatadi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilar uchun muhim pedagogik ko‘nikmalardir, chunki ular o‘z o‘quvchilarini yaratishga va rivojlantirishga mas’uldirlar.[5]

Islomova muammoli ta’lim texnologiyalarining o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda qanday ahamiyatga ega ekanligini keng yoritadi. Muammoli ta’lim o‘quv jarayonida faqat nazariy bilim bermasdan, balki o‘quvchilarga real hayotdagi muammolarni hal qilish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayonda o‘quvchilar yangi g‘oyalar ishlab chiqishga va mavjud bilimlarni yangi shakllarga moslashtirishga o‘rgatiladi. Islomovaning fikricha, ijodiy fikrlash o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi uchun muhim bo‘lib, uni shakllantirishda muammoli ta’lim texnologiyalari samarali vosita hisoblanadi.[6]

Karimova esa bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirishda muammoli ta’limning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi. Uning ta’kidlashicha, muammoli ta’lim texnologiyalari o‘qituvchilarga murakkab pedagogik vaziyatlarda tez va samarali yechimlar topish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu texnologiya pedagoglarga yangi pedagogik innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirishda o‘z ijodkorligini namoyon etishga zamin yaratadi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifatini oshirishga yordam beradi. Karimovaning tadqiqotlari bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ salohiyatini rivojlantirishda muammoli ta’lim yondashuvining o‘rinli ekanligini tasdiqlaydi.[7]

Jalilova muammoli vaziyatlar orqali o‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy ishlarida pedagoglarning roli va vazifalarini batafsil tahlil qiladi. Uning fikricha, muammoli ta’limda pedagoglar faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchilarni kreativ fikrlashga yo‘naltiruvchi, ularni yangi bilimlarni izlashga rag‘batlantiruvchi yo‘lboshchi sifatida faol ishtirok etishlari kerak. Muammoli vaziyatlarni yaratish pedagoglar uchun ijodkorlikni yanada oshirish uchun imkoniyatdir. Jalilova ushbu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda juda samarali ekanligini ta’kidlaydi.[8]

Muammoli ta’lim konsepsiyasining asosiy g‘oyasi shundaki, o‘quv jarayonida o‘quvchilar faqat berilgan bilimlarni pasiv ravishda qabul qilishmaydi, balki faol ravishda o‘zlari uchun yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni yaratishadi. Bu jarayonda muammolar va qiyinchiliklar o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi, mustaqil izlanishlarga undaydi, o‘z fikrlarini asoslash va himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Muammoli ta’lim o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu metodologiya bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda juda samarali hisoblanadi. Pedagogika sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar doimo yangi pedagogik texnologiyalar va metodlarni o‘zlashtirishlari zarur. Chunki ta’lim jarayoni doimiy ravishda yangilanib, o‘zgarib boradi, va bu jarayonda zamonaviy pedagoglarning kreativ yondashuvi asosiy o‘rin tutadi. Muammoli ta’lim texnologiyalari bo‘yicha tashkil etilgan o‘quv jarayonlarida bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlarining ijodiy salohiyatlarini sinovdan o‘tkazadilar,

[5] Qodirova, H. Y. (2020). Muammoli ta'lim texnologiyasining samaradorligi va pedagogik ahamiyati. Pedagogika va innovatsiya, 3(2), 15-22.
[6] Sobirova, F. (2022). Transplantatsiya jarayonlarida malakali kadrlar tayyorlash va muammolar. Tibbiyot Ta’limi, 7(1), 40-48.
[7] Islomova, M. (2021). Muammoli ta'lim texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish. Ta'lim va tarbiya, 4(3), 78-85.
[8] Toshpulatov, D. (2023). Zamonaviy axborot texnologiyalarining muammoli ta’limda qo‘llanilishi. Oliy ta’lim va ilm-fan, 8(1), 60-67.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

o‘qitishning yangi usullarini ishlab chiqadilar, murakkab pedagogik vaziyatlarni hal qilishda innovatsion yondashuvlardan foydalanadilar.[9]

Muammoli ta’lim jarayonining samaradorligi o‘qituvchining pedagogik mahoratiga ham bog‘liq. O‘qituvchi nafaqat darsni o‘tkazuvchi, balki yo‘riqnoma, maslahatchi va hamkor sifatida faol ishtirok etadi. U o‘quvchilarga muammoli vaziyatlarni tahlil qilish imkoniyatini beradi, o‘zaro fikr almashish va hamkorlikka yo‘naltiradi. Bu o‘quvchilarning shaxsiy fikrlarini shakllantirish va ularni yaratgan g‘oyalarini boshqalar bilan baham ko‘rishga rag‘batlantiradi. Shu yo‘l bilan bo‘lajak o‘qituvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv malakalari rivojlanadi. Pedagogik faoliyatda kreativlik — bu yangi yondashuvlarni, metodlarni ishlab chiqish va ta’lim jarayonida qo‘llash qobiliyatidir. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun kreativ salohiyat o‘ziga xoslik, erkinlik va yangiliklarga ochiqlik demakdir. Muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ularni murakkab pedagogik vaziyatlarda tez va samarali qaror qabul qilishga o‘rgatadi, bu esa professional sohada muvaffaqiyat uchun zarurdir. Shu bilan birga, kreativlik o‘qituvchilarga o‘quvchilarning qiziqishlarini uyg‘otish, darslarni qiziqarli va samarali o‘tkazish imkonini beradi. Muammoli ta’lim texnologiyasi samaradorligini oshirish uchun o‘quvchilarga beriladigan muammoli vazifalar real hayotiy vaziyatlarga yaqin bo‘lishi shart. Bu vaziyatlar o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalarini ham qo‘llashga majbur qiladi. Masalan, pedagogik ish davomida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish, ularni yechish usullarini topish, yangi metod va usullarni sinab ko‘rish o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu tariqa o‘quv jarayoni nafaqat bilim olish, balki izlanish va yaratish jarayoniga aylanadi. Muammoli ta’lim texnologiyalarining asosiy ustunligi shundaki, ular o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish va fikrlash odatini shakllantiradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z bilimlarini faqat qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida qabul qilishadi. Bu esa ular o‘z kelajakdagi pedagogik faoliyatlarida yangi va samarali yondashuvlarni qo‘llash imkonini beradi. Muammoli vaziyatlar yaratish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish bilan birga, ularni mas’uliyatli qaror qabul qilishga o‘rgatadi.[10]

Guruhda ishlash va hamkorlik muammoli ta’lim texnologiyalarining ajralmas qismi hisoblanadi. Guruh ichida muammolarni birgalikda tahlil qilish, fikr almashish va yechim topish o‘quvchilar orasida o‘zaro hurmat va ishonchni mustahkamlaydi. Bu jarayon ijodiy fikrlashni yanada kuchaytiradi, chunki turli fikr va qarashlar o‘rtasida muloqot va munozara yangi g‘oyalar paydo bo‘lishiga turtki beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun bunday tajriba kelajakda o‘quvchilar bilan samarali ishlashda katta yordam beradi. Muammoli ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish ham muhimdir. Har bir o‘quvchining qobiliyati, o‘rganish uslubi va fikrlash darajasi turlicha bo‘ladi. Shu sababli, muammoli vaziyatlar va topshiriqlarni moslashtirish zarur. Bu yondashuv har bir o‘quvchining ijodiy salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek, individual yondashuv o‘quvchilarning o‘ziga ishonchini oshiradi va o‘quv jarayonida faol ishtirok etishlariga turtki bo‘ladi.

Muammoli ta’lim texnologiyalarining samaradorligi uchun pedagogik vositalarni to‘g‘ri tanlash va qo‘llash zarur. Zamonaviy multimedia vositalari, interaktiv dasturlar, virtual muhitlar va simulyatsiyalar muammoli vaziyatlarni yanada jonli va qiziqarli qiladi. Bu esa o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularni yangi bilimlarni egallashga faol jalb qiladi va kreativlikni rivojlantirishga yordam beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar esa bunday vositalardan foydalanishni o‘rganib, ularni pedagogik amaliyotda samarali qo‘llashga tayyor bo‘lishlari kerak. Muammoli ta’lim texnologiyalari asosida o‘qituvchilarning professional kompetentsiyasi oshadi. Bu

[9] Karimova, G. (2021). Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirishda muammoli ta’limning roli. Pedagogik izlanishlar, 5(4), 33-42.
[10] Saidov, R. (2020). Muammoli ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etishning nazariy asoslari. Ta’lim fanlari, 6(2), 12-19.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

yondashuv o‘qituvchilarga nafaqat ta’lim nazariyasini o‘rgatadi, balki amaliyotda duch keladigan muammolarni kreativ yondashuvlar orqali hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. O‘z navbatida, bu o‘quvchilarga yuqori sifatli ta’lim berishga imkon yaratadi va ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Muammoli ta’lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish faqat nazariy bilimlar bilan cheklanishi mumkin emas. O‘quvchilarga amaliy vazifalar berish, loyiha ishlari bilan shug‘ullanish, mustaqil tadqiqotlar olib borish imkoniyatini yaratish zarur. Bu turdagi faoliyatlar o‘quvchilarning ijodkorlik salohiyatini yanada oshiradi, ularni yangi g‘oyalar va innovatsion yondashuvlar yaratishga rag‘batlantiradi. Muammoli ta’limda xatoliklarni ijobiy omil sifatida qabul qilish ham muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar muammoli vaziyatlarda noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishlari mumkin, ammo bu holat ularning o‘rganish jarayonining ajralmas qismi sifatida baholanadi. Xatoliklar ustida tahlil olib borish va xatolardan saboq olish o‘quvchilarning o‘z-o‘zini takomillashtirishga undaydi va kreativ fikrlashni rivojlantiradi. Muammoli ta’lim texnologiyalari bo‘lajak o‘qituvchilarda global fikrlashni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Zamonaviy ta’limda pedagoglar nafaqat o‘z mamlakatining, balki butun dunyoning pedagogik tajribalarini o‘rganib, yangi yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishlari talab etiladi. Muammoli vaziyatlar yaratish va ularni yechish jarayonida xalqaro tajribalarni hisobga olish, yangi pedagogik innovatsiyalarni o‘zlashtirish zarurati tug‘iladi. Muammoli ta’lim texnologiyalari bo‘yicha ta’lim olgan bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z faoliyatlarida yangi pedagogik yondashuvlar yaratishda yetakchi bo‘lishlari mumkin. Ular nafaqat bilim beruvchi, balki innovator, tadqiqotchi va kreator sifatida o‘z ishlarini olib boradilar. Bu esa umuman ta’lim tizimining sifatini oshirishga va o‘quvchilarning bilim darajasini yuqori bosqichga ko‘tarishga imkon beradi. Ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlarni qo‘llash orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish zamonaviy pedagogik yondashuvlarning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Bu yondashuv nafaqat o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, balki ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va innovatsion qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantiradi. Shu bilan birga, bunday ta’lim jarayoni o‘qituvchining metodik mahoratini oshirishga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, muammoli ta’lim texnologiyalari bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirish uchun samarali vositadir. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi, murakkab pedagogik vaziyatlarni hal qilishda yangi g‘oyalarni yaratishga yordam beradi. Muammoli vaziyatlar yaratish, hamkorlikda ishlash, individual xususiyatlarga e’tibor berish va zamonaviy pedagogik vositalardan foydalanish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ salohiyati yuqori darajada rivojlanadi. Shuningdek, o‘qituvchilarning pedagogik mahorati va metodik tayyorgarligi ta’lim jarayonining sifatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, muammoli ta’lim texnologiyalari zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda asosiy vositalardan biri sifatida keng joriy etilishi lozim. Bu esa nafaqat ta’lim sifatining oshishiga, balki butun jamiyatning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qodirova, H. Y. (2020). Muammoli ta'lim texnologiyasining samaradorligi va pedagogik ahamiyati. Pedagogika va innovatsiya, 3(2), 15-22.

2. Sobirova, F. (2022). Transplantatsiya jarayonlarida malakali kadrlar tayyorlash va muammolar. Tibbiyot Ta’limi, 7(1), 40-48.

3. Islomova, M. (2021). Muammoli ta'lim texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish. Ta'lim va tarbiya, 4(3), 78-85.

4. Toshpulatov, D. (2023). Zamonaviy axborot texnologiyalarining muammoli ta’limda qo‘llanilishi. Oliy ta’lim va ilm-fan, 8(1), 60-67.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

5. Karimova, G. (2021). Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirishda muammoli ta’limning roli. Pedagogik izlanishlar, 5(4), 33-42.
6. Saidov, R. (2020). Muammoli ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etishning nazariy asoslari. Ta’lim fanlari, 6(2), 12-19.
7. Nurmatova, S. (2022). Oliy ta’limda muammoli ta’lim texnologiyalarining samaradorligi. Ilmiy maqolalar to‘plami, 11(3), 101-108.
8. Jalilova, N. (2023). Muammoli vaziyatlar orqali o‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish. Pedagogika va psixologiya, 9(2), 54-61.
9. Rahmatov, B. (2021). Muammoli ta’lim metodlarining amaliy qo‘llanilishi. Ta’lim jarayoni, 7(1), 43-50.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАТСИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Saidova Gulruh Halim qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutni doktoranti
Manzil: O‘zbekoston, Toshkent shahri
gulrukhhalimqizi2@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-2976-4674

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

10–11-SINF O‘QUVCHILARIDA INGLIZ TILIDA DIALOGIK NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING O‘RNI

Komilova Muxtsar Abdunabi qizi,
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada 10–11-sinf o‘quvchilarining ingliz tilida dialogik nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola doirasida dialogik nutq tushunchasi, uning xususiyatlari va o‘quvchilarda chet tilida erkin muloqot qilish kompetensiyasini rivojlantirish zarurati ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot jarayonida mahalliy va xorijiy pedagog olimlarning ishlariga tayangan holda, kommunikativ yondashuv prinsiplari hamda uni amaliyotga joriy etish usullari ko‘rib chiqildi. Natijalarda kommunikativ yondashuv yordamida yuqori sinf o‘quvchilarida dialogik nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari va afzalliklari ochib berilgan. Xulosa o‘rnida esa, chet tilini o‘qitishda muloqotga yo‘naltirilgan metodikaning o‘rni va uni yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

MAQSAD: 10–11-sinf o‘quvchilarida ingliz tilida dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ yondashuvni ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Maqolada nazariy va amaliy tadqiqot usullari qo‘llanildi. Avvalo, mavzu doirasida mavjud ilmiy manbalar, pedagogik tadqiqotlar va internet orqali erkin foydalanish mumkin bo‘lgan o‘xshash maqolalar tahlil qilindi. Xususan, chet tilini kommunikativ metodika asosida o‘qitish, dialogik nutqni rivojlantirishga doir mahalliy va xorijiy adabiyotlar o‘rganilib, ularning xulosalari solishtirildi va umumlashtirildi. Shu bilan birga, amaliyotchi ingliz tili o‘qituvchilarining tajribasi va tavsiyalarini o‘rganish usuli qo‘llanilib, kommunikativ yondashuv elementlarini yuqori sinf darslarida qo‘llash imkoniyatlari kuzatildi.

XULOSA: Xulosa qilib aytganda, 10–11-sinf o‘quvchilarida ingliz tilida dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ yondashuv hal qiluvchi o‘rin tutadi. O‘tkazilgan tahlil va muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy ta’limdagi kamchiliklarni to‘ldirish, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini real muloqotga yaqinlashtirish va ularning chet tilida erkin so‘zlashuvchanligini oshirishda mazkur yondashuv eng samarali usullardan biridir. Kommunikativ yondashuv o‘quvchiga “til – bu muloqot vositasi” degan tamoyilni singdiradi va darslarni jonli muloqotga aylantiradi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ yondashuv, dialogik nutq, muloqot kompetensiyasi, chet tilini o‘qitish, interfaol usullar, dialogik mashqlar.

РОЛЬ КОММУНИКАТИВНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ У УЧАЩИХСЯ 10–11-Х КЛАССОВ

Комилова Мухтасар Абдунабиевна
Докторант базовой докторантуры Национального педагогического университета Узбекистана

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье анализируется значение коммуникативного подхода в формировании навыков диалогической речи на английском языке у учащихся 10–11 классов. В статье научно-теоретически рассматривается понятие диалогической речи, ее особенности и необходимость развития у учащихся компетенции свободного общения на иностранном языке. В ходе исследования были рассмотрены принципы коммуникативного подхода и методы его реализации на практике, основанные на работах отечественных и зарубежных ученых-педагогов. Результаты выявили эффективные методы и преимущества развития навыков диалогической речи у старшеклассников с использованием коммуникативного подхода. В заключении рассматривается роль диалогово-ориентированной методики в обучении иностранному языку и даются рекомендации по ее дальнейшему совершенствованию.

ЦЕЛЬ: Научный анализ коммуникативного подхода в развитии навыков диалогической речи на английском языке у учащихся 10–11 классов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В статье использовались теоретические и практические методы исследования. В рамках темы, прежде всего, были проанализированы существующие научные источники, педагогические исследования и аналогичные статьи, находящиеся в свободном доступе в Интернете. В частности, была изучена отечественная и зарубежная литература по обучению иностранному языку на основе коммуникативных методов и развитию диалогической речи, проведено сравнение и обобщение полученных результатов. При этом использовался метод изучения опыта и рекомендаций практикующих преподавателей английского языка, а также рассмотрены возможности использования элементов коммуникативного подхода в системе высшего образования.

ВЫВОД: В заключение следует отметить, что коммуникативный подход играет решающую роль в развитии диалогической речи на английском языке у учащихся 10–11 классов. Проведенный анализ и обсуждение показывают, что данный подход является одним из наиболее эффективных методов восполнения пробелов в традиционном образовании, приближения устной речи учащихся к реальному общению и повышения уровня владения иностранным языком. Коммуникативный подход формирует у учащихся понимание принципа «язык – средство общения» и превращает уроки в живой диалог.

Ключевые слова: коммуникативный подход, диалогическая речь, коммуникативная компетентность, обучение иностранным языкам, интерактивные методы, диалогические упражнения.

THE ROLE OF THE COMMUNICATIVE APPROACH IN DEVELOPING DIALOGIC SPEECH IN ENGLISH AMONG 10TH–11TH GRADE STUDENTS

Komilova Muxtsar Abdunabi qizi,
PhD Student at the National Pedagogical University of Uzbekistan
E-mail: mukttasarjumanova07@gmail.com

Annatation.

INTRODUCTION: This article analyzes the importance of the communicative approach in the formation of dialogical speech skills in English among students in grades 10–11. The article scientifically and theoretically covers the concept of dialogical speech, its features, and the need to develop students' competence in free communication in a foreign language. In the course of the research, the principles of the communicative approach and methods for its implementation in practice were considered, based on the work of local and foreign pedagogical scientists. The results

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

revealed effective methods and advantages of developing dialogical speech skills in senior students using the communicative approach. In the conclusion, the role of dialogue-oriented methodology in teaching a foreign language and recommendations for its further improvement are given.

THE GOAL: Scientific analysis of the communicative approach in the development of dialogical speech in English among students in grades 10–11

MATERIALS AND METHODS: The article used theoretical and practical research methods. First of all, within the framework of the topic, existing scientific sources, pedagogical studies and similar articles freely available on the Internet were analyzed. In particular, local and foreign literature on teaching a foreign language based on communicative methods and the development of dialogical speech was studied, their conclusions were compared and summarized. At the same time, the method of studying the experience and recommendations of practicing English teachers was used, and the possibilities of using elements of the communicative approach in higher education were observed.

CONCLUSION: In conclusion, the communicative approach plays a decisive role in the development of dialogical speech in English among students in grades 10–11. The analysis and discussions conducted show that this approach is one of the most effective methods for filling the gaps in traditional education, bringing students' oral speech closer to real communication, and increasing their fluency in a foreign language. The communicative approach instills in the student the principle that "language is a means of communication" and turns lessons into a lively dialogue.

Keywords: communicative approach, dialogic speech, communicative competence, foreign language teaching, interactive methods, dialogic exercises.

Bugungi globallashuv davrida maktab o‘quvchilarini chet tilida erkin so‘zlashishga o‘rgatish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biriga aylandi. Xususan, yuqori sinf (10–11) o‘quvchilari ingliz tilida nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri gapira olish, balki erkin muloqot olib borish, dialoglarda faol ishtirok etish ko‘nikmalarini ham egallashlari lozim. O‘zbekiston ta’lim standart hujjatlarida ham chet tilini o‘rganuvchi bitiruvchilar xorijiy adabiyotlarni lug‘atsiz o‘qib tushunish, shuningdek, savol berish, javob qaytarish hamda erkin suhbat (dialog) olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi talab etiladi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar ko‘pincha grammatik qoidalar va yodlangan monologik nutq namunalari bo‘yicha yaxshi tayyorlangan bo‘lsa-da, haqiqiy muloqot jarayonida qiynaladi – jonli suhbatni davom ettirish, savollarga tezkor javob berish malakasi sust rivojlangan bo‘ladi.

Chet tilini o‘qitish metodikasida so‘nggi yillarda kommunikativ yondashuv (Communicative Language Teaching, CLT) alohida e’tibor qozonmoqda. Kommunikativ yondashuv, nomidan ko‘rinib turibdiki, tilni aloqa vositasi sifatida o‘rgatishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilarni o‘rganayotgan tilida real vaziyatlarda muloqot qilishga o‘rgatish asosiy maqsad sanaladi. Ushbu yondashuv kommunikativ kompetensiya – ya’ni chet tilida samarali va adekvat muloqot qila bilish qobiliyatini shakllantirishni – til o‘qitishning bosh maqsadi qilib oladi. 1970-yillardan boshlab rivojlangan kommunikativ yondashuv nazariyasi Dell Hymes tomonidan ilgari surilgan “kommunikativ kompetensiya” tushunchasiga tayanadi. Keyinchalik J. Richards va T. Rogers kabi olimlar bu yondashuvni metodik asoslab berdilar. Masalan, metodist J. Harmer ta’kidlashicha, kommunikativ til o‘qitish – bu faqat til materialini nimani o‘rgatish masalasigagina emas, balki qanday o‘rgatish uslubiga ham alohida e’tibor qaratiladigan tamoyillar to‘plamidir.

Biroq, an’anaviy ta’limda aksar hollarda diqqat grammatik bilimlarga va o‘qish-yozuvga qaratilib, og‘zaki nutq, ayniqsa dialogik nutqni rivojlantirish usullari sust rivojlangan edi. Ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning e’tiroficha (V. L. Skalkin, S. F. Shatilov, N. D. Galskova, N. I. Gez) chet tilida dialog shaklida gapirishga o‘rgatish masalasi yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

da, hanuz dolzarbligini yo‘qotmagan. Xususan, zamonaviy talablar nuqtai nazaridan o‘quvchilarga ingliz tilida erkin dialog olib borishni o‘rgatish metodikasini yanada takomillashtirish zarurati mavjud. Shu bois pedagoglar o‘quvchilarda muloqotiy malakalarni shakllantirishning samarali yo‘llarini izlashda davom etmoqdalar.

Dialogik nutq tushunchasi va uning monologik nutqdan farqli xususiyatlarini aniqlab olish ushbu muammoni anglashda muhim ahamiyatga ega. Dialogik nutq – bu ikki yoki undan ortiq ishtirokchi tomonidan yaratiladigan nutqiy birlik bo‘lib, bunda har bir ishtirokchi bir vaqtning o‘zida tinglovchi ham, gapiruvchi ham bo‘lib rol o‘ynaydi. Tabiiy muloqot jarayonida dialog ma’lum kommunikativ vaziyatda yuzaga keladi va uning davomiyligini oldindan to‘liq rejalashtirib bo‘lmaydi. Suhbatdoshlardan biri bergan birinchi luqma (replika)ga ikkinchisining qanday javob berishi noma’lum bo‘lgani uchun, dialogni oldindan yodlash yoki qat’iy ssenariyga solish samarasizdir. Demak, dialogik nutqni o‘rgatish deganda, tayyor dialog matnlarini yod oldirish emas, balki o‘quvchilarga turli vaziyatlarda erkin muloqotni davom ettirish ko‘nikmasini shakllantirish tushuniladi.

Yuqoridagi jihatlar, ya’ni chet tilida erkin dialogik nutq olib borishga o‘rgatish muammosi va uni hal etish yo‘llarini izlash, ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Maqolaning maqsadi – 10–11-sinflarda ingliz tili darslarida dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ yondashuvning o‘rnini aniqlash va samaradorligini ilmiy-nazariy asoslash

Maqolada nazariy va amaliy tadqiqot usullari qo‘llanildi. Avvalo, mavzu doirasida mavjud ilmiy manbalar, pedagogik tadqiqotlar va internet orqali erkin foydalanish mumkin bo‘lgan o‘xshash maqolalar tahlil qilindi. Xususan, chet tilini kommunikativ metodika asosida o‘qitish, dialogik nutqni rivojlantirishga doir mahalliy va xorijiy adabiyotlar o‘rganilib, ularning xulosalari solishtirildi va umumlashtirildi. Shu bilan birga, amaliyotchi ingliz tili o‘qituvchilarining tajribasi va tavsiyalarini o‘rganish usuli qo‘llanilib, kommunikativ yondashuv elementlarini yuqori sinf darslarida qo‘llash imkoniyatlari kuzatildi.

Tadqiqot asosan sifat (qualitative) tahlil xarakteriga ega bo‘lib, unda aniq eksperimental ma’lumotlar keltirishdan ko‘ra, mavjud ilmiy-nazariy ma’lumotlarni tahlil qilish va ulardan kelib chiqqan holda xulosalar chiqarish ustunlik qiladi. Literatura tahlili usuli yordamida dialogik nutqni o‘rgatish bo‘yicha turli metodlar va yondashuvlar ko‘rib chiqildi, taqqoslash usuli bilan an’anaviy va kommunikativ yondashuvlar qiyoslandi. Shuningdek, ayrim dars kuzatuvlari va pedagoglar bilan suhbatlar orqali kommunikativ yondashuvning amaliy samarasiga doir sifat kuzatuvlari olib borildi (natijalar quyida yoritiladi).

Tahlil uchun quyidagi manbalarga tayandik: Zulfiqorova (2024) tomonidan texnik oliygohlar talabalari misolida dialogik nutq o‘rgatish usullari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari. Rustamova (2024) tomonidan kommunikativ yondashuvning ingliz tili o‘qitishdagi samarasi yuzasidan olib borilgan ishlar; Asilova (2023) tomonidan yozilgan o‘quv qo‘llanmada keltirilgan nazariy asoslar va boshqa qator manbalar. Ushbu manbalardagi aniq fakt va dalillar bizning tahlilimizga asos bo‘lib xizmat qildi. Maqola davomida har bir muhim fikr manba orqali tasdiqlanib boriladi.

Kommunikativ yondashuvni 10–11-sinf ingliz tili darslarida tatbiq etish bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar bir qator ijobiy natijalarni ko‘rsatdi. Avvalo, ushbu yondashuv o‘quvchilarning darsda faollik darajasini oshiradi. An’anaviy grammatik-qoidalarga asoslangan darslarda ko‘pincha o‘qituvchi markazda bo‘lib, o‘quvchilar tinglovchi rolida qoladi. Kommunikativ darslarda esa, aksincha, o‘quvchilar ko‘proq so‘zlashadi, bir-biri bilan muloqotda bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, darsda o‘quvchilarning so‘zlashuvchanligi ularning muloqotga kirishish chastotasi va davomiyligi bilan o‘lchanadi – qancha ko‘p va uzoq gapirishsa, darsdagi ishtiroki shuncha samarali bo‘ladi. Bizning kuzatuvlarimizga ko‘ra, kommunikativ metodlarni qo‘llagan darslarda har bir o‘quvchiga to‘g‘ri keladigan so‘zlashuv vaqti an’anaviy

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

darsdagiga nisbatan ortdi, o‘quvchilarning darsga qiziqishi va e’tiborini saqlab qolish muddati uzaygani sezildi (bu holat Rustamova (2024) tomonidan ham qayd etilgan).

Ikkinchidan, kommunikativ yondashuv dialogik nutq ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga yordam beradi. Olingan natijalarga ko‘ra, o‘quvchilarga avval dialog olib borishning soddaroq shakllari, keyin esa murakkabroq muloqot vaziyatlari taklif qilinganida, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortib, erkin gapirish qobiliyati rivojlanadi. Masalan, darslarda dastlab oddiy xabar almashish va savol-javob ko‘rinishidagi mashqlar qo‘llanildi, keyinchalik birgalikda qaror qabul qilish yoki harakatni rejalashtirish, fikr va taassurotlar almashish kabi muloqot vaziyatlariga o‘tildi. O‘quvchilar bunday ketma-ketlikda dialogik ko‘nikmalarni mustahkamlab bordilar: masalan, avvaliga faqat sodda savollarga javob berishga o‘rgangan bo‘lsa, keyinroq o‘zlari ham savol berish, suhbatni davom ettirish, hatto yangi mavzuga yo‘naltirish kabi qobiliyatlarni namoyon qila boshladilar.

Uchinchidan, kommunikativ yondashuv yordamida darslarda real vaziyatga yaqin muloqot muhitini yaratish imkoni tug‘ildi. O‘quvchilar ingliz tilidan foydalanib o‘yinlar, rolli o‘yinlar, munozaralar kabi faoliyatlarga jalb qilindi. Xususan, rol o‘ynash (role-play) texnikasi ayniqsa samarali natija berdi. Bu usul haqida metodist olimlar (Harmer, Brown va boshqalar) shuni ta’kidlaydilarki, rol o‘yinlarida o‘quvchilar haqiqiy hayotdagi ijtimoiy rollarni bajarib ko‘rishadi va turli muloqot kontekstlarida mashq qilishadi. Bizning amaliyotimizda ham 11-sinf o‘quvchilari bilan “Restoranda mijoz-ofitsiant”, “Kasalxonada shifokor-bemor”, “Chet elga sayohat” kabi vaziyatli dialoglar o‘ynab ko‘rildi. Natijada, o‘quvchilar oldindan tayyorlangan dialog matnlariga tayanib qolmasdan, vaziyat talabiga ko‘ra o‘zlari erkin so‘zlashga intilishdi. Rol o‘yinlari vaqtida o‘quvchilarning yuz ifodalari, imo-ishoralari ham ishga tushib, nutqlari jonlandi – bu esa dialogik nutqning muhim qismi hisoblanadi. Kuzatuvlarga ko‘ra, bunday mashqlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirgan, darsni qiziqarli va interfaol kechishiga zamin yaratgan.

To‘rtinchidan, kommuniktiv yondashuv o‘quvchilarda psixologik to‘siqlarni yengishga yordam beradi. Ma’lumki, chet tilida gapirishda ko‘plab o‘quvchilar xato qilib qo‘yishdan qo‘rqadi, natijada lom-mim demay, sukut saqlashni afzal ko‘rishadi. Bizning tajribada, darslarda maxsus ruhiy rag‘batlantirish usullarini qo‘llash samara berdi: o‘quvchilarga xato qilish tabiiy hodisa ekani, hatto ona tilida so‘zlashganda ham xatolar bo‘lishi mumkinligi uqtirildi, muhim maqsad fikrni ravon yetkazish ekani tushuntirildi. Bu yondashuv o‘quvchilarga o‘z xatolarini odatiy o‘quv jarayoni qismi sifatida qabul qilishga yordam beradi. Asilova (2023) keltirganidek, ta’lim jarayonida xato qilish normal holat ekani anglash o‘quvchilardagi hayajonni bartaraf etadi va ularning erkin gapirishiga yo‘l ochadi. Darhaqiqat, “xatoli bo‘lsa-da, gapiraman” degan tamoyilni singdirish muhim – chunki o‘quvchi umuman gapirmasa, hech qachon rivojlana olmaydi. Shuning uchun biz darslarda grammatik xatolarni darhol to‘g‘rilashga emas, balki avvalo o‘quvchining fikrini erkin ifoda etishiga e’tibor qaratdik. Bu CLT prinsipi bilan hamohang: kommunikativ darslarda to‘g‘ri muloqot vazifasiga erishish grammatik aniqlikdan muhimroq ekani, xatolarni keyinroq ham tuzatish mumkinligi e’tirof etiladi. Natijada, o‘quvchilarning ishonchi ortib, ular kichik xatolardan cho‘chimay, fikrini ingliz tilida ifodalashga intiladigan bo‘ldi.

Yuqoridagi kuzatuv va tahlillar 10–11-sinf o‘quvchilari uchun ingliz tili darslarida kommunikativ yondashuvni joriy etish dialogik nutqni rivojlantirishga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. O‘quvchilarning muloqotga kirishish faolligi oshishi, real hayotga yaqin vaziyatlarda mashq qilishi, nutqiy xatolardan qo‘rqmasdan fikr bildirishga odatlanishi – bularning barchasi kommunikativ metodning natijasi sifatida qayd etildi. Kelgusida ushbu yondashuvni tizimli qo‘llash orqali yuqori sinf o‘quvchilari bitiruv vaqtiga kelib B1–B2 darajadagi (CEFR mezonlari bo‘yicha) kommunikativ kompetensiyaga erishishlari kutiladi, ya’ni tanish mavzularda

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

erkin muloqot qilish, fikrini izchil bayon etish hamda munozaralarda qatnashish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Yuqoridagi natijalar muhokamasi shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilini o‘rganishda dialogik nutqni rivojlantirish uchun kommunikativ yondashuv muhim o‘rin tutadi. An’anaviy yondashuv va kommunikativ uslub o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilar ekanmiz, har ikki yondashuvning uyg‘unlashuvi lozim degan xulosaga kelish mumkin. Masalan, kommunikativ yondashuvning “kuchli” va “zaif” talqini mavjudligi haqida ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi. Zaif kommunikativ yondashuvda o‘qituvchilar dars jarayoniga muloqotga doir mashqlarni kiritadilar, biroq grammatikani o‘rgatishni ham davom ettiradilar – aslida, bu uslub hozirgi paytda ko‘pchilik maktablarda qo‘llanilayotgan yondashuvdir. Kuchli kommunikativ yondashuv esa, til bevosita muloqot jarayonida o‘zlashtiriladi degan g‘oyani ilgari suradi, ya’ni o‘quvchilar til strukturasi ustida alohida ishlamaydi, balki barcha bilimni jonli muloqot davomida egallaydi. Albatta, maktab sharoitida to‘liq “kuchli” CLTga o‘tish qiyin bo‘lishi mumkin – zero, o‘quvchilarda yozma savodxonlik va grammatik bilimlarni ham shakllantirish zarur. Shuning uchun, munozaramizcha, eng ma’qul yo‘l integratsiyalashgan yondashuvdir: bunda grammatik kompetensiya va kommunikativ kompetensiya bir-birini to‘ldiradi. O‘qituvchi grammatik materialni ham o‘rgatadi, lekin buni albatta kommunikativ vazifalar fonida amalga oshiradi. Misol uchun, o‘quvchilar ma’lum bir grammatik mavzuni o‘rgangan bo‘lsa, darhol uni muloqotda qo‘llashga yo‘naltirilgan topshiriq beriladi – juftliklarda dialog tuzish, guruhda munozara qilish, axborot almashish va hokazo. Bu usul “formadan mazmun sari” tamoyiliga mos keladi: dastlab o‘rgangan til vositasini mazmunli muloqot orqali mustahkamlash.

Mavzuni nazariy jihatdan muhokama qilar ekanmiz, yana bir muhim masalani ta’kidlash lozim: dialogik nutqni o‘rgatish metodikasini puxta ishlab chiqish zarurati. Zulfiqorova (2024) o‘z maqolasida aynan shu jihatga e’tibor qaratib, oliy ta’lim muassasalari misolida dialogik nutq uchun maxsus mashqlar tizimi yetishmasligini aytib o‘tadi. Maktab darsliklarida ham dialogik nutq ko‘nikmalarini shakllantirishga doir topshiriqlar bazasi uncha boy emasligi kuzatiladi. Bu esa o‘qituvchilardan ijodkorlikni talab etadi: ular o‘quvchilarning yoshiga, qiziqish doirasiga mos mavzularni tanlab, maxsus kommunikativ mashqlar ishlab chiqishiga to‘g‘ri keladi. Mazkur tadqiqot doirasida biz yuqori sinflar uchun bir qator dialogik mashqlar namunasini taklif qilamiz: masalan, “Axborot izlash” mashqi – bunda har bir o‘quvchiga bir-biridan farqli ma’lumot beriladi va ular juftlikda savol-javob orqali to‘liq axborot yig‘ishlari kerak; “Munozarali savol” mashqi – guruhlarga bahsli mavzu berilib, har bir guruhda qarama-qarshi fikr bildiriladi va so‘ngra umumiy muhokamada yakuniy xulosaga kelinadi; “Vaziyatli rolli o‘yin” – o‘quvchilarga real hayotdan olingan voqea-holat ssenariysi berilib (masalan, do‘konda xaridor va sotuvchi, aeroportda registratsiya jarayoni), ular shu rollarga kirib dialog quradilar. Bunday mashqlar bevosita muloqotga chorlaydi va o‘quvchilarning suhbatdoshga moslashish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Metodik adabiyotlarda ta’kidlanishicha, dialogik nutqda eng muhimi – vaziyatga mos ravishda javob berish, suhbatdosh reaksiyasini inobatga olib harakat qilishdir. Shunday ekan, mashqlar ham o‘quvchini oldindan yodlangan javobga emas, balki erkin fikrlash va improvizatsiya qilishga undashi darkor.

Kommunikativ yondashuvni qo‘llash jarayonida ayrim qiyinchiliklar ham kuzatilishi mumkin. Jumladan, sinfdagi o‘quvchilar soni katta bo‘lsa, hammani birdek muloqotga jalb etish oson emas. Bu holatda guruhlarda ishlash texnikasini qo‘llash maqsadga muvofiq – masalan, 30 o‘quvchini 5-6 kishilik kichik guruhlarga bo‘lib, har biriga alohida topshiriq beriladi, so‘ngra har bir guruh vakili o‘z guruhida muhokama qilingan fikrlarni hammaga bayon qiladi. Yana bir qiyinchilik – boshlang‘ich pallada o‘quvchilar ona tiliga o‘tib ketishga moyilligi. Darhaqiqat, murakkab fikrni ingliz tilida ifodalay olmagan o‘quvchi suhbatni o‘zbekcha davom ettirishga urinishi mumkin. O‘qituvchi bu vaziyatda muloyimlik bilan suhbatni yana ingliz tiliga qaytarishi,

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

kerak bo‘lsa, ayrim kerak so‘z va iboralarni o‘quvchilarga eslatishi mumkin. Muhimi, o‘quvchilarda “inglizcha gapirish qiyin, oson yo‘li – o‘zbekchada aytaveraman” degan kayfiyatni yo‘q qilish lozim. Buning yechimi – ularga cheklangan vaqt ichida fikrini faqat ingliz tilida ifodalash vazifasini berish (masalan, “2 daqiqa faqat inglizcha gaplashib ko‘ring”) yoki qiziqarli o‘yinlar orqali majburan inglizcha gapirtirish (masalan, “Ingizcha faqat inglizcha” o‘yini – kim o‘zbekcha so‘z qo‘llasa, o‘yindan chiqadi va hokazo). Shuningdek, kommunikativ faollikni oshirish uchun rag‘batlantiruvchi muhit yaratish zarur: har bir to‘g‘ri yoki muvaffaqiyatli muloqot uchun o‘qituvchi ijobiy baho, olqish bildirishi, xato bo‘lsa ham urinib gapirgan o‘quvchini dalda bilan qo‘llab-quvvatlashi kerak. Shundagina o‘quvchilarda real muloqotga intilish paydo bo‘ladi va ular o‘z bilimini qo‘llashdan zavqlana boshlaydilar.

Yuqori sinflarda ingliz tilini kommunikativ usulda o‘qitishning yana bir ahamiyatli tarafi shundaki, bu yondashuv o‘quvchilarning kelgusidagi mustaqil o‘rganish va hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. 10–11-sinf o‘quvchilari yaqin orada maktabni tamomlab, oliy ta’lim yoki kasbiy faoliyatga qadam qo‘yadilar. Ular uchun chet tilida muloqot qila bilish – raqobatbardosh kadr bo‘lishning muhim sharti. Kommunikativ darslar jarayonida o‘quvchilar mustaqil fikrlash, notiqlik, bahs-munozara yuritish, jamoada ishlash kabi ko‘nikmalarni ham egallaydilar. Masalan, munozara metodida biror muammo yuzasidan o‘z fikrini himoya qilish, boshqalarning fikrini tinglash va hurmat qilish, dalillar keltirish qobiliyatlari shakllanadi. Bu faqat til o‘rganish emas, balki shaxsiy sifatlarning ham rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bois, kommunikativ yondashuv nafaqat til ko‘nikmalarini, balki 21-asr ko‘nikmalari deb ataluvchi tanqidiy fikrlash, muloqotchilik, hamkorlik kabi qobiliyatlarni ham rivojlantiradi, deyish mumkin.

Yuqoridagi mulohazalarni jamlar ekanmiz, 10–11-sinflarda ingliz tili darslarida kommunikativ yondashuvni qo‘llashning nazariy va amaliy jihatdan to‘liq oqlanishini ko‘ramiz. Albatta, har qanday metod kabi, bu yondashuv ham doimiy takomillashtirib borishni, o‘qituvchilarning doimiy ijodiy yondashuvini talab etadi. Muhimi, uning zamirida yotgan asosiy g‘oya – til bu aloqa vositasi ekani va uni o‘rganishdagi eng to‘g‘ri yo‘l shu vositani amalda qo‘llab ko‘rish ekani – hech qachon ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Xulosa qilib aytganda, 10–11-sinf o‘quvchilarida ingliz tilida dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ yondashuv hal qiluvchi o‘rin tutadi. O‘tkazilgan tahlil va muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy ta’limdagi kamchiliklarni to‘ldirish, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini real muloqotga yaqinlashtirish va ularning chet tilida erkin so‘zlashuvchanligini oshirishda mazkur yondashuv eng samarali usullardan biridir. Kommunikativ yondashuv o‘quvchiga “til – bu muloqot vositasi” degan tamoyilni singdiradi va darslarni jonli muloqotga aylantiradi.

Maqolada keltirilgan faktlar va manbalarga tayangan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

✓ Dialogik nutq – o‘rgatilishi lozim bo‘lgan alohida ko‘nikma. O‘quvchilarni faqat matn yodlatib yoki monologik chiqishlargagina o‘rgatish yetarli emas. Ular turli vaziyat va mavzularda suhbat qurish, savol berish va savollarga javob qaytarish, fikr almashish, bahslashish kabi muloqot elementlarini o‘zlashtirishi zarur. Buning uchun maxsus mashqlar va muloqot vaziyatlarini yaratish metodikasini ishlab chiqish kerak.

✓ Kommunikativ yondashuv dialogik nutqni rivojlantirishning metodik asosidir. Ushbu yondashuv prinsiplari – o‘quvchilarni interfaol faoliyatga jalb etish, darsda haqiqiy kommunikativ vaziyatlarni model qilish, o‘quvchilarning shaxsiy tajribasiga tayanish, dars mazmunini hayotiy vazifalar bilan bog‘lash kabi xususiyatlar – dialogik nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda nihoyatda muhimdir. Ma’lum bo‘lishicha, kommunikativ darslarda o‘quvchilar tilni qo‘llash jarayonida o‘zlari bilmagan holda ko‘plab yangi til birliklarini o‘zlashtiradilar, muloqot davomida tilni “his qiladilar”. Bu esa ularning chet tilida fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

✓ O‘quvchilarning muloqotga kirishish psixologiyasini hisobga olish zarur. Yuqori sinf o‘quvchilari o‘smirlik yoshida bo‘lib, ular jamoadagi obro‘si haqida qayg‘uradi, xato qilib qo‘yishdan uyalishi mumkin. Kommunikativ yondashuvning yutug‘i shundaki, u darsda do‘stona va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratadi – o‘quvchilarning fikri hurmat qilinadi, har birining muloqotda ishtirokiga imkon beriladi. Bunday muhitda hatto tortinchoqroq o‘quvchilar ham asta-sekin o‘z fikrini aytishga o‘rganadi. Tadqiqotda qayd etilganidek, o‘quvchilarga xatolari ustida kulmaslik, aksincha, ularni to‘g‘ri yo‘lga solish kerakligi, eng muhimi ular gapirishda davom etishi lozimligi uqtirilsa, natija yanada yaxshi bo‘ladi.

✓ Metodik integratsiya va davomiylik muhim. Kommunikativ yondashuvni qo‘llashda boshqa foydali usullarni ham inkor etmaslik lozim. Masalan, yuqorida ta’kidlanganidek, grammatik kompetensiyani oshirish kommunikativ ko‘nikmaga zamin bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun, eng yaxshi natija beruvchi variant – kommunikativ va an’anaviy yondashuvning uyg‘unlashuvi. O‘quv jarayonini shunday tashkil etish kerakki, har bir grammatik mavzu kommunikativ mashq bilan mustahkamlansin, har bir o‘tilgan mavzu bo‘yicha o‘quvchilar suhbatlashib ko‘rishsin. Shuningdek, boshlang‘ich sinflardan boshlab bosqichma-bosqich kommunikativ yondashuv elementlarini kiritib borish kerak, toki yuqori sinflarga kelib o‘quvchilar bunday dars uslubiga moslashgan bo‘lsin. Davomiylik ta’minlansa, natijada 11-sinf bitiruvchilari ingliz tilida bemalol muloqot qila oladigan darajaga yetadilar.

Xulosa o‘rnida yana shuni ta’kidlash joizki, zamonaviy dunyoda chet tillarini bilish qanchalik zarur bo‘lsa, ularni muloqot qilish orqali o‘rganish shunchalik samarali usul ekani isbotlanmoqda. Ingliz tili fanini o‘qitishda kommunikativ yondashuvdan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning dialogik nutqini, balki umumiy lingvistik kompetensiyasini, madaniy va ijtimoiy bilim doirasini ham boyitadi. O‘quvchilar maktab davridayoq chet tilida muloqot qilish tajribasini orttirsa, kelgusida xalqaro maydonda, turli ilmiy va kasbiy sohalarda bemalol o‘z fikrini ifoda eta oladigan etuk kadrlar yetishib chiqadi. Shunday ekan, kommunikativ yondashuvni metodik jihatdan takomillashtirish, o‘qituvchilarning bu boradagi malakasini oshirish va tegishli adabiyotlar hamda darsliklarda ushbu yondashuvga ko‘proq o‘rin berish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Zulfiqorova Z. A. (2024). The Role of Dialogic Speech in Teaching a Foreign Language in Technical Universities. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education, 2(2), 339-345.
2. Rustamova Sh. Sh. (2024). The Impact of Communicative Approach on Developing Students’ Speaking Skills. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education, 2(10), 173-176.
3. Asilova G. A. (2023). O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Lesson Press” nashriyoti.
4. Sapaeva B. Sh. (2024). Levels of Development of Students’ Communicative Competence when Studying English Language. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education, 2(5), 126-129.
5. Rustamova Sh. (2024). “Communicative approach in language teaching”.
6. Harmer J. (2007). The Practice of English Language Teaching. 4th edition. Harlow: Pearson Education.
7. Brown H. D. (2001). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. 2nd edition. White Plains, NY: Longman.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

8. Nunan D. (1991). Language Teaching Methodology: A Textbook for Teachers. New York: Prentice Hall.
9. Vygotsky L. S. (1986). Thought and Language. Cambridge, MA: MIT Press.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Komilova Muxtsar Abdunabi qizi,
O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tayanch doktoranti
Manzil: O'zbekiston, 200100, Toshkent shahri
mukttasarjumanova07@gmail.com

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

TURLI YOSH DAVRLARIDA INGLIZ TILINI O‘QITISH

Davlatova Muhayyo Hasanovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ramazonova Nafisa Ixtiyor qizi
Buxoro viloyat Romitan tuman 7-maktab ingliz tili o‘qituvchisi

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada til o‘qitishning turli davr ya’ni yosh bosqichlaridagi farqi, qiyinchiliklar, afzalliklar va metodikalar haqida so‘z boradi.

"Ingliz tilini bolalarga o‘rgatish jarayonida yosh guruhlarining psixologik va kognitiv rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish muhim. Kichik yoshdagi bolalar uchun o‘yinlar, qo‘shiqlar, rasm va interaktiv materiallar asosida til o‘rgatish samarali bo‘ladi, chunki ular ko‘proq vizual va eshitish orqali yangi ma’lumotlarni qabul qilishadi. O‘rta yoshdagilar bilan ishlashda oddiy grammatika, so‘z boyligini kengaytirish va qisqa dialoglarni o‘rgatish zarur. Bu yoshdagilar interaktiv mashg‘ulotlar, ro‘yxatlar va qisqa hikoyalar orqali tilni tez o‘rganadilar. Kattaroq bolalar esa muloqotga yo‘naltirilgan metodlarga, so‘z boyligini boyitish va to‘g‘ri talaffuzni o‘rgatishga ko‘proq e’tibor qaratishadi. Film, kitoblar va boshqa vizual materiallar yordamida ularga tilni boyitish va fikrlarini ifodalashda yordam berish mumkin. Shu tariqa, har bir yosh guruhiga moslashgan metodlar orqali bolalarga ingliz tilini samarali va qiziqarli tarzda o‘rgatish mumkin, bu esa ularning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi."[11]

MAQSAD: Turli yosh davrlarida ingliz tili o‘qitishning pedagogic xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Ma’lumki, yildan yilga til o‘rganuvchilarning yoshi yosharib bordi. Ilgari ingliz tili 5-sinfdan boshlab o‘rgatilgan bo‘lsa, endilikda ingliz tili bog‘cha davridan va keyinchalik maktabning 1-sinfidanoq o‘rgatiladigan bo‘ldi. Bu albatta, o‘quvchiga til ko‘nikmalarini ertaroq va tezroq o‘zlashtirish imkonini bera boshladi. Buning isboti o‘laroq kunora ijtimoiy tarmoqlarda O‘zbekistonning turli burchaklaridagi turli yoshlar til sertifikatlarini qo‘lga kiritayotganlari yoki IELTS imtixonlaridan eng yuqori ballarni qo‘lga kiritayotganlari bu quvonarli holat.

XULOSA: Xulosa ornida shuni aytishimiz mumkinki, turli yosh davrlarida til o‘rgatish bir biridan farqlanadi. Turli yoshdagi o‘rganuvchilar uchun turli xil didaktik va ilmiy materiallardan foydalanish samarali natijalar beradi. Dars jarauonida turli interaktiv o‘yinlar tashkil qilish, dialoglar tuzdirish, role-play metodlaridan foydalanish jarayonlarida o‘rganuvchilarda grammatik qoidalarni to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyati shakllanadi. Bog‘cha va undan kichik yosh davrlarida bolalarda til o‘rganishga qiziqish yuqori bo‘lishiga qaramasdan, har qanday yoshda ham o‘rganuvchilar shunday motivatsiya bilan o‘qishlari mumkin va chet tilida mukammal so‘zlashuv qobiliyatini o‘zlarida namoyon etishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: til o‘rganish, tilni bilish, o‘yinga asoslangan metodlar, yosh davrlari, til bilish, online maqolalar.

ПРЕПОДАВАНИЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В РАЗНОМ ВОЗРАСТЕ

Давлатова Мухайё Хасановна
Доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Рамазонова Нафиса Ихтиёровна
Школа №7 Ромитанского района Бухарской области, учитель английского языка

[11] Boliqulova F. Sh. , "Turli yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish usullari". International conference on modern development of pedagogy and linguistics; Volume 01, Issue 10, 2024

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматриваются различия, сложности, преимущества и методики обучения языку в разных возрастных группах.

«При обучении английскому языку детей важно учитывать особенности психологического и когнитивного развития возрастных групп. Для детей младшего возраста эффективно обучение языку с помощью игр, песен, картинок и интерактивных материалов, поскольку они лучше воспринимают новую информацию визуально и на слух. Работая с детьми среднего возраста, необходимо обучать их простой грамматике, расширению словарного запаса и коротким диалогам. Эта возрастная группа быстро усваивает язык с помощью интерактивных упражнений, списков и коротких рассказов. Дети старшего возраста, напротив, больше внимания уделяют коммуникативно-ориентированным методам, обогащению словарного запаса и обучению правильному произношению. Фильмы, книги и другие наглядные материалы могут помочь им обогатить свой язык и выразить свои мысли. Таким образом, детей можно обучать английскому языку эффективно и интересно, используя методы, адаптированные к каждой возрастной группе, что повышает их интерес к изучению языка».

ЦЕЛЬ: Научно проанализировать педагогические особенности преподавания английского языка на разных возрастных уровнях.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Известно, что возраст изучающих язык молодеет из года в год. Если раньше английский язык преподавали с 5-го класса, то теперь его преподают с детского сада, а затем с 1-го класса школы. Это, безусловно, позволило ученикам быстрее и раньше овладевать языком. Радостным свидетельством этого является то, что молодые люди из разных уголков Узбекистана ежедневно получают языковые сертификаты или достигают наивысших баллов на экзаменах IELTS в социальных сетях.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: В заключение можно сказать, что преподавание языка на разных возрастных уровнях отличается. Использование различных дидактических и научных материалов для учащихся разного возраста даёт эффективные результаты. В ходе урока у учащихся формируется умение правильно применять грамматические правила в процессе организации различных интерактивных игр, создания диалогов и использования методов ролевых игр. Несмотря на то, что дети в детском саду и младшем возрасте проявляют высокий интерес к изучению языков, ученики любого возраста могут учиться с такой мотивацией и демонстрировать отличные навыки общения на иностранном языке.

Ключевые слова: изучение языка, знание языка, игровые методы, возрастные группы, знание языка, онлайн-статьи.

TEACHING ENGLISH AT DIFFERENT AGES

Davlatova Muhayyo Hasanovna
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Ramazonova Nafisa Ikhtiyor qizi
School No. 7, Romitan district, Bukhara region, English teacher

Annatation.

INTRODUCTION: This article discusses the differences, challenges, advantages, and methodologies of language teaching at different ages.

"When teaching English to children, it is important to take into account the psychological and cognitive development characteristics of age groups. For younger children, language teaching based on games, songs, pictures, and interactive materials is effective, as they perceive new information more visually and aurally. When working with middle-aged children, it is necessary

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

to teach simple grammar, vocabulary expansion, and short dialogues. This age group learns the language quickly through interactive activities, lists, and short stories. Older children, on the other hand, pay more attention to communication-oriented methods, enriching their vocabulary, and teaching correct pronunciation. Films, books, and other visual materials can help them enrich their language and express their thoughts. Thus, children can be taught English effectively and in an interesting way through methods adapted to each age group, which increases their interest in learning the language."

THE GOAL: To scientifically analyze the pedagogical features of teaching English at different age levels.

MATERIALS AND METHODS: It is known that the age of language learners is getting younger from year to year. If earlier English was taught from the 5th grade, now English is taught from kindergarten and later from the 1st grade of school. This, of course, allowed the student to master language skills earlier and faster. As evidence of this, it is a joyful situation that various young people from different parts of Uzbekistan are receiving language certificates or achieving the highest scores in IELTS exams every day on social networks.

CONCLUSION: In conclusion, we can say that language teaching at different age levels differs from each other. The use of different didactic and scientific materials for learners of different ages gives effective results. During the lesson, students develop the ability to correctly apply grammatical rules in the process of organizing various interactive games, creating dialogues, and using role-play methods. Despite the fact that children in kindergarten and younger years have a high interest in learning languages, students of any age can study with such motivation and demonstrate excellent communication skills in a foreign language.

Keywords: language learning, language knowledge, game-based methods, age groups, language knowledge, online articles.

В данной статье рассматриваются различия, трудности, преимущества и методики преподавания иностранного языка на разных возрастных этапах. В процессе обучения английскому языку важно учитывать психологические и когнитивные особенности развития возрастных групп. Для детей младшего возраста эффективным является обучение на основе игр, песен, рисунков и интерактивных материалов, так как они в большей степени воспринимают новую информацию через визуальное и слуховое восприятие. При работе с детьми среднего возраста необходимо обучать простой грамматике, расширять словарный запас и использовать короткие диалоги. В этом возрасте они быстро усваивают язык через интерактивные занятия, списки и короткие рассказы. Дети постарше в большей степени нуждаются в методах, ориентированных на общение, обогащение словарного запаса и постановку правильного произношения. С помощью фильмов, книг и других визуальных материалов можно расширять их знания и развивать умение выражать свои мысли. Таким образом, использование методов, адаптированных к каждой возрастной группе, позволяет эффективно и интересно обучать детей английскому языку, повышая их мотивацию к изучению.

Ключевые слова: изучение языка, владение языком, игровые методы, возрастные этапы, знание языка, онлайн-статьи.

Hammamizga ma’lumki, ta’lim mamalakatimizdagi barcha jabhalar singari yildan yilga rivojlanib bormoqda. Buning yaqqol natijasi o‘laroq Prezidentimiz tomonidan yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, jumladan, "Yosh kitobxon" tanlovi, "Vazir stipendiyasi", "Hokim stipendiyasi", "Eng yaxshi xorijiy til maktabi" kabilarni keltirish mumkin.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Ma’lumki, yildan yilga til o‘rganuvchilarning yoshi yosharib bordi. Ilgari ingliz tili 5-sinfdan boshlab o‘rgatilgan bo‘lsa, endilikda ingliz tili bog‘cha davridan va keyinchalik maktabning 1-sinfidanoq o‘rgatiladigan bo‘ldi. Bu albatta, o‘quvchiga til ko‘nikmalarini ertaroq va tezroq o‘zlashtirish imkonini bera boshladi. Buning isboti o‘laroq kunora ijtimoiy tarmoqlarda O‘zbekistonning turli burchaklaridagi turli yoshlar til sertifikatlarini qo‘lga kiritayotganlari yoki IELTS imtixonlaridan eng yuqori ballarni qo‘lga kiritayotganlari bu quvonarli holat. Zero, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, "Maktabdan kasb va tilni bilib chiqqan bola jamiyatimizning katta yutug‘i, bilmagani muammo"[12].

Ta’lim, tillarni o‘qitish haqida so‘z boradi ekan, ushbu jarayonni yosh chegaralariga qarab bir necha bosqichlari bo‘lish maqsadga muvofiqdir. Chunki turli yosh davrlarida insonning rivojlanish bosqichlari bir biridan farqli bo‘lishini inobatga olgan holda, bu yondashuv to‘g‘ridir. Til o‘rganuvchilarni 4 guruhga bo‘lish mumkin[13]:

Maktabgacha yosh o‘rganuvchilarni (3 – 5 yosh)
Boshlang‘ich sinf o‘rganuvchilari (6 – 12 yosh)
Yuqori sinf o‘rganuvchilari (13 – 17 yosh) va
Katta yoshli o‘rganuvchilar (18+ yosh).

MAKTABGACHA YOSHDAGI O‘RGANUVCHILAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarga yangi bilim o‘rganish uchun motivatsiya yo‘q, fikrlar tarqoq, bolalar bu yoshda judayam energetik, o‘yinqaroq. Bu davrda bolalar bilan sinfni tinch tutib turish, ularni e’tiborini jalb qilib turish ancha qiyin. Shuning uchun ham o‘z tajribamdan kelib chiqib shuni aytishim mumkinki, bog‘cha yoshdagi bolalar bilan ishlash qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Chunki ular bilan doim o‘ynash, sakrash, qo‘shiqlar aytish muhim. O‘z tajribam hamda izlanishlar natijalaridan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, maktabgacha yosh davridagi bolalarda ko‘proq kinestetik o‘rganish uslubi ustunroq bo‘ladi. Negaki, ular raqs tushib qo‘shiq aytsa, masalan, oddiygina "Peel banana", "Head, shoulders, knees and toes" qo‘shiqlari misolida oladigan bo‘lsak, bu qo‘shiqlarni ikki yoki uch marotaba takrorlatishning o‘zi kifoya. Bola qo‘shiqni unutmaydi, sababi o‘ynab bajardi, bajargani yodida qoldi.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘RGANUVCHILARI

Bu yosh oralig‘ida ham bolalarning darsga bo‘lgan e’tiborini yig‘ib olish biroz mushkul, ular darslar davomida zerikishlari, yozishdan takrorlashdan charchashlari tabiiy hol bo‘lganligi sababli dars davomida mavzuga oid o‘yinlar, tanaffuslar, xullas bolani o‘rnidan turg‘azib o‘ynatish va dam berish darsning samaradorligiga oz bo‘lsa-da hissa qo‘shadi. Bu yosh uchun mos o‘yinlar sifatida "Kill the fly", "Who am I?", aqliy hujum, guruhlarga bo‘linib ishlash kabilar mos keladi.

Yana bunga qo‘shimcha ravishda:

"• Interaktiv va o‘yinga asoslangan metodlardan foydalanish: Bunday o‘yinlar bolalarda tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, darsning mazmundorligiga ijobiy hissa qo‘shadi.

• Ko‘rgazmalardan foydalanish: Kartochkalar, rasmlar, haqiqiy obyektlar, shakllar yangi so‘zlarni yaxshiroq tushunish va esda saqlashga yordam beradi.

• Doimiy tartib va takrorlash: Dars uchun maxsus tartiblar yaratish va asosiy lug‘atlarni doimiy qayta takrorlash tilning doimiy ishlatiluvchi qismini yodda saqlashga xizmat qiladi.

• Ota-onalar ko‘magi: Ota-onalarning ham ta’lim jarayoniga jalb etilishi til o‘rganuvchilar uchun ijobiy jarayondir. Chunki faqatgina dars davomida o‘rganish va takrorlash emas, balki uyda

[12] https://gujum.uz/ozbekiston/maktablarda-til-va-kasb-orgatishni-rivojlantirish-choralari-belgilandi/?imlo=l
[13] https://sanako.com/how-to-teach-languages-to-different-age-groups

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

ham ta’limga e’tibor berilishi va o‘rganilgan ma’lumotlar savol-javoblar tarzida takrorlanish bolaning o‘rganish sifatini oshiradi."[14]

YUQORI SINF O‘RGANUVCHILARI

Yuqori sinf o‘rganuvchilari yuqorida sanab o‘tilgan ikki guruh o‘quchilaridan farqli tomonlari mavjud. "Sababi yuqori sinf o‘quvchilarini hayratlantirish va darsga qiziqtirish biroz mehnat talab qiladi. Bu davrda hamma o‘quvchilar ham darsga, tilga qiziqqanligi uchun til o‘rganishga qiziqish bildirmaydi, ba’zilar qiziqsa, ba’zilar maktabdagi majburiy fan ekanligi uchun o‘qishi mumkin. Shu sababli bu davrda o‘quvchilarning til bilish darajasi ham turli xil bo‘lishi tabiiy. Bu esa o‘qituvchilar har bir o‘rganuvchiga alohida yondashuvni talab etadi. Bunga misol tariqasida ularga qiziq bo‘lgan biror sohani tanlash (masalan, kino, multfilm, mashhur insonlar, siyosat, sport) va shu orqali ularni qiziqtirish mumkin. Chunki bolalarga ularga qiziq va tushunarli bo‘lgan mavzular orqali til o‘rganishga qiziqtirish ancha yaxshi uslub. Yana shunga o‘xshash ijtimoiy tarmoqlar (You Tubeda grammatik videodarslardan, Tiktokdagi videolardan gapirish ko‘nikmasini oshirish uchun mashqlar sifatida foydalanish ham mumkin".[15]

Lekin bu yoshda til o‘rgatishning qulay tomonlari ham mavjud. Bu yoshda o‘quvchilar ancha tartibli bo‘lishadi va bu darsni tushuntirishni ancha osonlashtiradi. Yana o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib ishlashda ham qiyinchiliklar tug‘ilmaydi. Bir so‘z bilan aytganda, o‘rganishni istamaydigan o‘quvchining o‘zi yo‘q. Muhimi, yondashuvning to‘g‘riligi.

KATTA YOSHDAGI TIL O‘RGANUVCHILAR

Bu yoshdagi til o‘rganuvchilar yuqorida sanab o‘tilganlaridan katta farq qiladi. "Sababi, ularning til o‘rganishga bo‘lgan talablari maqsadlidir. Masalan, ba’zilar oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun, yana kimdir chet elga ketish uchun, kimdir sayohat uchun va hokazo. Odatda, katta yoshdagi o‘rganuvchilar anchagina boy hayotiy tajriba, maqsad va turli motivatsiyalar bilan keladilar. Ular o‘zlarini til o‘rganishga majburlay oladilar. Shu sababli til o‘rganish jarayonida xatolar bo‘lishi tabiiy ekanligini hisobga olgan holda o‘z xatolarini o‘zlari tuzatishlariga imkon berish kerak.

Yana ularga real hayotiy misollar, muhokamalar, keyslar orqali fikrlarini bildirish, muammolarni yechishga urinib ko‘rishga imkon berish ularni yanada rag‘batlantiradi. Har bir o‘rganuvchining qiziqish va maqsadlariga mos materiallar tanlash ham ularga til bilish ko‘nikmalarini yaxshilashga imkon beradi. Bu yoshdagi o‘rganuvchilar hurmat qilinishni istaydilar. Shu sababli, o‘rgatilayotgan ma’lumotlar ularning yoshiga mosligini tekshirish muhim. Masalan, online maqolalar, menular, xaritalar, YouTube tarmog‘idagi didaktik, hayotiy yoki komik videolar va podkastlardan foydalanish ancha samaralidir."[16]

Xulosa ornida shuni aytishimiz mumkinki, turli yosh davrlarida til o‘rgatish bir biridan farqlanadi. Turli yoshdagi o‘rganuvchilar uchun turli xil didaktik va ilmiy materiallardan foydalanish samarali natijalar beradi. Dars jarauonida turli interaktiv o‘yinlar tashkil qilish, dialoglar tuzdirish, role-play metodlaridan foydalanish jarayonlarida o‘rganuvchilarda grammatik qoidalarni to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyati shakllanadi. Bog‘cha va undan kichik yosh davrlarida bolalarda til o‘rganishga qiziqish yuqori bo‘lishiga qaramasdan, har qanday yoshda ham o‘rganuvchilar shunday motivatsiya bilan o‘qishlari mumkin va chet tilida mukammal so‘zlashuv qobiliyatini o‘zlarida namoyon etishlari mumkin.

[14] https://interoncof.com/index.php/germany/article/view/9305
[15] https://sanako.com/how-to-teach-languages-to-different-age-groups
[16] https://esl-curriculum.com/teaching-kids-vs-adults/

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Boliqulova F. Sh., "Turli yoshdagi bolalarga ingliz tilini o‘rgatish usullari". International conference on modern development of pedagogy and linguistics; Volume 01, Issue 10, 2024
2.https://gujum.uz/ozbekiston/maktablarda-til-va-kasb-orgatishni-rivojlantirish-choralari-belgilandi/?imlo=l
3. https://sanako.com/how-to-teach-languages-to-different-age-groups
4. https://interoncof.com/index.php/germany/article/view/9305
5. https://sanako.com/how-to-teach-languages-to-different-age-groups
6. https://esl-curriculum.com/teaching-kids-vs-adults/

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Davlatova Muhayyo Hasanovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ramazonova Nafisa Ixtiyor qizi
Buxoro viloyat Romitan tuman 7-maktab
ingliz tili o‘qituvchisi
Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI RAQAMLI TA’LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI



Luqmonova Salomat Gafurovna
Osiyo xalqaro universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya.

KIRISH: Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun muhim pedagogik vazifalardan biridir. Globallashuv, raqamli transformatsiya va axborot makonining kengayishi sharoitida o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish ularning kasbiy faoliyatida pedagogik mahorat va psixologik tayyorgarlikning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarni shaxsiylashtirilgan, interaktiv va innovatsion metodlar asosida o‘qitish raqamli ta’lim resurslarini to‘g‘ri tanlash, integratsiyalash va qo‘llash bilan chambarchas bog‘liqdir.

MAQSAD: Mazkur tadqiqotning maqsadi – boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini raqamli ta’lim resurslaridan samarali foydalanishga tayyorlashning pedagogik va psixologik asoslarini ilmiy jihatdan asoslab berish hamda ularni amaliy faoliyatga tadbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqishdir.

MATERIALLAR VA METODLAR:

Tadqiqotda pedagogik tahlil, psixologik kuzatuv, anketalashtirish, diagnostik test, kontent-tahlil, tajriba-sinov metodlari qo‘llanildi. Asosiy material sifatida zamonaviy raqamli ta’lim platformalari (LearningApps, Google Classroom, Moodle, Kahoot), multimedia vositalari hamda boshlang‘ich ta’lim uchun mo‘ljallangan elektron darsliklar tanlab olindi.

XULOSA:

Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining raqamli kompetensiyasini shakllantirishda psixologik tayyorgarlik, metodik qo‘llanmalar va interaktiv pedagogik yondashuvlar muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Shuningdek, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirish, ularning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ta’lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, raqamli ta’lim resurslari, pedagogik kompetensiya, psixologik tayyorgarlik, innovatsion texnologiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ

Лукмонова Саломат Гафуровна
Преподаватель Азиатского международного университета

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Аннотатця

ВВЕДЕНИЕ: В современном образовательном процессе эффективное использование цифровых технологий и информационно-коммуникационных средств является одной из ключевых педагогических задач для учителей начальных классов. В условиях глобализации, цифровой трансформации и расширения информационного пространства развитие цифровой компетентности учителей рассматривается как неотъемлемая часть их профессиональной деятельности, педагогического мастерства и психологической готовности. Особенно в начальном образовании персонализированное, интерактивное и инновационное обучение напрямую связано с правильным выбором, интеграцией и применением цифровых образовательных ресурсов. Поэтому формирование цифровой грамотности, культуры применения педагогических технологий и психологических механизмов адаптации сегодня является актуальной научно-практической проблемой.

ЦЕЛЬ: Цель исследования – научное обоснование педагогических и психологических основ подготовки учителей начальных классов к эффективному использованию цифровых образовательных ресурсов и разработка механизмов их внедрения в практическую деятельность.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В исследовании применялись педагогический анализ, психологическое наблюдение, анкетирование, диагностические тесты, контент-анализ, опытно-экспериментальные методы. В качестве основных материалов были использованы современные цифровые образовательные платформы (LearningApps, Google Classroom, Moodle, Kahoot), мультимедийные средства и электронные учебники, предназначенные для начального образования.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Результаты исследования показали, что в формировании цифровой компетентности учителей начальных классов важную роль играют психологическая готовность, методические пособия и интерактивные педагогические подходы. Кроме того, применение инновационных педагогических технологий при использовании цифровых образовательных ресурсов способствует повышению когнитивной активности учащихся, формированию их навыков самостоятельного обучения и улучшению качества образования.

Ключевые слова: начальное образование, цифровые образовательные ресурсы, педагогическая компетентность, психологическая готовность, инновационные технологии.

PEDAGOGICAL BASIS OF PREPARING PRIMARY TEACHERS TO USE DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES

Lukmonova Salomat Gafurovna
Teacher at Asia International University

Annotation.

INTRODUCTION: In the modern educational process, the effective use of digital technologies and information-communication tools is one of the key pedagogical tasks for primary school teachers. In the context of globalization, digital transformation, and the expansion of the information space, the development of teachers' digital competence is regarded as an integral part of their professional activity, pedagogical mastery, and psychological readiness. Particularly in primary education, personalized, interactive, and innovative teaching is directly related to the correct selection, integration, and application of digital educational resources. Therefore, the formation of digital literacy, the culture of applying pedagogical technologies, and psychological adaptation mechanisms are considered highly relevant scientific and practical issues today.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

THE GOAL: The purpose of this study is to scientifically substantiate the pedagogical and psychological foundations of preparing primary school teachers for the effective use of digital educational resources and to develop mechanisms for their implementation in practice.

MATERIALS AND METHODS: The study employed pedagogical analysis, psychological observation, questionnaires, diagnostic testing, content analysis, and experimental methods. As primary materials, modern digital education platforms (LearningApps, Google Classroom, Moodle, Kahoot), multimedia tools, and electronic textbooks designed for primary education were selected.

CONCLUSION: The research results demonstrate that psychological readiness, methodological support, and interactive pedagogical approaches play a crucial role in shaping the digital competence of primary school teachers. Furthermore, the application of innovative pedagogical technologies in using digital educational resources contributes to enhancing students' cognitive activity, developing their independent learning skills, and improving the overall quality of education.

Keywords: primary education, digital educational resources, pedagogical competence, psychological readiness, innovative technology.

Raqamli ta'lim resurslari zamonaviy pedagogik jarayonning eng muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Ta'limning mazmunini yangilash, o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirish va individual yondashuvni ta'minlashda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim tizimida eng asosiy bo'g'inni tashkil qilgani bois, ularning raqamli kompetensiyasini shakllantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida ustuvor ilmiy yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda bolalarning raqamli muhitda faol ishtiroki va axborot oqimidan samarali foydalanishga bo'lgan ehtiyoji ushbu mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda.

Ikkinchidan, bugungi globallashuv va axborot makonining kengayishi davrida boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining vazifalari faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi. U o'quvchilarni axborotni tanlab olish, uni qayta ishlash, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etishga yo'naltirishi zarur. Bunday vazifalarni samarali amalga oshirishda raqamli ta'lim resurslaridan oqilona foydalanish pedagogik mahoratning muhim ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi. Shu bois o'qituvchilarni raqamli ta'lim resurslarini qo'llashga tayyorlash masalasi ta'lim sifatini yuksaltirish, shuningdek, o'quvchilarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilari psixologik rivojlanishining nozik bosqichida bo'lgani sababli ularni raqamli ta'lim vositalaridan foydalanishga jalb etish alohida mas'uliyatni talab qiladi. Chunki raqamli texnologiyalar ta'limiy jarayonda ham ijobiy, ham salbiy psixologik oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, o'qituvchilarning nafaqat pedagogik, balki psixologik tayyorgarligini kuchaytirish ham muhim dolzarb vazifadir. Bu esa bolalarning raqamli muhitda kognitiv, emotsional va ijtimoiy moslashuvchanligini samarali ta'minlash imkonini beradi.

To'rtinchidan, mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim islohotlari, raqamli transformatsiya jarayonlari va "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta'lim tizimiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish vazifalari belgilab berilgan. Ushbu islohotlarning amalda samarali natija berishi esa, avvalo, o'qituvchilarning malaka va kompetensiyasiga bog'liq. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchilarini raqamli ta'lim resurslarini samarali qo'llashga tayyorlash masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo'lib, milliy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishida strategik ahamiyat kasb etadi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Beshinchidan, raqamli savodxonlik va raqamli pedagogikaning rivojlanishi nafaqat o‘qituvchilarning o‘z faoliyatini samarali tashkil etishida, balki butun ta’lim tizimining innovatsion rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois mazkur mavzuni ilmiy o‘rganish, pedagogik va psixologik asoslarini chuqur tahlil qilish, amaliy metodik tavsiyalar ishlab chiqish nafaqat bugungi kunda, balki kelajak ta’lim strategiyasini belgilashda ham dolzarbdir. Demak, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishga tayyorlash masalasi nafaqat milliy, balki global ta’lim makonida ham eng muhim pedagogik muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishga tayyorlash masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida muhim ilmiy muammolardan biri sifatida keng o‘rganilgan. Bu boradagi tadqiqotlarda nafaqat nazariy yondashuvlar, balki amaliy tajribalar ham tahlil qilinadi. Chunki zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchining raqamli savodxonligi va metodik tayyorgarligi o‘quvchilarning bilim olish sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchidan, V. A. Slastenin o‘qituvchi shaxsini kasbiy jihatdan tayyorlash masalasini pedagogik tizimning asosiy komponenti sifatida ko‘rib chiqqan. Uning fikricha, o‘qituvchi kompetensiyasi nafaqat bilim va ko‘nikmalardan, balki ijodkorlik, axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash va ta’lim jarayonini boshqarish qobiliyatidan ham tashkil topadi. Shu bois, raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish o‘qituvchining zamonaviy kasbiy modeli uchun majburiy shart sifatida belgilanadi.

Ikkinchidan, I. A. Zimnyaya raqamli kompetensiyani o‘qituvchining umumiy kasbiy kompetensiyasi tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi. U o‘qituvchining axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatini uch bosqichli model asosida tushuntiradi: (1) nazariy bilimlar, (2) amaliy ko‘nikmalar, (3) shaxsiy va ijtimoiy sifatlar. Bu model boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda raqamli resurslardan samarali foydalanishni o‘rgatishda metodik asos vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, E. S. Polat o‘qituvchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga o‘rgatishda “modulli ta’lim” tizimini taklif etgan. Unga ko‘ra, o‘qituvchi dastlab elektron resurslardan foydalanishning eng oddiy shakllarini o‘zlashtiradi, so‘ngra murakkabroq loyihaviy va interaktiv usullarni qo‘llaydi. A. V. Xutorskoy esa ta’limni shaxsiylashtirish g‘oyasiga asoslanib, raqamli vositalarning individual ta’lim yo‘llarini yaratishda o‘ta samarali ekanini ta’kidlaydi. Bu yondashuv boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun ayniqsa muhimdir, chunki bu davrda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari o‘zaro keskin farqlanadi.

To‘rtinchidan, psixologik jihatdan ham muammo keng o‘rganilgan. L. S. Vygotskyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi interaktiv raqamli vositalar yordamida o‘quvchilarni yanada yuqori darajadagi bilim va ko‘nikmalarga olib chiqish mumkinligini ko‘rsatadi. A. N. Leontyev faoliyat nazariyasi asosida o‘quvchilarning raqamli vositalar bilan ishlashda faoliyat motivlari va maqsadlarini o‘rganishga e’tibor qaratadi. D. B. Elkonin esa yosh psixologiyasi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkur va diqqat jarayonlariga moslashtirilgan raqamli resurslardan foydalanishni zarur deb biladi.

Beshinchidan, xorijiy tadqiqotchilar ham bu sohada muhim natijalar bergan. Mars Prensky “raqamli avlod” tushunchasini ilgari surib, bugungi o‘quvchilar texnologik muhitda ulg‘aygani uchun ular bilan ishlashda an’anaviy metodlar yetarli emasligini ta’kidlagan. Neil Selvyan esa raqamli texnologiyalarning nafaqat texnik, balki ijtimoiy va psixologik oqibatlarini ham o‘rganib, o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni kompleks yondashuvga asoslanishi lozimligini isbotlagan. Jon Xattiy raqamli resurslardan foydalanishning o‘quvchilarning ta’lim natijalariga bevosita ta’sirini empirik tadqiqotlar asosida o‘rgangan va ta’limda “ko‘rinadigan natijalar” konsepsiyasini ilgari surgan.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

O‘zbek olimlarining ishlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, Sh. Tursunov boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etish o‘qituvchining metodik tayyorgarligi va pedagogik texnologiyalarni egallash darajasi bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatgan. M. To‘xtaxo‘jayev o‘qituvchilarni raqamli vositalardan foydalanishga tayyorlashda psixologik yondashuvning ustuvorligini ta’kidlagan. Z. Nishonova esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh psixologik xususiyatlarini inobatga olib, raqamli resurslarni moslashtirish yo‘llarini ishlab chiqqan.

1-jadval

OLIMLAR	ASOSIY G‘OYA / TADQIQOT NATIJASI	AMALIY AHAMIYATI
V. A. Slastenin	O‘qituvchining pedagogik kompetensiyasi tarkibida raqamli tayyorgarlikni asoslagan	O‘qituvchilar uchun kompetensiya modeli yaratishga asos bo‘ladi
I. A. Zimnyaya	Raqamli kompetensiyani kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida ta’riflagan	O‘qituvchilar malakasini oshirish kurslarida qo‘llaniladi
E. S. Polat	O‘qituvchilarni AKTdan foydalanishga tayyorlash metodikasini ishlab chiqqan	Amaliy o‘quv qo‘llanmalar yaratishga xizmat qiladi
A. V. Xutorskoy	Ta’limda shaxsiylashtirilgan yondashuvni raqamli resurslar orqali qo‘llashni targ‘ib qilgan	O‘quvchilarga individual ta’lim yo‘llarini yaratadi
L. S. Vygotsky	“Yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasini ilgari surgan	Raqamli interaktiv metodlarni qo‘llashda asos bo‘ladi
Mars Prensky (2001)	“Digital Natives” konsepsiyasini ishlab chiqqan	O‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi raqamli tafovutni tushuntiradi
Neil Selvyan (2011)	Raqamli texnologiyalarning ijtimoiy-psixologik jihatlarini o‘rgangan	O‘qituvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlaydi
Z. Nishonova (2018)	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlagan	Raqamli vositalarni yoshga mos qo‘llash imkonini beradi

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, turli olimlar tomonidan raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishga tayyorlash masalasiga turlicha yondashuvlar taklif etilgan. Ba’zi olimlar (Slastenin, Zimnyaya, Polat) o‘qituvchining pedagogik va kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga e’tibor qaratgan bo‘lsa, boshqalar (Vygotsky, Elkonin, Leontyev) o‘quvchilarning psixologik rivojlanishi nuqtayi nazaridan yondashgan. Xorijiy tadqiqotchilar (Prensky, Selvyan, Xattiy) esa global tendensiyalar, ijtimoiy-psixologik jihatlar va ta’lim sifatini baholash masalalariga urg‘u bergan. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishga tayyorlashda kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishga tayyorlash bugungi kunda pedagogika va psixologiya fanining dolzarb muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Mavjud adabiyotlar, olimlarning nazariy qarashlari va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida raqamli vositalarni qo‘llash o‘quvchilarning bilish jarayonlarini faollashtirish, mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi, pedagogik mahorati, psixologik tayyorgarligi va ijtimoiy kompetensiyasi uzluksiz ravishda rivojlantirilishi zarur.

Xalqaro va milliy tajribalar shuni tasdiqlaydiki, o‘qituvchilarni raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishga tayyorlashda integrativ yondashuv eng samarali yo‘l hisoblanadi. Bu jarayon

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va shaxsiy sifatlarni uyg‘unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, o‘qituvchining yosh psixologiyasini hisobga olishi va ta’limni shaxsiylashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi ham muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishga tayyorlash ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga hamda zamonaviy jamiyat talablariga javob bera oladigan shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu sababli mazkur masalani ilmiy asosda chuqur o‘rganish, milliy ta’lim tizimi sharoitida samarali metodika va amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Taklif va tavsiyalar

1. **O‘qituvchilarni malaka oshirish kurslari**. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishga bag‘ishlangan maxsus modul asosida malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi. Kurslarda nazariy bilimlar bilan birga amaliy mashg‘ulotlar ham ustuvor o‘rin egallashi lozim.
2. **Pedagogik oliygohlarda yangi fanlar kiritish**. Pedagogika universitetlari va institutlari dasturlariga “Raqamli pedagogika asoslari”, “Interaktiv ta’lim texnologiyalari” kabi yangi fanlarni kiritish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy talablar asosida tayyorlash zarur.
3. **Raqamli resurslar bazasini kengaytirish**. Boshlang‘ich ta’lim uchun maxsus yaratilgan elektron darsliklar, interaktiv mashqlar, mobil ilovalar va o‘yinli ta’lim dasturlarining sonini ko‘paytirish va ularni milliy qadriyatlarga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.
4. **Psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash**. O‘qituvchilarning raqamli resurslardan foydalanishdagi psixologik qiyinchiliklarini yengish uchun maxsus trening va seminarlar tashkil etish, shuningdek, psixologik maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi.
5. **Ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish**. Raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishning samaradorligini o‘rganish, ta’lim natijalariga ta’sirini baholash va yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot loyihalarini kengaytirish lozim.
6. **Hamkorlik va tajriba almashish.** Mahalliy va xorijiy ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish, ilg‘or tajribalarni amaliyotga joriy etish va o‘qituvchilar o‘rtasida raqamli platformalar orqali tajriba almashish tizimini yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psix.f.dok.dis. - T., 2005. – 391 b.

2. Polat, E. S.; Bukharkina, M. Y. — *Modern pedagogical and information technologies in the education system: Textbook for university students*. Moskva: Academia Publishing Center, 2010.

3. Prensky, Mark — *Teaching Digital Natives: Partnering for Real Learning*. Corwin Press, 2010.

4. Prensky, Mark — *From Digital Natives to Digital Wisdom: Hopeful Essays for 21st Century Learning*. Corwin Press, 2012.

5. Ryan M.K., Branscombe N.R. The Sage Handbook of Gender and Psychology. 2012. – 163 p.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Luqmonova Salomat Gafurovna
Osiyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi
Manzil: O‘zbekiston, 200100, Buxoro shahri

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

TALABALARNING IQTISODIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING AHAMIYATI

Sodiqova Nigora To'rayevna
Osiyo xalqaro universiteti doktoranti

Annotatsiya:

KIRISH: ushbu maqolada talabalarning iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda mustaqil ta'limning ahamiyati, talaba mustaqil ishlash jarayonida manba va adabiyotlar, fanga taalluqli masalalar, o'quv ishlari rejalarining bajarilishi, eng asosiysi auditoriyadagi va auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishlarni tashkil etilishi va uning samaradorligini oshirish, talaba biror muammoni yechayotgan bo'lsa, faoliyatning tashqi motivlari quyidagilardan tashkil topadi: yaxshi baho olish istagi, kursdosh davrasida o'z maqeini mustahkamlash xohishi, ko'pincha ko'ngilsiz, noxush kechinmalar yoki holatlardan qochish kabilar xronologik xaritasini ishlab chiqish va amaliyotga keng tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'linganidan so'ng uni amaliyotchi o'qituvchilar o'z faoliyatida qo'llash haqida fikr yuritilgan.

MAQSAD: talabalarning iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda mustaqil ta'limning ahamiyati, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, uning mazmuni va o`ziga xosliklari, muammo va mavzu tushunchalari bo'yicha egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, xabardorlik ko'nikmalarini shakllantirish, ilmiy asoslangan yo'llarni ko'rsatish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Standart kompetensiya-ushbu faoliyatga oid doimiy va odatiy vazifalarni bajarish qobiliyati; Asosiy kompetensiya-ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni bajarish qobiliyati; Yetakchi kompetensiya-kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyatiga alohida e'tibor berilishi zamonaviy kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlashga asos bo'lmoqda.

XULOSA: talabalarning iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda mustaqil ta'limning ahamiyati, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, uning mazmuni va o`ziga xos metod, usul va texnologiyadan foydalanishning ahamiyati va ilmiy yo'nalish, muammo va mavzu tushunchalari bo'yicha egallangan nazariy bilimlarni mustaxkamlash va chuqurlashtirish, xabardorlik ko'nikmalarini shakllantirish borasida maqsadli, manzilli ishlar amalga oshirilmoqda, biz ushbu maqolada uning ayrim jihatlarini imkon darajasida yoritib berdik. Uni kelajakda yaxlit fundamental tadqiqot sifatida o'rganish navbatdagi vazifalardan sanaladi.

Kalit so'zlar: Tafakkur, iqtidorlilik, ijtimoiy me'yorlar, talaba, iqtisoriy tafakkur, mustaqil ta'lim

ЗНАЧЕНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Содикова Нигора Тураевна
Докторант Азиатского международного университета

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматривается значение самостоятельной работы в формировании экономического мышления студентов, значение источников и литературы, вопросы, связанные с наукой, реализация учебных планов в ходе самостоятельной работы студента и, самое главное, организация самостоятельной работы в аудитории и вне ее и повышение ее эффективности. При решении студентом задачи внешние мотивы деятельности состоят из следующих: желание получить хорошую оценку, стремление укрепить свои позиции среди одноклассников и потребность избежать часто неприятных, неприятных ситуаций или переживаний. Получив возможность разработать хронологическую карту и широко применять ее на практике, практикующие учителя рассмотрят ее использование в своей работе.

ЦЕЛЬ: Значение самостоятельной работы в формировании экономического мышления студентов, формировании умений и навыков, ее содержание и особенности, закрепление и углубление полученных теоретических знаний по понятиям проблем и тем, формирование навыков осознания, указание научно обоснованных путей.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Стандартная компетенция – способность выполнять постоянные и рутинные задачи, связанные с данной деятельностью; Основная компетенция – способность выполнять инновационные задачи, связанные с данной деятельностью; Ведущая компетентность – способность создавать новые виды профессиональной деятельности, уделяя ей особое внимание, является основой обеспечения конкурентоспособности современных кадров.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: В формировании экономического мышления студентов, важности самостоятельного обучения, формирования умений и навыков, использования его содержания и конкретных методов, приемов и технологий, а также закрепления и углубления полученных теоретических знаний по научным направлениям, концепциям проблем и предметов, формирования навыков осознанности, некоторые аспекты которого мы в меру своих возможностей осветили в данной статье. В перспективе одной из задач является его изучение как целостного фундаментального исследования.

Ключевые слова: Мышление, талант, социальные нормы, студент, экономическое мышление, самостоятельное обучение.

THE IMPORTANCE OF INDEPENDENT EDUCATION IN FORMING STUDENTS' ECONOMIC THINKING

Sodiqova Nigora Turayevna
Doctoral student at Asian International University

Annotation

INTRODUCTION: This article examines the importance of independent work in the formation of students' economic thinking, the importance of sources and literature, issues related to science, the implementation of curricula during the student's independent work and, most importantly, the organization of independent work in and outside the classroom and increasing its effectiveness. When a student solves a problem, external motives for activity consist of the following: the desire to get a good grade, the desire to strengthen their position among classmates and the need to avoid often unpleasant, unpleasant situations or experiences. Having the opportunity to develop a chronological map and widely apply it in practice, practicing teachers will consider its use in their work.

THE GOAL: The importance of independent work in the formation of students' economic

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

thinking, the formation of skills and abilities, its content and features, consolidation and deepening of the acquired theoretical knowledge on the concepts of problems and topics, the formation of awareness skills, and the indication of scientifically based paths.

MATERIALS AND METHODS: Standard competence - the ability to perform permanent and routine tasks related to this activity; Main competence - the ability to perform innovative tasks related to this activity;

Leading competence - the ability to create new types of professional activity, paying special attention to it, is the basis for ensuring the competitiveness of modern personnel.

CONCLUSION: In the formation of students' economic thinking, the importance of independent learning, the formation of skills and abilities, the use of its content and specific methods, techniques and technologies, as well as the consolidation and deepening of the theoretical knowledge obtained in scientific areas, concepts of problems and subjects, the formation of awareness skills, some aspects of which we have covered in this article to the best of our ability. In the future, one of the tasks is to study it as a holistic fundamental study.

Keywords: Thinking, talent, social norms, student, economic thinking, independent learning.

Mamlakatimizda hozirgi paytda yoshlarga ta'lim va tarbiya berishga alohida diqqat e'tibor qaratilmoqda. Yoshlar bizning kelajagimiz mevasi qanday bo‘lishi esa hozirgi kundagi parvarishimizga bog‘liq. Ta'lim-tarbiya jamiyat taraqqiyotining asosidir. Chunki, inson jamiyatdagi barcha munosabatlar, aloqalarning markazida turadi. Fan-texnika va axborotdagi revolyutsiya inson, uning ilmiy-ma'rifiy potensialini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylantirdi. Kelajakda erishishimiz lozim bo‘lgan buyuk maqsadlarga yetishish uchun eng avvalo yuqori malakali, zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlashimiz kerak.

Hozirgi davrda o‘quv jarayonini tashkil etish o‘qituvchidan faqat chuqo‘r bilimgina emas, balki pedagogik mahoratga ega bo‘lishlari, dars berishning turli uslublarini bilish hamda o‘z ustida tinmay ishlashlari (izlanishlari)ni talab qiladi. Har bir insonning hayoti asosini iqtisodiy faoliyat tashkil etar ekan, u albatta har bir odamdan kasbiy fikrlashga o‘rganishni taqozo etadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan bu talab yanada kuchayadi. Shuning uchun ham farzandlarimizda yoshlikdan boshlab iqtisodiy fikrlashni o‘rganishlari uchun, mamlakatimizda o‘rta maktabdan boshlab iqtisodiy bilim asoslarini o‘rganishga kirishildi. Talabalar va o‘quvchilar bilan ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil qilishda eng muhim talablar quyidagilardan iboratdir: barcha ta'lim va tarbiya tizimini yo‘lga qo‘yish uchun uning sub'ektlarda zaruriy motivatsiyani shakllantirish lozim. Shu narsani alohida ta'kidlab o‘tish joizki, har qanday tashqi ta'sir yoki har qanday tashqi ta'sir yoki har qanday tarbiyaviy ta'sir, qachonki talabalarning ehtiyojlari bilan mos kelsa, ana shu shundagina kutilmagan natijani yoki yuksak samarani kutish mumkin.

Avvalambor talaba mustaqil ishlash jarayonida manba va adabiyotlar, fanga taalluqli masalalar bilan tanishadi va o‘zida ma'lum bir ko‘nikma hosil qiladi. Talabalarni mustaqil bilim olishlari uchun, biz ularning o‘quv ishlari rejalarining bajarilishi, eng asosiysi auditoriyadagi va auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishlarni tashkil etilishi va uning samaradorligini oshirish usullarini yaratishimiz lozim. Jumladan, agarda talaba biror muammoni yechayotgan bo‘lsa, faoliyatning tashqi motivlari quyidagilardan tashkil topadi: yaxshi baho olish istagi, kursdosh davrasida o‘z maqeini mustahkamlash xohishi, ko‘pincha ko‘ngilsiz, noxush kechinmalar yoki holatlardan qochish kabilar shular jumlasidandir. Ichki motivlar yuzasidan shunday fikrlar bildirish mumkin: muammoni yechish jarayoniga nisbatan qiziqish, yechish usullarini qidirish, natijani kutish ehtiyoji, topshiriqni bajarish yo‘li va usullarini tanlash hamda ularni o‘zlashtirish istagi. Bundan tashqari, motivlar yana anglashilmagan va anglashilgan motivlar deb atalib, ular ikkita katta guruhga ajratiladi. Agar talaba nima uchun u yoki bu faoliyatni amalga

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

oshirayotganligini anglab yetsa yoki nuqsonga yo‘l qo‘ysa, bunday psixologik holat (voqelik, hodisa) har ikkala turkum motivlari ta’siri asosida yuzaga keladi va hokazo.

Talabalarni ijtimoiy fanlardan mustaqil ishlarini tashkil etishning quyidagi asosiy maqsad va vazifalarini ta’kidlab o‘tmoqchimiz:

- o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish;
- talabalarda ijtimoiy fanlardan dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirish; - talabalarning o‘quv-bilish faolligi va mustaqilligini yuksaltirish;
- ta’lim-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;
- ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishning birligini ta’minlash;
- fanlararo aloqadorlikni ta’minlash;
- ta’lim va tarbiya jarayonini individuallashtirish;
- fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish talablari asosida siyosiy va huquqiy bilimlarni rivojlantirish;
- darsning samaradorligini oshirish yo‘llarini izlash;
- yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish;
- ta’lim-tarbiya jarayonini faollashtirish Talabalar ijtimoiy fanlardan ma’lum bir vazifalarni mustaqil ravishda bajarishlari uchun ularning darsliklar, adabiyotlar, uslubiy ko‘rsatmalar, fanga taalluqli bo‘lgan slaydlar, jadvallar va tarqatma materiallarni o‘zida qamrab olgan o‘quv-uslubiy majmualar bilan ta’minlanishi o‘qitishni faollashtiradi va ijodiy yondashuvli ta’limni shakllantiradi.

Talabalarning darsga bo`lgan qiziqishini bilish maqsadida psixologik so`rovnomalar o`tkazish mumkin. Ulardan na`munalar: Ularga avval yo`llanma beriladi. Yo‘llanma (instruksiya): so‘rovnomani diqqat bilan o‘qib chiqing, keyin o‘zingizni intilish va istaklaringizga mos keladigan bandlarning tagini chizing. So‘rovnomani davom ettirish mumkin.

1. (Nomi ko‘rsatiladi). Darslar qiziqarli bo‘lganligi uchun o‘qiyman.
2. Ota-onam majbur qilganligi uchun saboq olaman.
3. Bo‘lg‘usi kasbga tayyorlanish uchun shug‘ullanaman.
4. Yaxshi baholar olish uchun harakat qilaman.
5. Bizning davrimizda hamma o‘qiyotganligi sababli, “bilmasvoy” bo‘lib qolish yomonligi uchun o‘qishga majburman.
6. O‘z tengdoshlarim orasida obro‘-e’tibor qozonish uchun dars tayyorlayman.
7. Yangi ilmiy ma’lumotlarni bilgim kelganligi uchun o‘qishga qatnayman.
8. “Qaysi fandan” o‘qituvchi yoqqanligi uchun dars tayyorlayman.
9. Yomon baho olmaslik uchun va ko‘ngilsizliklar bo‘lmasligi uchun shug‘ullanaman.
10. Ko‘p narsalarni bilish uchun o‘qiyman, tirishaman.
11. Fikrlash, o‘ylash va idrok qilishni yoqtirganim uchun o‘qishni yoqtiraman.
12. Guruhda yetakchi shaxs bo‘lgim kelganligi uchun bilishga astoydil intilaman. “Muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan ehtiyojlar” metodi va tavsifi Yo‘llanma: Agar quyida berilgan fikrlar mazmuni Sizni fikringizga to‘g‘ri kelsa, savol nomerining yoniga “ha” deb, mabodo to‘g‘ri kelmasa, u holda “yo‘q” deb javob qaytaring. Hech mahal esdan chiqarmanki, unda keltirilgan fikrlar juda qisqa berilgan bo‘lib,shunga o‘xshash vaziyatni ko‘z oldingizga namoyon etishga harakat qiling. Yoqimli taassurot qoldirishga intilmang, o‘z fikringizni bemalol ifodalashingiz mumkin, chunki bu yerda yaxshi yoki yomon javoblarning o‘zi yo‘q.

1. Hayotda muvaffaqiyatga erishish mo‘ljallangan maqsadga emas, balki ko‘proq tasodiflarga bog‘liq deb o‘ylayman.
2. Agar sevimli mashg‘ulot bilan shug‘ullanmasam, hayot men uchun o‘z mazmunimohiyati qiymatini yo‘qotadi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

3. Har qanday ishda men uchun uning natijasi emas, balki uning bajarilishi muhimdir.
4. O‘qituvchilar yoki talabalar(o‘quvchilar) o‘z yaqinlari bilan bo‘ladigan yomon o‘zaro munosabatlarga qaraganda, o‘qishdagi muvaffaqiyatsizliklardan ko‘proq qayg‘uradilar, deb o‘ylayman.
5. Mening fikrimcha, ko‘pchilik talabalar (o‘quvchilar) yaqin maqsadlardan ko‘ra uzoq maqsadlarni ko‘zlaydilar.
6. Hayotda menda muvaffaqiyatsizlikka nisbatan muvaffaqiyat ko‘proq bo‘lgan.
7. Ta’sir o‘tkazuvchan talabalarga (o‘quvchilarga) qaraganda, faol insonlar menga ko‘proq yoqadi.
8. Odatdagiday ishlarda ham men uni toboro takomillashtirishga harakat qilaman.
9. Muvaffaqiyatga erishish fikrlari menga singib ketganligiga qaramay, ehtiyotkor bo‘lish kerakligini unutaman.
10. Ota-onam meni dangasa deb hisoblashadi.
11. Mening omadsizliklarimga o‘zim emas, balki ko‘proq sharoitlar aybdor deb o‘ylayman.
12. Ota-onam meni qattiq nazorat qilishadi.
13. Qobiliyatga qaraganda, menda chidamlilik ko‘proq.
14. Muvaffaqiyatga erishishga bo‘lgan shubhaga qaraganda, dangasalik ko‘pincha meni o‘z niyatimdan voz kechishga majbur etadi.
15. Men o‘zimni o‘zimga ishongan inson, deb o‘ylayman.
16. Muvaffaqiyatga erishish uchun men hatto imkoniyat mening foydamga hal bo‘lmasa-da, “tavakkal” qila olaman.
17. Men tirishqoq emasman.
18. Agar hamma ish silliq ketsa, unda mening g‘ayratim kuchayib ketadi.
19. Odatda yaqinlarim mening rejalarimni qo‘llab-quvvatlaydilar.
20. Agar men jurnalist bo‘lganimda edi, u taqdirda voqea va hodisalarga nisbatan ko‘proq original kashfiyotlar haqida yozardim.
21. Mening hayotiy talablarimning darajasi o‘rtoqlarimnikiga nisbatan pastroq.
22. Meningcha, qat’iylikka qaraganda, menda qobiliyatlar ko‘proq, deb hisoblayman

Mustaqil ta’lim o‘z mazmuniga ko‘ra talabalarning mustaqil faolligini oshirish imkoniyatini yanyada rivojlantiradi. Shuning uchun bu borada nafaqat o‘zbek balki, boshqa sohalarda ham turli mazmun mohiyat asosida tadqiq etilmoqda. Bugungi kunning dolzarb muamolaridan biri ham talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishning zamonaviy talqinini asoslash va ta’limdagi ahamiyatini ochib berishdir. O‘quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o‘z o‘rnida foydalanish talabalarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi, bilish faoliyatini faollashtiradi, o‘quv-tarbiya jarayonining samaradorligi yuqori darajada bo‘lishiga imkon yaratadi. Bu borada olib borilgan nazariy taxlillar fikrimizning dalilidir. Talabalar ijtimoiy fanlardan ma’lum bir vazifalarni mustaqil ravishda baja-rishlari uchun ularning darsliklar, adabiyotlar, uslubiy ko‘rsatmalar, fanga taal-luqli bo‘lgan slaydlar, jadvallar va tarqatma materiallarni o‘zida qamrab olgan o‘quv-uslubiy majmualar bilan ta’minlanishi o‘qitishni faollashtiradi va ijodiy yondashuvli ta’limni shakllantiradi. Mustaqil ishni tashkil etishning eng muhim xususiyati shundaki, uni talabining o‘zi mustaqil ravishda tashkil qiladi. Shuning uchun talabaga uni rejalashtirish, vaqtini ratsional taqsimlashga yordam berish lozim. Talabalar hamisha faoliyatda bo`lishi lozim. Chunki, faoliyat hamisha kishining boshqa odamlar bilan muayyan munosabatlari sistemasida yuz beradi. U boshqa odamlarning yordami va ishtirokini taqozo etadi, ya’ni birgalikdagi faoliyat xususiyatiga ega bo`ladi. Uning natijalari tevarak-atrofdagi olamga, boshqa kishilarning hayoti va taqdiriga muayyan ta’sir ko`rsatadi. Shuning uchun faoliyatda kishining faqat narsalarga munosabati emas, balki uning boshqa odamlarga bo`lgan munosabati ham doimo o`z ifodasini topadi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, *5*.
3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, *2*.
4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent*, *4*.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Sodiqova Nigora To‘rayevna
Osiyo xalqaro universiteti doktoranti
Manzil: O’zbekiston, 200100, Buxoro shahri

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

TARIX FANINI O‘QITISHDA MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI.

Toshpo’latova Shaxnoza Shuhratovna
Osiyo xalqaro universiteti doktoranti

Annotatsiya.

KIRISH: Maqolada tarix fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda ta’limiy motivatsiyani shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslari tahlil qilinadi. Motivatsiya tushunchasining mazmuni, uning o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan qiziqish, ma’naviy ehtiyoj va mustaqil fikrlashni rivojlantirishdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirish orqali o‘quvchilarda tarixiy bilimlarga qiziqishni kuchaytirishning samarali metodlari ko‘rsatib berilgan.

MAQSAD. Tarix fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarda ijtimoiy faollik va vatanparvarlik motivlarini shakllantirishning pedagogik asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metod va vositalarni asoslab berish hamda o‘quv jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR. O‘quvchilarda ijtimoiy faollik va vatanparvarlik motivlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar, metodlar va vositalar. Nazariy metodlar: Pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish; Ilmiy-nazariy manbalarni umumlashtirish; Tarixiy tajribalarni qiyosiy o‘rganish. Empirik metodlar: O‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish; Kuzatish – tarix darslarida o‘quvchilarning motivatsion faolligini aniqlash; Suhbat – o‘quvchilar va pedagoglarning fikrini o‘rganish; Pedagogik tajriba – tarix fanini o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarda ijtimoiy va vatanparvarlik motivlarini shakllantirish.

Kalit so‘zlar: tarix ta’limi, motivatsiya, pedagogik asoslar, psixologik asoslar, tadqiqotchilik kompetentligi, ta’lim jarayoni.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МОТИВАЦИИ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ

Ташпулатова Шахноза Шухратовна.
Докторант Азиатского международного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: в статье анализируются педагогические и психологические основы формирования учебной мотивации у учащихся в процессе преподавания истории. Раскрывается содержание понятия мотивация, ее роль в развитии у учащихся интереса к обучению, духовной потребности и самостоятельного мышления. Показаны также эффективные методы повышения интереса учащихся к историческим знаниям путем формирования исследовательской компетентности у будущих учителей истории.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Цель. Научный анализ педагогических основ формирования у учащихся социальной активности и патриотических мотивов в процессе преподавания истории заключается в обосновании эффективных методов и средств их развития и выявлении возможностей их применения в учебном процессе.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ. Педагогические условия, методы и средства, служащие формированию у учащихся мотивов социальной активности и патриотизма. Теоретические методы: анализ педагогической и психологической литературы; обобщение научно-теоретических источников; сравнительное исследование исторических экспериментов. Педагогические условия, методы и средства, служащие формированию у учащихся мотивов социальной активности и патриотизма. Теоретические методы: анализ педагогической и психологической литературы; обобщение научно-теоретических источников; сравнительное исследование исторических экспериментов. Эмпирические методы: проведение опроса учащихся и педагогов; наблюдение – определение мотивационной активности учащихся на уроках истории; беседа – изучение мнений учащихся и педагогов; Педагогический опыт-формирование у учащихся социально-патриотических мотивов посредством применения интерактивных методов обучения историческому предмету.

Ключевые слова: историческое образование, мотивация, педагогические основы, психологические основы, исследовательская компетентность, образовательный процесс.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL BASIS OF FORMING MOTIVATION IN TEACHING HISTORY

Tashpulatova Shakhnoza Shukhratovna
Doctoral student at Asian International University

Annotation.

INTRODUCTION: The article analyzes the pedagogical and psychological foundations of the formation of educational motivation in students in the process of teaching history. The content of the concept of motivation, its role in the development of interest in learning, spiritual need and independent thinking in students are revealed. Also, effective methods of increasing interest in historical knowledge in students are shown by forming research competence in future history teachers.

THE GOAL. In the process of teaching history, it consists in scientifically analyzing the pedagogical foundations of the formation of social activity and patriotic motives in students, substantiating effective methods and tools that serve to develop them, and determining the possibilities of their application in the educational process.

MATERIALS AND METHODS. Pedagogical conditions, methods and means that serve to form the motives of social activity and patriotism in students. Theoretical methods: analysis of pedagogical and psychological literature; generalization of scientific and theoretical sources; comparative study of historical experiments. Pedagogical conditions, methods and means that serve to form the motives of social activity and patriotism in students. Theoretical methods: analysis of pedagogical and psychological literature; generalization of scientific and theoretical sources; comparative study of historical experiments. Empirical methods: conducting a survey between students and teachers; observation-determining the motivational activity of students in history lessons; conversation-studying the opinion of students and educators; Pedagogical experience-the formation of social and patriotic motives in students through the use of interactive techniques in the teaching of history.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Keywords: history education, motivation, pedagogical foundations, psychological foundations, research competence, educational process.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyojini kuchaytirish, ularni mustaqil fikrlash va ilmiy izlanishga jalb etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Tarix fanini o‘qitishda motivatsiya nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishga, balki o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi, ma’naviy dunyoqarashi va Vatanga sodiqligini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois pedagogik jarayonda motivatsiyani ilmiy asosda yo‘lga qo‘yish, psixologik mexanizmlarini anglash muhimdir.

O‘qituvchi pedagogik va psixologik jihatdan o‘z ixtisoslig bo‘yicha maxsus ma’lumotga ega, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga boy, ta’lim muassasalarida faoliyat kor’satuvchi shaxsdir.

O‘qituvchi ta’lim jarayonida o‘qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g‘oyala bilan boyitishni puxta bilishi lozim. Hozirgi kunda o‘qituvchining pedagogik mahoratida “Bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, sintez qilish baholash” kabi didaktik qonuniyatlar ta’lim berishning muhim kategoriyalari sifatida e’tirof etilgan. Shaxsga ta’lim-tarbiya berish nihoyatda murakkab jarayon, qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk arboblar jalb etilgan. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uni tashkil etish mazmun va nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilovch muhim ahamiyatga molik bo‘lgan omil ekanligi ta’kidlanadi.

Pedagogik nuqtai nazardan motivatsiya — bu o‘quvchining o‘quv faoliyatida maqsad sari yo‘naltirilgan faol ishtirokini ta’minlovchi ichki kuchdir. Balki o‘quvchini tarixiy voqealarning mohiyatini anglashga, ularni zamonaviy hayot bilan bog‘lashga undashdir, tarix o‘qituvchisining vazifasi faqat faktlarni yetkazish emas. Bu jarayonda quyidagilar muhim: tarixiy voqealarni shaxsiy tajriba bilan bog‘lash; darslarni qiziqarli interfaol metodlar bilan tashkil etish; ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish.

Motiv — ehtiyoj va maqsadlar majmuasidir, bu insonni ma’lum faoliyatga undovchi sabab. Davom etishi va natijasini belgilovchi psixologik hamda fiziologik jarayonlar tizimidir motivation esa faoliyatning boshlanishi. Faoliyatning mazmuni va maqsadini aniqlaydi, u insonning xulq-atvorini yo‘naltiradi.

2. Jahon psixologiyasida motivatsiya muammosiga yondashuvlar turlicha namoyon bo‘ladi. Demak turli psixologik maktablar motiv va motivatsiya masalasini o‘z konsepsiyalarida turlicha talqin qilgan:

Biologik yondashuv — inson xulq-atvori biologik ehtiyojlar (ochlik, chanqoqlik, himoyalanish) bilan izohlanadi.

Pavlov refleksologiyasi — faoliyat shartli va shartsiz reflekslar asosida yuzaga keladi.

Freyd psixoanalizi — motivatsiyaning asosini ongsiz instinktlar va ichki ziddiyatlar tashkil etadi.

Gumanistik psixologiya (A.Maslou, K.Rodjers) — inson motivlari uning o‘zini o‘zi rivojlantirish va kamol topishga intilishi bilan bog‘liq. Maslou piramidasida fiziologik ehtiyojlardan tortib, eng yuqori bosqich — o‘zini o‘zi namoyon qilish ehtiyojigacha bo‘lgan jarayon ifodalangan.

Kognitiv psixologiya — motivatsiya shaxsning ongli maqsadlari, qarorlari va kognitiv jarayonlari bilan izohlanadi.

3. Motivlashtirish turlari. Psixologiyada motivlashtirish uch asosiy shaklda talqin etiladi:

- Ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq motivlashtirish – faoliyatning subyektiv zarurati.
- Faoliyat yo‘nalishini belgilovchi motivlashtirish – xulq-atvorning ma’lum yo‘lni tanlash sababi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

- Axloqiy va ijtimoiy motivlashtirish – shaxsning xulqini emotsiyalar, istaklar, qiziqishlar orqali boshqarish.

4. His-tuyg‘u va irodaning motivatsiyadagi o‘rni. Motivatsiya jarayonida his-tuyg‘ular, emotsiyalar va iroda alohida ahamiyatga ega:

His-tuyg‘ular – tashqi olamdagi hodisalarga nisbatan shaxsiy munosabatni ifodalaydi, kayfiyat, affekt, stress kabi holatlarda namoyon bo‘ladi.

Emotsiyalar – faoliyatni rag‘batlantiradi yoki susaytiradi, xulq-atvorni boshqaradi.

Iroda – insonning ongli ravishda maqsad sari intilishi, qiyinchiliklarni yengib o‘tish qobiliyatidir. Irodaviy zo‘r berish shaxs motivatsiyasining muhim manbai hisoblanadi.

5.Motivatsiyaning pedagogik-psixologik ahamiyati. Ta’lim jarayonida motivatsiya o‘quvchilarni bilim olishga jalb etish, ularda intellektual va ma’naviy qiziqishni shakllantirish uchun zarur.

Motivatsiyasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilar:

- mustaqil ta’lim olishga intiladilar;
- o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga harakat qiladilar;
- ijtimoiy faol, ma’naviy yetuk shaxs sifatida rivojlanadilar.

Motivatsiyaning psixologik asoslari.

Psixologiya fanida motivatsiya shaxsning ichki ehtiyojlari va tashqi omillar uyg‘unligi sifatida qaraladi (L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev). Tarix o‘qitishda bu jarayon quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Kognitiv motivatsiya – tarixiy bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan intilish;

Ijtimoiy motivatsiya – jamoa oldida o‘zini ko‘rsatish, musobaqalarda ishtirok etish;

Shaxsiy motivatsiya – tarixiy voqealarni shaxsiy qadriyatlar bilan bog‘lash.

Shuningdek, o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish ham muhim: kichik sinflarda obrazli hikoyalar samarali bo‘lsa, yuqori sinflarda ilmiy tahlil va bahs-munozara motivatsiyani kuchaytiradi.

3. Tarix o‘qituvchisining motivatsiyani shakllantirishdagi roli. Bo‘lajak tarix o‘qituvchisining kasbiy kompetentligida tadqiqotchilik faoliyati muhim o‘rin tutadi. Chunki o‘qituvchining o‘zi ilmiy izlanishga qiziqmasa, o‘quvchilarni ham ilhomlantira olmaydi. Shu bois:

- tarixiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- o‘quvchilarga kichik ilmiy-tadqiqot topshiriqlarini berish;
- tarixiy voqealarni zamonaviy muammolar bilan qiyoslash;
- motivatsiyani oshiradi va mustaqil ta’limni rag‘batlantiradi.

4. Motivatsiyani shakllantirishning samarali metodlari:

- Interfaol usullar (debat, rol o‘ynash, klaster, keys-stadi);
- Axborot texnologiyalari (multimedia, tarixiy hujjatlar bazalari bilan ishlash);
- Ijodiy topshiriqlar (esse yozish, tarixiy personajlar nomidan chiqish);
- Tadqiqot ishlari (mini-loyihalar, tarixiy manbalarni tahlil qilish).

Motivatsion kompetentlik tushunchasi. Motivatsion kompetentlik — bu o‘qituvchining o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishni uyg‘otish, ularni ta’lim jarayonida faol subyektga aylantirish qobiliyati. U pedagogik kompetentlikning tarkibiy qismi bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Kognitiv komponent – o‘qituvchining motivatsiya nazariyalari, psixologik qonuniyatlar haqidagi bilimlari;
- Amaliy komponent – motivatsiyani oshirish usullari va metodlarini qo‘llash ko‘nikmalari;
- Shaxsiy komponent – o‘qituvchining o‘zida mavjud ichki motivatsiya, kasbiy burch va ma’naviy qadriyatlar.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Bo‘lajak tarix o‘qituvchisining motivatsion faoliyati. Tarix fanini o‘qitishda o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish o‘qituvchining kasbiy mahorati bilan chambarchas bog‘liq. Bo‘lajak o‘qituvchining motivatsion faoliyati quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

- ✓ darslarda tarixiy voqealarni hayotiy misollar bilan bog‘lash;
- ✓ o‘quvchilarni bahs-munozaralarga jalb etish;
- ✓ o‘quvchilarga kichik tadqiqot ishlari topshirish;
- ✓ tarixiy manbalar bilan ishlashni o‘rgatish.

Pedagogik-psixologik shart-sharoitlar. Motivatsion kompetentlikni shakllantirish uchun quyidagi shart-sharoitlar zarur:

- ❖ O‘qituvchining shaxsiy motivatsiyasi va kasbiy maqsadlari yuqori bo‘lishi;
- ❖ Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan keng foydalanish;
- ❖ Talabalarda ijodiy tafakkur va mustaqil izlanishga qiziqishni rag‘batlantirish;
- ❖ Ta’limda integrativ yondashuvni qo‘llash (tarixni siyosatshunoslik, falsafa, adabiyot bilan bog‘lash).

Maxsus kurslar va innovatsion texnologiyalar. Yarmatov R.B. ning ta’kidlashicha, maxsus kurslar orqali bo‘lajak tarix o‘qituvchilarida tadqiqotchilik kompetentligi bilan bir qatorda motivatsion kompetentlik ham shakllanadi. Masalan, “Tarix ta’limida innovatsion texnologiyalar” kursi talabalarni yangi pedagogik yondashuvlarga jalb etadi va ularda motivatsion faollikni oshiradi.

Tarix fanini o‘qitishda o‘quvchilarda ijtimoiy faollik va vatanparvarlik motivlarini shakllantirishning nazariy hamda amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlarga asoslangan ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar yordamida yoshlarning ma’naviy ongini yuksaltirish imkoniyatlari yoritiladi.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarda ijtimoiy ongni rivojlantirish va vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish milliy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir. Tarix fani bu jarayonda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, u o‘quvchilarni ajdodlarimizning boy merosi, mustaqillik g‘oyalari va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois tarix fanini o‘qitishda motivatsion yondashuvni kuchaytirish zarur.

Ijtimoiy va vatanparvarlik motivlarining pedagogik mazmuni. Ijtimoiy motivlar – o‘quvchilarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishga bo‘lgan ichki ehtiyoji va intilishidir. Bu jarayon o‘zaro hamkorlik, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik ongini shakllantirish bilan bog‘liq.

Vatanparvarlik motivlari – o‘z xalqining tarixiga hurmat, milliy g‘urur, Vatan ravnaqi uchun mas’uliyatni his etish orqali yuzaga keladi.

Ushbu motivlar ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faollashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarix fanida motivlarni shakllantirishning pedagogik asoslari. Tarixiy shaxslar hayoti misolida tarbiya – Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Alisher Navoiy kabi allomalar faoliyatini o‘rganish o‘quvchilarda milliy g‘ururni uyg‘otadi.

Interfaol metodlardan foydalanish – “Rol o‘ynash”, “Debat”, “Aqliy hujum” kabi metodlar ijtimoiy faoliyatga undaydi.

Milliy bayramlar va tarixiy sanalarni o‘qitishda integratsiya – Mustaqillik kuni, Vatan himoyachilari kuni kabi tadbirlarni tarix darslari bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarni ongli ravishda ishtirok etishga jalb etadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari – tarixiy hujjatlar, filmlar va virtual ekskursiyalar motivatsion ta’sirni oshiradi.

Tarixiy manbalarga tayanish – arxiv hujjatlari, qadimiy qo‘lyozmalar va xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish o‘quvchilarda mustaqil tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Amaliy natijalar. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tarix fanida ijtimoiy va vatanparvarlik motivlarini shakllantirish:

- o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi;
- shaxsiy mas’uliyat va ijtimoiy faollikni kuchaytiradi;
- yoshlarni milliy g‘oyaga sodiqlik va Vatanga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalaydi.

Tarix ta’limi nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarda ijtimoiy faollik va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish vositasidir. Bu jarayon samaradorligi o‘qituvchining metodik mahorati, innovatsion yondashuvi va shaxsiy namunasi bilan bevosita bog‘liq. Shunday ekan, tarix o‘qituvchilari motivatsion pedagogik yondashuvlardan samarali foydalanish orqali yosh avlodni ma’naviy barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishlari mumkin.

Tarix fanini o‘qitishda motivatsiyani shakllantirish pedagogik-psixologik jihatdan chuqur yondashuvni talab etadi. Pedagogik nuqtai nazardan motivatsiya ta’lim jarayonini qiziqarli va maqsadga yo‘naltirilgan qilishga xizmat qilsa, psixologik nuqtai nazardan u o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va ichki rag‘batini uyg‘otadi. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish motivatsiyani shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. R.B.Yarmatov “Bo’lajak tarix o’qituvchilarining o’quv ilmiy-tadqiqot ishlarini takomillashtirish” TOSHKENT “TURON-IQBOL” 2018.
2. N. A. Yusupova “Bo’lajak tarix fani o’qituvchilarining shaxsiy pedagogik sifatlarini rivojlantirish modeli” Republican Scientific and Practical Conference
3. Z.T. Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti TOSHKENT – 2018.
4. Toshpo’latova, S. (2025). BO’LAJAK TARIX O’QITUVCHILARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINING UMUMIY KONTSEPTSIYASI VA AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, *4*(3), 481-484.
5. А.Холиқов Педагогик маҳорат. Ўкув қўлланма, - Тошкент. "ИҚТИСОД-МОЛИЯ" 2010,
6. G.Izbullayeva Pedagogika nazariyasi va tarixi. I-qism Darslik. Buxoro “Durdona” nashriyoti.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Toshpo’latova Shaxnoza Shuhratovna
Osiyo xalqaro universiteti
Xorijiy til va ijtimoiy fanlar kafedrasi o’qituvchisi,
Manzil: O’zbekiston, Buxoro viloyati, Buxoro shahri,
shaxnozaosiyo@gmail.com

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

Ramazonova Salomat Saidovna
Osiyo xalqaro universiteti doktoranti

Annotatsiya:

KIRISH: ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarning bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy malakasini rivojlantirishdagi o‘rni, kreativlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish natijalari bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik amaliyot davridagi kreativligini rivojlantirishning tarkibiy-funksional modeli tamoyillarini ajratib ko‘rsatish haqida fikr yuritilgan.

MAQSAD: innovatsion texnologiyalarning bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy malakasini rivojlantirishdagi o‘rni, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, uning mazmuni va o`ziga xosliklari, muammo va mavzu tushunchalari bo‘yicha egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, xabardorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, ilmiy asoslangan yo‘llarni ko‘rsatish.

MATERIALLAR VA METODLAR: Standart kompetensiya-ushbu faoliyatga oid doimiy va odatiy vazifalarni bajarish qobiliyati; Asosiy kompetensiya-ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni bajarish qobiliyati; Yetakchi kompetensiya-kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyatiga alohida e’tibor berilishi zamonaviy kadrlarning raqobatbardoshligini ta’minlashga asos bo‘lmoqda.

XULOSA: innovatsion texnologiyalarning bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy malakasini rivojlantirishdagi o‘rni, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, uning mazmuni va o`ziga xos metod, usul va texnologiyadan foydalanishning ahamiyati va ilmiy yo‘nalish, muammo va mavzu tushunchalari bo‘yicha egallangan nazariy bilimlarni mustaxkamlash va chuqurlashtirish, xabardorlik ko‘nikmalarini shakllantirish borasida maqsadli, manzilli ishlar amalga oshirilmoqda, biz ushbu maqolada uning ayrim jihatlarini imkon darajasida yoritib berdik. Uni kelajakda yaxlit fundamental tadqiqot sifatida o‘rganish navbatdagi vazifalardan sanaladi.

Kalit so‘zlar: Kreativ, mahorat, integratsiya, rag‘bat, tafakkur, pedagogika, psixologiya, kreativlik, pedagogika, ilmiy-tadqiqot metodlari.

РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КВАЛИФИКАЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Рамазонова Саломат Саидовна.
Докторант Азиатского международного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: В данной статье рассматривается роль инновационных технологий в развитии профессиональной квалификации будущих учителей, результаты анализа

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

теоретических и практических основ развития креативности, принципы структурно-функциональной модели развития креативности будущих учителей в процессе педагогической практики.

ЦЕЛЬ: Изучить роль инновационных технологий в развитии профессиональной квалификации будущих учителей, формировании умений и компетенций, их содержание и специфику, закрепление и углубление полученных теоретических знаний по проблемам и предметам, формирование навыков осознанности, а также научно обоснованные методы.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Стандартная компетентность – способность выполнять рутинные и повседневные задачи, связанные с данной деятельностью; Базовая компетентность – способность выполнять инновационные задачи, связанные с данной деятельностью;

Особое внимание уделяется способности формировать новые виды ведущей компетентностно-профессиональной деятельности, что является основой обеспечения конкурентоспособности современных кадров.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Ведётся целенаправленная работа по изучению роли инновационных технологий в развитии профессиональной квалификации будущих педагогов, формировании умений и навыков, важности использования их содержания и конкретных методов, методик и технологий, а также закрепления и углубления полученных теоретических знаний по научным направлениям, понятийным аппаратам и предметам, формирования познавательных навыков. В данной статье мы максимально полно раскрыли некоторые её аспекты. Изучение её как целостного фундаментального исследования в будущем является одной из следующих задач.

Ключевые слова: Творческий, умение, интеграция, мотивация, мышление, педагогика, психология, креативность, педагогика, методы научного исследования

THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL QUALIFICATIONS OF FUTURE TEACHERS

Ramazonova Salomat Saidovna
Doctoral student at Asian International University

Annatation.

INTRODUCTION: This article examines the role of innovative technologies in the development of professional qualifications of future teachers, the results of the analysis of the theoretical and practical foundations for the development of creativity, the principles of the structural and functional model for the development of creativity of future teachers in the process of pedagogical practice.

THE GOAL: To study the role of innovative technologies in the development of professional qualifications of future teachers, the formation of skills and competencies, their content and specificity, consolidation and deepening of the acquired theoretical knowledge on problems and subjects, the formation of awareness skills, as well as scientifically based methods.

MATERIALS AND METHODS: Standard competence is the ability to perform routine and everyday tasks associated with this activity; Basic competence is the ability to perform innovative tasks associated with this activity;

Particular attention is paid to the ability to form new types of leading competence-professional activities, which is the basis for ensuring the competitiveness of modern personnel.

CONCLUSION: Targeted work is being carried out to study the role of innovative technologies in the development of professional qualifications of future teachers, the formation of

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

skills and abilities, the importance of using their content and specific methods, techniques and technologies, as well as consolidating and deepening the acquired theoretical knowledge in scientific areas, conceptual apparatuses and subjects, the formation of cognitive skills. In this article, we have fully disclosed some of its aspects. Studying it as a holistic fundamental study in the future is one of the following tasks.

Keywords: Creative, skill, integration, motivation, thinking, pedagogy, psychology, creativity, pedagogy, methods of scientific research

Yurtimizda faol, intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan - bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo‘lgan yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Bugungi kunda fan va texnika rivoji ta’lim va uning natijalariga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirishni talab etmoqda. Shunga asosan, yangi avlod standartlarini yaratish pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo‘yilmoqda. Shu bois yangi davlat ta’lim standartlarini o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan kompetent faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki oliy ta’limda tashkil etilayotgan o‘quv-tarbiya jarayonining mohiyati tinglovchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki pedagogik mahorat sirlarini egallab, olgan bilimlarini innotatsion texnologiyalar orqali amaliyotda qo‘llash texnologiyalarini o‘rgatishdan iborat.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Jamiyat ehtiyojlari va texnologik taraqqiyotning jadal sur’atlarda rivojlanishi ta’lim tizimidan yangicha yondashuvlar, yangi texnologiyalarni joriy etishni talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion pedagogik yondashuvlar zamonaviy ta’lim tizimini takomillashtirishning ajralmas qismiga aylanmoqda. Innovatsiyalar faqat yangi texnologiyalar emas, balki ularni amaliyotga joriy qilish jarayonidir. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati nafaqat innovatsiyalarni joriy qilish bosqichlarining to‘g‘ri tashkil etilishiga, balki ta’lim tizimining barcha ishtirokchilarining hamkorligiga ham bog‘liqdir. Zamonaviy pedagogikada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interaktiv o‘qitish, muammoli ta’lim kabi innovatsion metodlar keng qo‘llanilmoqda. Innovatsion pedagogik yondashuvlarning ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati, ularning nazariy asoslari, amaliy qo‘llanilishining afzalliklari va yutuqlari bugungi kunda ancha kuzatilmoqda. Shuningdek, ta’lim jarayonida yangi texnologiyalarni joriy qilishning asosiy tamoyillari va pedagogik samaradorlikka erishish yo‘llari ishlab chiqilmoqda. Ushbu mavzuning dolzarbligi nafaqat yangi avlod kadrlarini tayyorlashda, balki ta’lim tizimining raqobatbardoshligini ta’minlashda ham namoyon bo‘ladi.

Innovatsiya –ta’lim jarayoniga yangi g‘oyalar, texnologiyalar va yondashuvlarni joriy etish orqali uning samaradorligini oshirishdir. Ta’limda innovatsiya faqat yangi texnologiyani kiritish emas, balki ushbu yangiliklarning maqsadga muvofiq joriy etilishi va o‘quvchilarga moslashtirilgan holda qo‘llanilishini ham anglatadi. O‘qitish jarayonida o‘quvchi-talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo‘llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, mas’uliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga va o‘zi tanlangan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish amaliyotda o‘quv jarayonida innovasion va axborot texnologiyalarni qo‘llashni taqozo etadi.

Pedagogik mahoratni egallash vositalari o‘qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o‘mak bo‘lishi, shu bilan birga, pedagogik mahorat qirralarini namoyon eta olishi, yetuk o‘qituvchi sifatida barkamol insonni tarbiyalashga, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o‘zining

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

munosib hissasini qo‘shishi zarur. Yosh o‘qituvchilarning, shuningdek, ta’lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo‘lishlari o‘zlarini kasbiy jihatdan takomillashtirib borish yo‘lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga rivojlanib boradi.

Shaxsga ta’lim va tarbiya berishda nafaqat ta’lim oluvchiga ta’limning yo‘naltirilishi, balki o‘qituvchining pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligi muhimdir. Bunday hollarda o‘qituvchining kasbiy mahorat darajasiga alohida e’tibor qaratishni talab etadi. Ta’lim tizimida innovatsion yondoshuv ta’lim islohotlarining konseptual asoslari sifatida qabul qilinishi va joriy etilishi ta’lim maqsadi, mazmuni, o‘qitish shakli, o‘qitish usullari, pedagogik va axborot texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi rolida jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. O‘qituvchining kasbiy mahoratini tarkib toptirish uchun pedagogik oliy ta’limda tub o‘zgarishlarni amalga oshirib, bo‘lajak pedagoglarni nostandart yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish orqali ta’lim mazmunini yanada rivojlantirish lozim bo‘ladi.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida yoshlarning ta’lim-tarbiyasi eng ustuvor masalalardan hisoblanadi. Ta’limning samaradorligi va jozibasi shu jarayonda faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning ilmiy salohiyati, malakasi va mahorati bilan belgilanadi. Mahorat - muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san’atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui. Pedagogik mahorat - pedagog tomonidan kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san’atkorona tashkil etilishini ta’minlovchi bilim, ko‘nikma va malakalar majmui. O‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan, yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, tarbiyalash va o‘qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis deb ta’riflasak, o‘qituvchining pedagogik mahorati mazmunini shunday izohlash mumkin.

Respublikamimizda ta’limning moddiy texnik ta’minotini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida axborot-ta’lim muhitini yaratish, axborot resurslarini ishlab chiqish, ularni ta’lim jarayonida qo‘llash metodikalarini takomillashtirish, o‘quvchilar va o‘qituvchilarning jahon ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Shu o‘rinda har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etadi. Xo‘sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur. Ayni o‘rinda shu va shunga yondosh g‘oyalar yuzasidan so‘z yuritiladi. “Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish hisoblanadi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va hatti-harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, “kompetensiya” mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi: Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis: o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi; yangi axborotlarni o‘zlashtiradi; davr talablarini chuqur anglaydi; yangi bilimlarni izlab topadi; ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi. Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, Kompetentlik – bu faqatgina o‘zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi hamda salmoqli hajmi bo‘libgina qolmay, balki, ularni kerak vaqtda ishga sola bilish va o‘zining xizmat vazifalarini bajarish

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

jarayonida ulardan foydalana olish demakdir. Bu ma’noda kompetentlik insonning, shaxsning, kasb egasining tavsifi hisoblanadi, shu bilan birga, u shaxsning shaxsiy imkoniyatlarining yig‘indisi, uning o‘z kasbiy bilimlari va tajribalarini amaliy faoliyatida samarali ravishda qo‘llay olish qobiliyati hisoblanadi.

Kompetensiya o‘z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o‘z amaliy faoliyatida qo‘llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo‘lgan mutaxassis muammolarni yechishda o‘zi o‘zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va yo‘llardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo‘lgan metodlarni tanlab olib qo‘llashi, to‘g‘ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko‘z bilan qarashi kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Ilmiy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarni o‘zlashtirilgan axborotlarni o‘quv va hayotiy faoliyat turlarining standart va nostandart vaziyatlarida qo‘llay olishga tayyorlashi bilan xarakterlanadi. Shu nuqtai nazardan ta’lim sifati ko‘rsatkichlaridan biri kompetentlilik hisoblanadi. U faqatgina bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi bo‘libgina qolmay, o‘quvchilarning egallagan bilimlarini mobillashtirish va aniq vaziyatlarda tajribada qo‘llay olishi bilan tavsiflanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘qitishning asosiy mohiyati kasbga yo‘naltiruvchi fanlardan tashkil qilingan ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusi kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirish sanaladi. O‘quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zaruriy tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar uch darajaga ajratiladi: tayanch kompetensiyalar; umumiy kompetensiyalar; xususiy kompetensiyalar. O‘quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat o‘quv fani orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi. Ma’lumki, umumiy o‘rta ta’lim maktablari zimmasiga ta’lim-tarbiya jarayoni orqali o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalar, jumladan, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta’lim, umumta’lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish tamoyillari, ularning pedagogik tizim bo‘g‘inlaridagi o‘zgarishlarga ta’siri, psixologik va metodologik asoslari va xususiyatlari, mustaqil ravishda ta’lim natijalariga erishish konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv talqini, shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan, ijtimoiy va ma’lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Kompetensiya - bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo‘lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniqlab ham, baholab ham bo‘lmaydi. Malaka kompetentlikning muhim mezoni bo‘lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo‘llash natijasida namoyon bo‘ladi. "Kompetensiya" atamasi keng ma’noda umumiy masalalarni hal etishda amaliy tajribalar asosida bilim va malakalarni qo‘llash, muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatini bildiradi. Lotincha" campetere"- muvofiq bo‘lmoq so‘zidan kelib chiqqan. Keng ma’noda kompetensiya masalaning, shuningdek, muayyan bilim sohasining mohiyatini muvafaqqiyatli hal eishda amaliy tajribaga asoslanib, bilim va ko‘nikmalarni qo‘llay olish qobiliyatidir. Ta’limda kompetentlik bilan yondashuv o‘quvchilarni

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

turli ko‘nikmalarni egallash, kelajakda ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy hayotlarida samarali harakat qilishga yo‘naltiradi.

Amaliy kompetentlik - bilim mahsuli bo‘lib, amaliyotda qo‘llay bilish qobiliyati. Shuningdek, kompetensiya, bilimdan farqli, amaliy faoliyatsiz namoyan bo‘lmaydi va uni baholay olish mumkin emas. Kasbiy kompetentlik - kasbiy faoliyatga oid masalalarni hal etishda bilim va ko‘nikmalarni amaliy tajribada samarali qo‘llay olish qobiliyatidir. Hozirgi zamon maktab o‘qituvchisining kasbiy bilimdonligi va qobiliyati mezonlariga quyidagilar kiradi: ijtimoiy, uslubiy va ixtisoslik bilimdonligi hamda bilish, tushuntira olish, kuzatuvchanlik, nutq, tashkilotchilik, obro‘ orttira olish, to‘g‘ri muomala qila olish, kelajakni ko‘ra bilish va diqqatni taqsimlay olish qobiliyatlari.

Kompetentlikni shakllantirish bosqichma-bosqich va uzluksiz jarayondir. U oliy ta’lim muassasasida boshlanadi va ish joyida tajribali ustozlar nazorati ostida davom etadi. Shuni unutmaslik kerakki, yuqori kasbiy kompetentlik nafaqat bilim darajasi, balki xodimning amaliy ko‘nikmalari, tajribasi va shaxsiy fazilatlari hamdir.

Zamonaviy ta’lim tizimi yangi avlod pedagoglarini tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Innovatsion yondashuv nafaqat bilimlarni uzatish, balki shaxsning ijodkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Malakali pedagoglarni tarbiyalash jarayonining muvaffaqiyati sifatida ma’naviy-axloqiy sifatlarga ham e’tibor qaratish muhim sanaladi. Chunki yosh avlodni har jihatdan kamol toptirishda bu sifatlarning o‘rni beqiyosdir. Bo‘lajak pedagog, asosan, nutq madaniyatiga etibor qaratishi lozim. Uning nutq texnikasi mukammal, fikrlari teran va nutqi ravon, aniq va tushunarli bo‘lishi muhum. Chunki nutq va unda ifodalangan so‘z kishiga ta’sir etuvchi qudratli psixologik kuchga ega.

Har bir ta’lim oluvchining, shaxsiy qobiliyatlariga tayangan holda, intellektual salohiyatini hisobga olgan holda yondashiladigan bo‘sagina ta’limiy faoliyat o‘z maqsadiga erishadi. Bundan tashqari, pedagog tashkilotchilik qobilyatiga ham ega bo‘lishi, to‘g‘ri qaror qabul qilishni bilishi, diqqatni teng taqsimlash qobiliyatiga ega bo‘lishi, ta’limni bolaga moslashtira olishi, har bir bolaga uning menligini inobatga olgan holda individual yondasha olishi muhum sanaladi. Pedagog mahoratli bo‘lsagina ta’lim oluvchiga ijtimoiy ta’limiy muhitni yarata oladi, ta’limni aynan bolaga moslashtira oladi, uning kuchli va kuchsiz tomonlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonlarini tashkil eta oladi.

Bola shaxsini hurmat qilish, ta’lim jarayonida xolislilik, izchillik va tizimlilik, noan’anaviylik va kreativlik pedagogik jrayonni yaxshilashga xizmat qiladi. Bo‘lajak pedagog ham shaxsiy, kasbiy va maxsus kompetensiyalarga ega bo‘lmog‘i lozim. Pedagogning shaxsiy fazilatlari uning ta’lim berish va tarbiyalay olish mahoratiga ta’sir ko‘rsatadi. Bugungi kunda ta’limga "kompetensiyaviy yondashuv" yangi tadqiqot yo‘nalishi sifatida paydo bo‘ldi. Kompetensiya lotincha so‘z bo‘lib "compete" - kirishayapman, munosibman, loyiqman yoki bir sohadagi bilimlar, tajribalar ma’nolarini anglatadi. Demak, inson ma’lum sohani yaxlit biladigan, tajribaga ega bo‘lgan kabi ma’nolarni bildiradi. “Kompetentlik - bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, rahbarlik faoliyatiga singdirib boorish” demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Olimov, T. H. (2019). Spiritual and moral aspects of the formation of civil culture in future specialists of higher education. Theoretical & Applied Science, (12), 662-665.
2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. Pedagogical skill-Bukhara, 5.
3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. Pedagogical skill-Bukhara, 2.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent, 4.
5. Olimov, T. (2020). Bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxasislarda fuqarolik madaniyatini shakllantirishning ayrim yo‘nalishlari. FAN, TA’LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 1(1), 20-27.
6. Olimov, T. The role of national spirituality and values in the development of civil culture in future specialists with higher education.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Ramazonova Salomat Saidovna
Osiyo xalqaro universiteti doktoranti
Manzil: O’zbekiston, 200100, Buxoro shahri

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

O‘QITUVCHILARNING KREATIVLIK VA MUSTAQIL FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Boltayeva Shahribonu Ahmad qizi
Osiyo xalqaro universiteti doktaranti

Annotatsiya:

KIRISH. XXI asrda ta’lim jarayonida o‘qituvchining roli tubdan o‘zgarmoqda. Ilm-fan, texnologiya, axborot-kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi o‘qituvchidan faqat bilim beruvchi emas, balki talabalarning ijodkorligini qo‘llab-quvvatlovchi, mustaqil fikrlashga yo‘naltiruvchi shaxs bo‘lishni talab etmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ham pedagogik kadrlar tayyorlash va ularning kasbiy salohiyatini oshirish borasida bir qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Xususan, “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” degan g‘oya asosida o‘qituvchilarning kreativlik qobiliyatlari va mustaqil tafakkurini rivojlantirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

MAQSADI. Mazkur maqolaning maqsadi – zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning kreativlik va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari hamda amaliy usullarini ilmiy asosda tahlil qilish, pedagogik jarayonda samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va ularni ta’lim amaliyotida qo‘llash imkoniyatlarini yoritib berishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Maqola yozishda quyidagi metodlardan foydalanildi: Nazariy tahlil – kreativlik va mustaqil fikrlashga oid ilmiy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar o‘rganildi. Qiyosiy tahlil – rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida qo‘llaniladigan o‘qituvchilarni ijodkorlikka undash metodlari O‘zbekiston tajribasi bilan solishtirildi. Amaliy kuzatuv – maktab va oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning dars jarayonlari tahlil qilindi.

So‘rovnoma va suhbat – pedagoglarning kreativlik va mustaqil fikrlashga oid qarashlari, tajribalari o‘rganildi. Pedagogik tajriba – ayrim o‘quv muassasalarida kreativ metodlarni qo‘llash natijalari kuzatildi.

Kalit so‘zlar: kreativlik, mustaqil fikrlash, pedagogik innovatsiya, interfaol metodlar, muammoli ta’lim, o‘qituvchi mahorati, ijodkorlik, ta’lim samaradorligi.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА И САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧИТЕЛЕЙ

Болтаева Шахрибону Ахмадовна
Докторант Азиатского международного университета

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ. В XXI веке роль учителя в образовательном процессе кардинально меняется. Стремительное развитие науки, техники, информационно-коммуникационных

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

технологий требует от учителя быть не только носителем знаний, но и человеком, поддерживающим творческий потенциал учащихся и направляющим их к самостоятельному мышлению.

Сегодня в Республике Узбекистан реализуется ряд государственных программ по подготовке педагогических кадров и повышению их профессионального потенциала. В частности, актуальным остается вопрос развития творческих способностей и самостоятельного мышления учителей, основанный на идее «Новый Узбекистан начинается с порога школы, с системы образования».

ЦЕЛЬ. Целью данной статьи является научный анализ теоретических основ и практических методов развития креативности и самостоятельности мышления педагогов в современном образовательном процессе, разработка эффективных механизмов в педагогическом процессе и выявление возможностей их применения в образовательной практике.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: При написании статьи были использованы следующие методы: Теоретический анализ – изучена научная литература по креативности и самостоятельному мышлению, зарубежные и отечественные исследования. Сравнительный анализ – сопоставлены методы стимулирования креативности учителей, используемые в системе образования развитых стран, с опытом Узбекистана. Практическое наблюдение – проанализированы урочные процессы учителей, работающих в системе школьного и высшего образования. Анкетирование и интервью – изучены мнения и опыт учителей по вопросам креативности и самостоятельного мышления. Педагогический опыт – изучены результаты использования креативных методов в некоторых образовательных учреждениях.

Ключевые слова: креативность, самостоятельное мышление, педагогические инновации, интерактивные методы, проблемное обучение, навыки учителя, креативность, эффективность образования.

METHODS OF DEVELOPING TEACHERS' CREATIVITY AND INDEPENDENT THINKING SKILLS

Boltayeva Shahribonu Ahmad qizi
Doctoral student at Asian International University

Annotation.

INTRODUCTION. In the 21st century, the role of the teacher in the educational process is changing radically. The rapid development of science, technology, information and communication technologies requires the teacher to be not only a provider of knowledge, but also a person who supports the creativity of students and directs them to independent thinking.

Имитационные упражнения с акцентировано-быстрым выполнением какого-то отдельного движения. Быстрые перемещения, характерные для волейбола, баскетбола и др., с последующей имитацией или выполнением технического приема. Различные сочетания имитационных упражнений, выполняемых в разной последовательности, способствует развитию такого вида быстроты, как быстрота переключения с одних действий на другие. Для развития всех форм быстроты необходимо руководствоваться следующими положениями: Если основная задача занятия развитие быстроты, то ее следует решить непосредственно после разминки. Развивать способность к произвольному (сознательному) расслаблению мышц. Начинать развитие быстроты следует с выполнения упражнений равномерным методом, со средней интенсивностью: как только развивается способность контроля за движениями, применять метод переменных и повторно-переменных упражнений; наибольшая скорость (интенсивность) движений на этой стадии – 80-85 % от максимальных возможностей.

Известно, что потенциальные возможности нервно-мышечной системы в быстроте движений значительно выше, чем принято считать. Свидетельство этому – выполнение в облегченных условиях движений с большой быстротой в условиях, способствующих увеличению темпа и импульсивности (например, бег по наклонной дорожке, плавание за лидером, метание облегченных снарядов, уменьшение размеров площадки в спортивных играх и др.).

Большинство упражнений, применяемых для развития быстроты, предъявляет высокие требования к работе внутренних органов. Поэтому их могут применять только молодые, здоровые и хорошо тренированные люди. При построении тренировки нужно учитывать, что скоростная работа очень интенсивна и требует большого расхода энергии. Одновременно с развитием быстроты необходимо упражняться в совершенствовании техники избранного вида спорта.

Список использованной литературы:

1. Попов В.А.Методическое пособие: «Развитие физических качеств метателя копья» 2015 год.

2. “Методически рекомендации для педагогов - наставников по работе с молодыми специалистами”. Учебное пособие 2019 год.

3. R.S. Baymuradov, Ya.Z.Fayziev “Development of a physically healthy generation” WEB OF SCIENTIST : INTERNATIONAL SCIENTIST RESEARCH JOURNAL ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 1, Jan., 2022

4.Р.С.Баймурадов “Роль психического здоровья в развитии творческого потенциала” Вестник интегративной психологии // Журнал для психологов. Вып. 26. /Под ред. В.В.Козлова, Ш.Р. Баратова, М.Н. Усмановой. – Бухара-Ярославль: МАПН, 2022. 28-31 стр.

5.Р.С.Баймурадов, М.Бахшуллаева,З.Бобоева “Особенности спортивной мотивации у спортсменов с ограниченными возможностями здоровья” Вестник интегративной психологии // Журнал для психологов. Вып. 26. /Под ред. В.В.Козлова, Ш.Р. Баратова, М.Н. Усмановой. – Бухара-Ярославль: МАПН, 2022. 25-38 стр.

6. М. М. Тураев, Р. С. Баймурадов, Я. З. Файзиев “Интерактивные методы физического воспитания в вузах” стр. 132, Педагогическое образование и наука 2020 год, №3.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

7.Р.С.Баймурадов, Н.Насимова “Индивидуальная работа гарантия успеха деятельности учителя”. Педагогик акмеология. Халқаро илмий-методик журнал 1(9) 2024 йил 73-80 бет.

8. И.И.Бурнашев “Применение системного подхода преподования спортивно-педагогических дисциплин в процессе подготовки специалистов физической культуры”. Тезисы научно-практической конференции.2002 год.

9.И.И.Бурнашев, Т.Ибатулин “Анализ соревновательной деятелности юных баскетболистов различных игровых функций” Тезисы научно-практической конференции. 2010 год.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

BO‘LAJAK CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK FANI O‘QITUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK MUAMMOLARI

Nazarov Jamshid Xoliyorovich
Termiz davlat universiteti

Annotatsiya.

KIRISH: Kreativlik XXI asrning eng muhim ko‘nikmalaridan biri hisoblanadi. Chunki biz tez o‘zgaruvchan va oldindan aytib bo‘lmaydigan davrda yashayapmiz. Mazkur talab, ayniqsa, bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida alohida dolzarblik kasb etadi. Zero, ushbu yo‘nalishdagi pedagoglarning vazifasi nafaqat ta’lim oluvchilarga harbiy-amaliy bilimlarni yetkazish, balki ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda nostandart vaziyatlarda samarali yo‘l tutishga o‘rgatishdan iboratdir.

MAQSAD: Bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik muammolarini ilmiy tahlil qilish

MATERIALLAR VA METODLAR: Bugungi kunda, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Chunki kreativlik pedagogik jarayonning samaradorligini oshiruvchi asosiy omil bo‘lib, u o‘quvchilarda yangicha fikrlash, nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, ijodiy tashabbus ko‘rsatish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani nafaqat harbiy-amaliy bilimlarni o‘rgatish, balki yoshlarni mustaqil fikrlash va ijodkorlikka yo‘naltirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

XULOSA: Kreativlik XXI asrning eng muhim ko‘nikmalaridan biri hisoblanadi. Chunki biz tez o‘zgaruvchan va oldindan aytib bo‘lmaydigan davrda yashayapmiz. Mazkur talab, ayniqsa, bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida alohida dolzarblik kasb etadi. Zero, ushbu yo‘nalishdagi pedagoglarning vazifasi nafaqat ta’lim oluvchilarga harbiy-amaliy bilimlarni yetkazish, balki ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish hamda nostandart vaziyatlarda samarali yo‘l tutishga o‘rgatishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: kreativlik, bo‘lajak pedagog, kasbiy faoliyat, kreativ jarayon bosqichlari, kognitiv fanlar, kreativ qobiliyat, psixoanaliz maktabi, pedagogik tafakkur.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ДОПРИЗЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Назаров Джамшид Холиёрович
Термезский государственный университет

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ: Креативность – один из важнейших навыков XXI века. Мы живём в быстро меняющуюся и непредсказуемую эпоху. Это требование особенно актуально в процессе подготовки учителей предметов начальной школы к предстоящему призыву. Ведь задача педагогов в этой области – не только донести до студентов военно-практические

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

знания, но и развить их творческое мышление, сформировать навыки самостоятельного принятия решений и научить эффективно действовать в нестандартных ситуациях.

ЦЕЛЬ: Научный анализ теоретико-методических проблем развития творческих способностей учителей предметов начальной школы к предстоящему призыву.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Сегодня проблема развития творческих способностей учителей предметов начальной школы к предстоящему призыву признана одним из важнейших направлений современной системы образования. Поскольку креативность является основным фактором повышения эффективности педагогического процесса, она способствует формированию у студентов умения мыслить по-новому, принимать правильные решения в нестандартных ситуациях, проявлять творческую инициативу. В этой связи предмет начальной подготовки к призыву рассматривается не только как способ обучения военно-практическим знаниям, но и как эффективное средство развития у молодежи самостоятельного мышления и творческого подхода.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Креативность – один из важнейших навыков XXI века. Мы живем в быстро меняющуюся и непредсказуемую эпоху. Это требование особенно актуально в процессе подготовки преподавателей предмета начальной подготовки к призыву. Ведь задача педагогов этого направления – не только донести военно-практические знания до студентов, но и развить их творческое мышление, сформировать навыки самостоятельного принятия решений и научить эффективно действовать в нестандартных ситуациях.

Ключевые слова: креативность, будущий учитель, профессиональная деятельность, этапы творческого процесса, когнитивные науки, творческие способности, психоаналитическая школа, педагогическое мышление.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL PROBLEMS OF DEVELOPING CREATIVE ABILITIES OF FUTURE TEACHERS OF PRE-CONSCRIPTION EDUCATION

Nazarov Jamshid Kholiyorovich
Termez State University

Annatation.

INTRODUCTION: Creativity is one of the most important skills of the 21st century. Because we live in a rapidly changing and unpredictable era. This requirement is especially relevant in the process of training teachers of primary training subjects before the upcoming conscription. After all, the task of educators in this area is not only to convey military-practical knowledge to students, but also to develop their creative thinking, form independent decision-making skills, and teach them to behave effectively in non-standard situations.

THE GOAL: Scientific analysis of the theoretical and methodological problems of developing the creative abilities of teachers of primary training subjects before the upcoming conscription

MATERIALS AND METHODS: Today, the issue of developing the creative abilities of teachers of primary training subjects before the conscription is recognized as one of the most important areas of the modern education system. Because creativity is the main factor that increases the effectiveness of the pedagogical process, it serves to form in students the ability to think in a new way, make the right decisions in non-standard situations, and show creative initiative. In this regard, the subject of initial training before the draft is considered not only to teach military-practical knowledge, but also as an effective means of directing young people to independent thinking and creativity.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

CONCLUSION: Creativity is one of the most important skills of the 21st century. Because we live in a rapidly changing and unpredictable era. This requirement is especially relevant in the process of training teachers of the subject of initial training before the upcoming draft. After all, the task of educators in this direction is not only to convey military-practical knowledge to students, but also to develop their creative thinking, form independent decision-making skills, and teach them to behave effectively in non-standard situations.

Keywords: creativity, future teacher, professional activity, stages of the creative process, cognitive sciences, creative ability, psychoanalytic school, pedagogical thinking.

Jamiyatimiz kelajagi, avvalo, ta’lim-tarbiya sohasida olib boriladigan islohotlarning qanchalik muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga bog‘liqdir. Bu jarayonda chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirish, ularning kasbiy salohiyatini zamon talablariga mos darajada shakllantirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Shunday ekan, bo‘lajak mutaxassislarni raqobatbardosh qilib tayyorlash nafaqat ta’lim tizimining rivojlanishiga, balki mamlakatimiz mudofaa salohiyatini mustahkamlash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga ham bevosita xizmat qiladi.

Bugungi kunda, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Chunki kreativlik pedagogik jarayonning samaradorligini oshiruvchi asosiy omil bo‘lib, u o‘quvchilarda yangicha fikrlash, nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, ijodiy tashabbus ko‘rsatish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani nafaqat harbiy-amaliy bilimlarni o‘rgatish, balki yoshlarni mustaqil fikrlash va ijodkorlikka yo‘naltirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Yuqoridagi fikrlardan shuni tushunishimiz mumkinki, kreativlik faqat san’at yoki madaniyat bilan chegaralanmaydi. Sternberg ta’kidlaganidek, kreativlik “keng qamrovli mavzu” sifatida tan olingan bo‘lib, u siyosat, iqtisod, texnologiya va ilmiy tadqiqotlar kabi ko‘plab sohalarda namoyon bo‘ladi[17]. So‘nggi yillarda ayniqsa ta’lim sohasi kreativlikni chuqur o‘rganishga katta e’tibor qaratmoqda[18]. Yuqoridagi tadqiqotchilarning fikrlaridan ko‘rishimiz mumkinki, kreativlik ta’lim sohasida ham alohida ahamiyat kasb etib, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarga noodatiy yechim topish hamda yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Pedagog uchun esa kreativ yondashuv dars jarayonini zamonaviylashtirish, uni turli sharoit va vaziyatlarga moslab tashkil etish imkoniyatini beradi. Shu boisdan, fikrimizcha bo‘lajak chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish ularning kasbiy mahorati va kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tarixiy nuqtai nazardan qaralganda, qadimiy madaniyatlarda kreativlik tushunchasi mavjud emas edi. Masalan, Qadimgi Yunoniston, Xitoy va Hindistonda ijod jarayoni “yaratish” emas, balki “kashf etish” shakli sifatida qaralgan[19]. Yahudiy-xristian-islom an’analarida esa kreativlik faqat ilohiy sifat deb talqin qilinib, inson faoliyati Xudoning ishini ifoda etishi sifatida baholangan. Kreativlikning zamonaviy tushunchasi esa Uyg‘onish davrida shakllanib, inson tafakkuri, shaxsiy imkoniyatlari va gumanistik qadriyatlarni yuksak qo‘yishga asoslangan[20].

[17] Sternberg, R. J. (2012). The Assessment of Creativity: An InvestmentBased Approach. Creativity Research Journal, 24(1), 3–12. https://doi.org/10.1080/10400419.2012.652925

[18] Cimermanova, I. (2015). Creativity in EFL Teacher Training and Its Transfer to Language Teaching. Procedia - Social and Behavioral Sciences, 197, 1969–1975.https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2015.07.562

[19] Tatarkiewicz, W. (1980). A History of Six Ideas: An Essay in Aesthetics. Springer.

[20] Weiner, R. P. (2000). Creativity & Beyond: Cultures, Values, and Change. SUNY Press.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Hozirgi davrda “kreativlik” tushunchasi yanada keng ma’noga ega bo‘lib, u pedagogika, psixologiya, biznes, kognitiv fanlar, ta’lim hamda gumanitar yo‘nalishlarda atroflicha tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, ta’lim jarayonida kreativlik o‘quvchi va talabalarni mustaqil fikrlashga, noodatiy yechimlarni topishga hamda yangi bilimlarni samarali o‘zlashtirishga undovchi asosiy omil sifatida talqin qilinadi. Shu sababli, kelajakda chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilarida kreativ qobiliyatni rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi.

Kreativlik tushunchasi ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turlicha izohlangan. J. P. Guilford kreativlikni intellektning o‘ziga xos shakli, xususan “divergent thinking” (tarkiblanmagan, kengaytirilgan fikrlash) bilan bog‘liq deb baholagan. U ijodiy jarayonni muammoni turli yo‘llar bilan hal qilishga bo‘lgan qobiliyat orqali aniqlaydi[21]. U “kreativlik — ta’limning eng keng qamrovli ma’nodagi asosi va insoniyatning eng jiddiy muammolarini hal qilish kalitidir[22]”, deya qayd etadi. Torranse esa kreativlikni (ijodiy fikrlashni) yangilik yaratish, muammolarga noodatiy yechim topish va o‘ziga xos qarashlar shakllantirish qobiliyati deb ta’riflaydi[23]. Shu bilan birgalikda u tomonidan ishlab chiqilgan Torrance kreativ fikrlash testlari (TTCT) bugungi kunda butun dunyoda o‘quvchilarning ijodkorlik salohiyatini baholashda keng qo‘llanilmoqda.

V.F. Vishnyakov tadqiqotlarida inson tafakkuri va mashina “tafakkuri” o‘rtasidagi farqlar alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Olimning ta’kidlashicha, mashina faqat model va belgilar orqali ishlash qobiliyatiga ega bo‘lsa, insonning ijodiy tafakkuri esa muammoni hal qilishda aql va intellektual resurslarga tayangan holda namoyon bo‘ladi[24]. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, kreativlik insonning qobiliyatlari bilan uyg‘unlikda amalga oshadi shu bilan birgalikda shaxsning rivojlanishiga ko‘ra turli xil shakllarda namoyon bo‘ladi.

YA.A. Ponomarev esa kreativlikni o‘rganishda to‘rt asosiy yondashuvni ajratadi:

–kreativlik natija sifatida;

–kreativlik qobiliyat sifatida;

– kreativlik jarayon sifatida;

–shaxsning individual xususiyati sifatida[25].

Fikrimizcha bu tasnif ijodiy tafakkurning hamma bosqichlarini o‘z ichiga oladi va uning samaradorligiga mumtazam ta’sir etib turishini ko‘rsatadi. Mazkur tasnif kreativlikning ko‘p qirrali jarayon ekanligini ilmiy isbotlashda zarur hisoblanadi.

Kreativlik sohasida tadqiqot olib borgan M. Fersom, K. Teylor, D. Teylor va boshqa olimlar ijodiy mahsulotni baholashda uch mezonni belgilashadi: miqdor, sifat va ahamiyat[26]. Ularning tadqiqotlari kreativlikni faqatgina natija bilan hisoblamasligni, balki uning mazmuniy va ijtimoiy qiymati ham zarurligini namoyon qiladi. Shuningdek, ko‘plab boshqa tadqiqotchilar natijani ijodning yagona mezoni sifatida qabul qilishni shubha ostiga olishgan, chunki ijodiy mahsulotning ko‘plab ta’riflari faqat ayrim jihatlarigina kreativlik bilan bevosita aloqador bo‘lib chiqadi.

Kreativlikni tahlil qilishda esa uning bosqichlari va darajalari alohida e’tirof etiladi. Masalan, E.E. Tunik kreativlikni to‘rt bosqichga ajratadi:

–vaziyatga tayyorlanish;

---

[21] Guilford, J.P. (1967). The nature of human intelligence. New York: McGraw-Hill.

[22] Guilford, J. P. (1967). Creativity: Yesterday, Today and Tomorrow. The Journal of Creative Behavior,

1(1), 3–14. https://doi.org/10.1002/j.2162-6057.1967.tb00002.x

[23] Torrance, E. P. (1980). Growing Up Creatively Gifted: The 22-Year Longitudinal Study. The Creative Child and Adult Quarterly, 3, 148-158.

[24] Вишняков, В. Ф. Проблемы творчества и искусственного интеллекта. – М.: Наука, 1989. – 210 с.

[25] Пономарёв, Я. А. Психология творчества. – М.: Наука, 1976. – 304 с.

[26] Fersom, M., Taylor, C., Taylor, D. Creative productivity and measurement in education. – New York: Academic Press, 1985. – 215 p.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

– kognitiv va motivatsion jihatlarni shakllantirish;
–ruhiy ilhomlanish;
–natijani tekshirish[27].

Ushbu bosqichlar ilmiy adabiyotlarda kreativlikning qanday ishlashini izohlashda muhim model sifatida qaraladi.

Shuningdek, Grem Uolles kreativlikni to‘rt bosqichga ajratgan bo‘lib, ular tayyorgarlik, inkubatsiya, ilhomlanish va tasdiqlashdan iboratdir (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Grem Uollesning kreativ jarayon bosqichlari klassifikatsiyasi

Bosqich	Mazmuni	Natijasi
Tayyorgarlik (Preparation)	Muammoni chuqur tushunish, kerakli ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish jarayoni.	Muammoni hal qilish uchun zarur bilim va resurslar jamlanadi.
Inkubatsiya (Incubation)	Ong osti darajasida muammoni qayta ishlash, bevosita faol fikrlashdan vaqtincha chekinish.	Muammo yashirin tarzda ongda qayta ishlanadi, yangi assotsiatsiyalar paydo bo‘ladi.
Ilhomlanish (Illumination)	Kutilmagan tarzda yangi g‘oya yoki yechimning paydo bo‘lishi (“aha!” lahzasi).	Muammoni hal qilish uchun original g‘oya yuzaga keladi.
Tasdiqlash (Verification)	Yangi g‘oyani sinovdan o‘tkazish, uni tekshirish va mukammallashtirish.	Yechimning amaliy ahamiyati va samaradorligi aniqlanadi.

G. Uolles tomonidan ishlab chiqilgan ijodiy jarayonning to‘rt bosqichli modeli kreativlik nazariyalarining klassik asoslaridan biri sifatida ilmiy adabiyotlarda keng e’tirof etilgan. Uolles ijodkorlikni tasodifiy ilhom jarayoni emas, balki izchil va bosqichma-bosqich kechadigan kognitiv faoliyat sifatida talqin qiladi. Model quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi: tayyorgarlik**,** inkubatsiya**,** ilhomlanish **va** tekshirish**.**

• Tayyorgarlik bosqichi muammoni anglash, ma’lumotlarni yig‘ish, mavjud tajribalarni o‘rganish hamda dastlabki yo‘nalishlarni belgilash jarayonidan iborat. Bu bosqichda shaxsning bilim va intellektual salohiyati faol ishlatiladi.

• Inkubatsiya bosqichi ijodiy jarayonning eng murakkab qismlaridan biri bo‘lib, bunda ong osti faoliyati yetakchi o‘rin egallaydi. Uolles fikricha, inson muammoni vaqtincha unutgandek tuyulsa-da, ong ostida izlanish jarayoni davom etadi va yangi g‘oyalarning shakllanishiga zamin yaratadi.

• Ilhomlanish bosqichi (“Aha!” lahzasi) kutilmagan holda yuzaga keladigan yangi g‘oya yoki noodatiy yechim bilan xarakterlanadi. Psixologik tadqiqotlarda bu bosqich tafakkurdagi to‘satdan yuz beradigan siljish sifatida izohlanadi.

• Tekshirish bosqichi esa yaratilgan g‘oyani sinovdan o‘tkazish, uni mantiqan asoslash, amaliy jihatdan qo‘llash imkoniyatlarini aniqlash jarayonini o‘z ichiga oladi. Shu bosqichda kreativ mahsulotning real qiymati va foydaliligi baholanadi[28].

Mazkur modelning ilmiy ahamiyati shundaki, u ijodiy jarayonni dinamik, bosqichli va murakkab tizim sifatida ochib beradi. Uolles nazariyasi keyingi ko‘plab izlanishlarga, jumladan, J. Gilfordning divergent tafakkur haqidagi konsepsiyasi va Y.A. Ponomaryovning kreativlikni

[27] Туник, Е. Е. Креативность как психологический феномен. – СПб.: Питер, 2003. – 192 с.
[28] Wallas, G. The Art of Thought. – London: Cape, 1926. – 248 p.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

natija, qobiliyat, jarayon va shaxsiy xususiyat sifatida tasniflash yondashuviga metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan[29].

Shuningdek, Uollesning “inkubatsiya” bosqichi ko‘plab zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Masalan, Z. Freyd ijodiy aktni libidoning sublimatsiyasi sifatida talqin qilgan bo‘lsa, keyinchalik D. Simonton va boshqa kognitiv psixologlar inkubatsiyani ong osti faoliyatining ijodiy mahsuldorlikka ta’siri bilan bog‘lashgan. Bu esa kreativ jarayonni nafaqat ongli izlanish, balki psixologik va neyrobiologik mexanizmlar bilan izohlash imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, olimning modeli kreativlikni faqatgina yakuniy natija yoki individual qobiliyat sifatida emas, balki inson tafakkurining kompleks, bosqichli jarayoni sifatida yoritadi. Shu jihatdan, u zamonaviy ta’lim va pedagogik tadqiqotlarda o‘qituvchilarning kreativ kompetensiyalarini shakllantirishda ham muhim nazariy asos hisoblanadi.

Psixoanaliz maktabi vakillari kreativlikni inson ruhiy jarayonlari bilan bog‘lab tahlil qilgan. Ularning fikricha, ijodiy faoliyat insonning ichki psixik energiyasini (libido) ma’lum maqsadlar yo‘naltirish orqali yuzaga chiqadi. Z. Freyd ijodiy aktni aynan shu libido energiyasining sublimatsiyasi natijasi sifatida talqin etadi. Sublimatsiya — bu shaxsning ichki instinktiv energiyasini ijtimoiy qabul qilinadigan va estetik jihatdan qadrlanadigan faoliyatga yo‘naltirish jarayoni. Masalan, shaxs o‘z ichki intilishlarini san’at, ilmiy tadqiqot yoki ijodiy yozuv orqali namoyon qilishi mumkin[30],[31].

Freyd nazariyasiga ko‘ra, ijodkor shaxsning ruhiyati sog‘lom bo‘lsa, u ichki kuchlarini ijtimoiy foydali va yangi g‘oyalar yaratishga yo‘naltira oladi. Shu bilan birga, kreativlik faqat intellektual qobiliyat bilan chegaralanmaydi, balki shaxsning ruhiy holati, motivatsiyasi va ichki energiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Psixoanalitik yondashuv, shuningdek, ijodiy jarayonning chuqur psixologik sabablarini tahlil qilishga imkon beradi, ya’ni kreativ tafakkur insonning ichki istaklari, ehtiroslari va ong osti tajribalari bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi[32].

Psixoanaliz maktabi vakillaridan yana bittasi M. Mednikning nazariy yondashuvi kreativlikni tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Unga ko‘ra, ijodiy fikrlash jarayoni inson tafakkurida mavjud bo‘lgan turli assotsiativ elementlarni qayta tashkil qilish va ulardan yangi kombinatsiyalar yaratishga asoslanadi. Mednik ishlab chiqqan “Uzoqlashtirilgan assotsiatsiyalar testi” (Remote Associates Test – RAT) kreativlikni o‘lchashning eng mashhur usullaridan biri hisoblanadi. Bu testda ishtirokchiga bir-biri bilan bevosita bog‘lanmagan uchta so‘z taqdim etiladi va u ushbu so‘zlarni birlashtiruvchi to‘rtinchi so‘zni topishi kerak bo‘ladi. Masalan, “daryo – qog‘oz – qora” so‘zlariga mos keluvchi javob “siyoh” bo‘lishi mumkin[33].

Mednikning fikricha, kreativlik jarayoni ikki asosiy komponentdan iborat:

1. Assotsiativ maydonning kengligi – insonning ongida mavjud bo‘lgan assotsiatsiyalar soni va xilma-xilligi.
2. Ularni qayta kombinatsiyalash qobiliyati – uzoqdagi, odatda bog‘lanmagan elementlarni bir butun, yangi va mazmunli g‘oyaga aylantirish qobiliyati[34].

Shu nuqtai nazardan, kreativ tafakkur — bu yangi kombinatsiyalar yaratish orqali muammolarga noodatiy va samarali yechim topish jarayonidir. “Uzoqlashtirilgan assotsiatsiyalar testi” aynan shu qobiliyatni baholashga xizmat qiladi. Mednikning konsepsiyasi ijodkorlikni

[29] Yandasheva, G. S. Creative pedagogy as a priority of modern pedagogy // International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities. – Livorno, Italy, March 17–18, 2022. – P. 173. – Available at: https://econferencezone.org
[30] Yandasheva, G. S. Creative pedagogy as a priority of modern pedagogy // International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities. – Livorno, Italy, March 17–18, 2022. – P. 173. – Available at: https://econferencezone.org
[31] Freud, S. Creative Writers and Day-Dreaming // The Standard Edition of the Complete Psychological Works of Sigmund Freud. – London: Hogarth Press, 1959. – Vol. 9. – P. 141–154.
[32] Yandasheva, G. S. Creative pedagogy as a priority of modern pedagogy // International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities. – Livorno, Italy, March 17–18, 2022. – P. 173. – Available at: https://econferencezone.org
[33] Медник, С. Теория ассоциативных элементов и креативность // Psychological Review. – 1962. – Vol. 69 (3). – P. 220–232.
[34] Медник, С. Теория ассоциативных элементов и креативность // Psychological Review. – 1962. – Vol. 69 (3). – P. 220–232.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

nafaqat shaxsiy iste'dod, balki ma'lum kognitiv jarayonlar mahsuli sifatida talqin etishga imkon beradi. Bu yondashuv kreativlikni psixologiyada o'rganishga keng yo'l ochgan va keyingi tadqiqotlar, jumladan, divergent fikrlash, intuitiv qaror qabul qilish va metaforik tafakkurni tahlil qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilgan.

Kreativlikni qobiliyat sifatida talqin qilgan olimlar ham mavjud. Masalan, Simpsonning fikricha, kreativlik — bu insonning mavjud fikrlash stereotiplarini rad etib, yangicha yo'llarni topa olish qobiliyatidir[35]. Fikrimizcha, bu yondashuv kreativlikni intellektual moslashuvchanlik va noodatiy fikrlash qobiliyati bilan bog'laydi.

T.V. Gal'kina o'z tadqiqotlarida Dj. Guilfordning intellekt modeli asosida kreativlikni izohlaydi va kreativlikni qobilyat sifatida talqin etadi. Guilford nazariyasiga ko'ra, ijodiy shaxsning tafakkur jarayonlari turli kognitiv operatsiyalardan tashkil topgan bo'lib, ular insonning noodatiy yechim topish qobiliyatini belgilaydi. Shu asosda Gal'kina kreativ shaxsga xos bo'lgan to'rt muhim xususiyatni ajratib ko'rsatadi:

1. Originallik – bu shaxsning noodatiy, ilgari kuzatilmagan, odatiy fikrlardan farq qiluvchi javoblarni ishlab chiqish qobiliyatidir. Masalan, biror masalaga boshqa odamlar takrorlaydigan an'anaviy javoblardan farqli yechim taklif qilish.
2. Semantik egiluvchanlik – ob'ekt yoki hodisaga yangi funksional vazifalar yuklash va uni yangicha qo'llash imkoniyatini topish qobiliyati. Masalan, kundalik hayotda ishlatiladigan oddiy narsani boshqa maqsadda foydalana olish.
3. Ifodali moslashtirilgan egiluvchanlik – vaziyatni yoki muammoni o'zgartirish orqali yangi imkoniyatlarni ilg'ash qobiliyati. Bu xususiyat shaxsga mavjud sharoitni ijodiy qayta tashkil etish imkonini beradi.
4. Semantik spontan egiluvchanlik – cheklangan sharoitlarda ham turli xil g'oyalarni tezkorlik bilan ishlab chiqish qobiliyati. Bu, asosan, vaziyatga tez moslashish, noodatiy yechimlarni qisqa vaqt ichida topish bilan bog'liqdir[36].

Gal'kina ta'kidlashicha, ushbu xususiyatlar o'zaro uyg'unlashib, shaxsning kreativ tafakkurini shakllantiradi va ijodiy jarayon samaradorligini ta'minlaydi. Demak, kreativlik nafaqat shaxsning umumiy intellekt darajasi bilan, balki uning tafakkur jarayonlaridagi egiluvchanlik va originallik kabi sifatlari bilan ham chambarchas bog'liqdir (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Dj. Guilford intellekt modeli asosida kreativlik xususiyatlari (T.V. Gal'kina talqinida)

Kreativlik xususiyati	Mazmuni	Amaliy misol
Semantik egiluvchanlik	Ob'ekt yoki hodisaga yangi funksiyalarni yuklash, uni yangicha qo'llash	Oddiy buyumni boshqa maqsadda ishlatish
Ifodali moslashtirilgan egiluvchanlik	Vaziyat va sharoitlarni o'zgartirish orqali yangi imkoniyatlarni ilg'ash	Muammoni turlicha sharoitda qayta tashkil etish
Semantik spontan egiluvchanlik	Cheklangan sharoitda ham turli xil g'oyalarni tez ishlab chiqish qobiliyati	Qisqa vaqt ichida noodatiy fikrlar yaratish
Semantik egiluvchanlik	Obyekt yoki hodisaga yangi funksiyalarni yuklash, uni yangicha qo'llash	Oddiy buyumni boshqa maqsadda ishlatish

[35] Симпсон, Б. Creativity and Divergent Thinking. – London: Routledge, 1990. – 176 p.
[36] Yandasheva, G. S. Creative pedagogy as a priority of modern pedagogy // International Conference on Developments in Education, Sciences and Humanities. – Livorno, Italy, March 17–18, 2022. – P. 173. – Available at: https://econferencezone.org

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Jadvalda keltirilgan xususiyatlar Dj. Guilfordning intellekt modeli asosida T.V. Gal'kina tomonidan izohlangan kreativlikning asosiy ko'rinishlarini ifodalaydi. Ushbu tasnif shaxsning ijodiy faoliyati qanday jarayonlar orqali shakllanishini ko'rsatib, kreativlikni faqat intellekt darajasi emas, balki tafakkurning egiluvchanligi va originalligi bilan bog'liq murakkab fenomen sifatida talqin etishga imkon beradi.

Zamonaviy tadqiqotchilardan K. Rogers kreativlikni insonning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish jarayoni sifatida izohlab, uni shaxsning erkinligi va psixologik xavfsizligi bilan bog'liq deb hisoblaydi[37]. Xuddi shuningdek, X. Gardnerning "Ko'p qirrali intellekt nazariyasi"da ham kreativlik inson intellektining ajralmas jihati sifatida talqin etilib, o'qituvchilarni ijodiy fikrlashga yo'naltirish ta'lim samaradorligini oshirishi qayd etilgan[38].

O'zbek olimlari orasida ham pedagogik tafakkur va kreativlik masalalariga bir qator olimlar alohida e'tibor qaratganlardan. Jumladan A. Begmatov, A. Egamberdiyev, A. Muxtarov, B. Umarov, G. Tulenova, I. Saifnazarov, K. Tulenova, N. Nazarov, N. Shermuhamedova, N. Xakimov, O. Fayzullaev, Q. Qodirova, R. Qurbanov, S. Choriyev, S. Mamashokirov, U. Bekpo'latov, Z. Davronov, A. Azizqulov kabi olimlarimiz tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ochib berilgan. Xususan A. Azizqulov kreativlikni ijodiy faoliyat sifatida tahlil qilib, "Ijod insonning yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishga qaratilgan murakkab ruhiy-ma'naviy faoliyatidir. Inson tomonidan tabiiy borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish faoliyati faqat ijodiy yondashuv natijasida sodir bo'ladi. Aynan ijodkorlik faoliyati orqali inson tabiatdan ajralib chiqdi va uni o'ziga bo'ysundirdi[39]", – deb ta'kidlaydi.

Musinova kreativlikni tahlil qilib "Har qanday shaxsning aqliy taraqqiyoti darajasi ilmiy yoki (bugungi kunda fan bilan uzviy bog'liq bo'lgan) texnikaviy bilimi, ijodiy, kreativ fikr yurita olishi bilan belgilanadi. Inson nafaqat tashqi muhitda, balki o'zida ham o'zgarish yasaydi. Uning uchun ham fan va texnika jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy munosabatlar yangilanayotgan hozirgi zamonda yoshlarni kreativ faoliyat, ijodga o'rgatish, ijodiy qobiliyatli shaxslarni shakllantirish masalalari, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi[40]", – deydi..

Shu jumladan Ernazarova va Isroilovlar o'z tadqiqotlarida bo'lajak tarix o'qituvchilarida kreativlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini tahlil qilganlar. Shu bilan birga ular ta'kidlashicha, zamonaviy pedagogik jarayonda o'qituvchining ijodiy salohiyati va talabalarning kreativ fikrlash qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Kreativlikni shakllantirish jarayonida evristik va interfaol usullar, muammoli vaziyatlar, guruhli va loyiha asosidagi mashg'ulotlar keng qo'llanilishi tavsiya etiladi. Shuningdek, ular tadqiqotlarida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish va o'z fikrini erkin ifodalash imkoniyatlarini yaratish pedagogik jarayonning ajralmas qismi ekanligi qayd etilgan. Ular "O'quvchilarda ijodiy yondashuvni shakllantirish orqali

[37] Rogers, C. (1954). Toward a Theory of Creativity. ETC: A Review of General Semantics, 11(4), 249–260.
[38] Gardner, H. (1983). Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. New York: Basic Books.
[39] Азизқулов А.А. Илмий ижодиётида рационаллик ва норационаллик: концептуал таҳлилий ёндашувлар: Дис. Фал. фан. ном.; ЎзР Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Алишер Навоий номидаги Самарқанд Давлат ун-ти. – Самарқанд, 2007. – Б. 146

[40] Мусинова Р.Ю. Талабалар тафаккурида ижодийлик ва креативликни шакллантириш муаммоси // Замонавий таълим/ Современное образование 2019, 3(76). –Б. 10

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyatlari mustahkamlanishini[41]", – ta'kidlaydilar.

Begmatov, Aliyeva va Abdushukurovlarning ta'kidlashicha, "rahbarlik va yangicha tafakkur tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, har bir shaxsning kreativ salohiyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Mualliflar ijodiy yondashuvni faqat san'at yoki ilm-fan bilan cheklab qo'ymasdan, rahbarlik faoliyati va pedagogik jarayonlarda ham keng qo'llash mumkinligini ko'rsatadilar. Kreativ fikrlash shaxsning muammoli vaziyatlarni innovatsion tarzda hal qilish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va faol qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshiradi" [42]. Shuningdek, ular ijodiy salohiyatni shakllantirishning asosiy shartlari sifatida "mustaqil fikrlashni rag'batlantirish, yangi tajribalarni sinash imkoniyatlarini yaratish va o'quvchilarda o'z fikrini erkin ifodalash madaniyatini rivojlantirish"ni ko'rsatib o'tganlar. Mualliflar fikriga ko'ra, rahbar va pedagoglarning kreativ yondashuvi orqali "butun ta'lim jarayonida ijodiy muhitni yaratish mumkin"[43].

Inoyatova D.Q. o'z tadqiqotida pedagogik sharoitlar orqali o'quvchilarning mustaqil ta'limini tashkil etish va ijodiy faolligini shakllantirishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, kreativlikni rivojlantirish uchun o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rag'batlantirish, yangi tajribalarni sinash imkoniyatlarini yaratish va o'z fikrini erkin ifodalash madaniyatini rivojlantirish zarur. Shuningdek, pedagoglarning kreativ yondashuvi orqali ta'lim jarayonida ijodiy muhitni yaratish mumkinligi ta'kidlangan[44].

Fikrimizcha, bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirishni metodik jihatdan tahlil qilishni uch bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Yangilikni pedagogik faoliyatda qo'llashdan oldingi davrdagi o'qituvchi faoliyatini tahlil qilish.
2. Kreativ qobiliyatning faol shakllanish davrini tahlil qilish.
3. Pedagogik jarayonga yangilik kiritilib bo'lgandan keyingi davrdagi faoliyatni tahlil qilish.

Shunday qilib, kreativlik XXI asrning eng muhim ko'nikmalaridan biri hisoblanadi. Chunki biz tez o'zgaruvchan va oldindan aytib bo'lmaydigan davrda yashayapmiz. Mazkur talab, ayniqsa, bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida alohida dolzarblik kasb etadi. Zero, ushbu yo'nalishdagi pedagoglarning vazifasi nafaqat ta'lim oluvchilarga harbiy-amaliy bilimlarni yetkazish, balki ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish hamda nostandart vaziyatlarda samarali yo'l tutishga o'rgatishdan iboratdir.

[41] Ernazarova G.O., Isroilov Q.T. Bo'lg'usi tarix o'qituvchilarida kreativlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari/ Academik research in educational sciences (ARES), ISSN 2181-1385, volume 2, issue 4, april 2021, p.1613-1619.

[42] Бегматов А., Алиева К., Абдушукуров Б. Раҳбар ва янгича тафаккур. -Т.: «Akademiya», 2008. - 65 б.
[43] Бегматов А., Алиева К., Абдушукуров Б. Раҳбар ва янгича тафаккур. -Т.: «Akademiya», 2008. - 65 б.
[44] Inoyatova D.Q. Pedagogik shart-sharoitlar orqali mustaqil ta'limni tashkil etish va o'quvchilarning kreativ faolligini shakllantirish // Scholarly journal, 2024.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Foydalangan adabiyotlar ro‘yhati

1. Sternberg, R. J. (2012). The Assessment of Creativity: An InvestmentBased Approach. Creativity Research Journal, 24(1), 3–12. https://doi.org/10.1080/10400419.2012.652925
2. Cimermanova, I. (2015). Creativity in EFL Teacher Training and Its Transfer to Language Teaching. Procedia - Social and Behavioral Sciences, 197, 1969–1975.https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2015.07.562
3. Tatarkiewicz, W. (1980). A History of Six Ideas: An Essay in Aesthetics. Springer.
4. Weiner, R. P. (2000). Creativity & Beyond: Cultures, Values, and Change. SUNY Press.
5. Guilford, J.P. (1967). The nature of human intelligence. New York: McGraw-Hill.
6. Guilford, J. P. (1967). Creativity: Yesterday, Today and Tomorrow. The Journal of Creative Behavior,
7. 1(1), 3–14. https://doi.org/10.1002/j.2162-6057.1967.tb00002.x

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАТSIЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Nazarov Jamshid Xoliyorovich
Termiz davlat universiteti
Manzil: Surxandaryo viloyati Termiz shahri,
jamshidnazarov887@gmail.com

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

TABIIY OFATLAR SHAROITIDA PSIXOLOGIK YORDAMNING METODIKASI VA SAMARADORLIGI

Avezov Olmos Ravshanovich
Osiyo xalqaro universiteti professori,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada tabiiy ofatlar sharoitida psixologik yordam ko'rsatishning metodik asoslari va amaliy yondashuvlari yoritilgan. Psychological First Aid (PFA), Problem Management Plus (PM+), Self-Help Plus (SH+) kabi qisqa muddatli intervensiyalar hamda TF-CBT va EMDR kabi mutaxassislik usullarining samaradorligi tahlil qilindi. Shuningdek, psixologik yordamni samarali amalga oshirishda sektorlararo hamkorlik, kadrlar tayyorlash va monitoring mexanizmlarining ahamiyati ko'rsatib berildi.

Tabiiy ofatlar insonlar hayoti va jamiyat barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ofat oqibatida nafaqat moddiy zarar, balki psixologik travmalar ham yuzaga keladi. Shu sababli, psixologik yordam ko'rsatishning ilmiy asoslangan metodikasi va uning samaradorligini baholash zamonaviy psixologiya fanining muhim yo'nalishiga aylangan.

MAQSAD: Ushbu maqolaning maqsadi tabiiy ofatlar sharoitida psixologik yordam ko'rsatishning ilmiy asoslangan metodikasini o'rganish, PFA, PM+, SH+ kabi qisqa muddatli intervensiyalar va TF-CBT hamda EMDR kabi mutaxassislik yondashuvlarining samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, ushbu yordamni samarali tashkil etishda sektorlararo hamkorlik, kadrlar tayyorlash va monitoring mexanizmlarining ahamiyatini asoslab berishdan iboratdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: Ushbu tadqiqotda tabiiy ofatlar sharoitida psixologik yordam ko'rsatishga oid xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO), Inter-Agency Standing Committee (IASC) hamda Sphere Handbook kabi nufuzli tashkilotlarning metodik qo'llanmalari asosiy material sifatida olindi. Shuningdek, Psychological First Aid (PFA), Problem Management Plus (PM+), Self-Help Plus (SH+), Trauma-Focused Cognitive Behavioral Therapy (TF-CBT) va Eye Movement Desensitization and Reprocessing (EMDR) usullarining samaradorligini o'rganishga qaratilgan randomizatsiyalangan klinik sinovlar (RCT) va metatahlillar ham tadqiqot materiali sifatida tahlil qilindi.

Metodologik jihatdan tahliliy va qiyosiy yondashuv qo'llanildi. Ilmiy maqolalar, amaliy qo'llanmalar va statistik hisobotlar kontent-tahlil usuli orqali o'rganildi. Shuningdek, mavjud ilmiy izlanishlarning natijalarini umumlashtirish, ularni o'zaro taqqoslash va tizimlashtirish metodlari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida psixologik yordamning samaradorligini baholash uchun depressiya, xavotir va posttravmatik stress buzilishi (PTSS) darajasini o'lchovchi xalqaro standart psixometrik vositalar (PHQ-9, GAD-7, PTSS-10) nazariy asos sifatida ko'rib chiqildi.

XULOSA: Tabiiy ofatlar oqibatida yuzaga keladigan ruhiy travmalar insonlarning psixologik barqarorligiga, jamiyatning ijtimoiy hayotiga va umumiy farovonligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu sharoitlarda psixologik yordamni bosqichma-bosqich, tizimli va ilmiy asoslangan

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

metodikaga tayangan holda tashkil etish muhimdir. PFA, PM+, SH+ kabi qisqa muddatli intervensiyalar odamlarning dastlabki ruhiy barqarorligini tiklashda samarali bo‘lsa, TF-CBT va EMDR kabi mutaxassislik darajasidagi terapiyalar chuqurroq ruhiy muammolarni hal qilishda yuqori natija beradi. Shu bilan birga, sektorlararo hamkorlik, kadrlar tayyorlash, monitoring va baholash mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish psixologik yordamning samaradorligini ta’minlaydi. Demak, tabiiy ofatlar sharoitida psixologik yordamni to‘g‘ri tashkil etish inson salomatligi va jamiyat barqarorligini ta’minlashning eng muhim shartlaridan biridir.

Kalit so‘zlar: tabiiy ofatlar, psixologik yordam, ruhiy salomatlik, Psychological First Aid (PFA), Problem Management Plus (PM+), Self-Help Plus (SH+), trauma-fokusli kognitiv-behavioral terapiya (TF-CBT), EMDR, posttravmatik stress buzilishi (PTSS), sektorlararo hamkorlik, monitoring, kadrlar tayyorlash, psixoterapiya metodlari.

МЕТОДОЛОГИЯ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ ПРИ СТИХИЙНЫХ БЕДСТВИЯХ

Авезов Олмос Равшанович
Профессор, доктор философии (PhD) по психологии,
Азиатский международный университет

Аннотация.

ВВЕДЕНИЕ:В статье рассматриваются методологические основы и практические подходы к оказанию психологической помощи при стихийных бедствиях. Анализируется эффективность краткосрочных вмешательств, таких как «Первая психологическая помощь» (ППП), «Управление проблемами плюс» (УП+), «Самопомощь плюс» (СП+), а также специализированных методов, таких как ТФ-КПТ и ДПДГ. Также подчеркивается важность межсекторального взаимодействия, обучения и механизмов мониторинга для эффективного оказания психологической помощи.

Стихийные бедствия оказывают серьёзное влияние на жизнь человека и стабильность общества. Катастрофы наносят не только материальный ущерб, но и психологические травмы. Поэтому научно обоснованные методы оказания психологической помощи и оценки её эффективности стали важным направлением современной психологии.

ЦЕЛЬ: Целью данной статьи является исследование научно обоснованных методик оказания психологической помощи при стихийных бедствиях, анализ эффективности краткосрочных вмешательств, таких как ППП, УП+, СГ+, и специализированных подходов, таких как ТФ-КПТ и ДПДГ, а также обоснование важности межсекторального сотрудничества, обучения персонала и механизмов мониторинга в эффективной организации этой помощи.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: В данном исследовании в качестве основного материала были взяты международные и локальные научные источники по психологической помощи при стихийных бедствиях, методические руководства авторитетных организаций, таких как Всемирная организация здравоохранения (ВОЗ), Межведомственный постоянный комитет (МПК) и Справочник «Сфера». Также в качестве исследовательского материала были проанализированы рандомизированные клинические исследования (РКИ) и метаанализы, направленные на изучение эффективности методов «Первая психологическая помощь» (ППП), «Управление проблемами плюс» (УП+), «Самопомощь плюс» (СП+), «Когнитивно-поведенческая терапия, фокусированная на травме» (КПТ) и «Десенсибилизация и переработка движениями глаз» (ДПДГ).

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Методологически использовался аналитический и сравнительный подход. Научные статьи, практические руководства и статистические отчеты были изучены с использованием метода контент-анализа. Также были использованы методы обобщения результатов существующих научных исследований, их сравнения и систематизации. В процессе исследования в качестве теоретической основы для оценки эффективности психологической поддержки рассматривались международные стандартные психометрические инструменты (PHQ-9, GAD-7, PTSS-10), измеряющие уровень депрессии, тревожности и посттравматического стрессового расстройства (ПТСР).

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Психологическая травма, вызванная стихийными бедствиями, оказывает серьёзное влияние на психологическую устойчивость людей, социальную жизнь общества и общее благополучие. В этих условиях важна поэтапная, системная и научно обоснованная организация психологической помощи. В то время как краткосрочные вмешательства, такие как ПФА, ПМ+, Ш+, эффективны для восстановления исходной психологической устойчивости людей, специализированные терапии, такие как ТФ-КПТ и ДПДГ, высокоэффективны в решении более глубоких психологических проблем. При этом межсекторальное взаимодействие, обучение персонала и создание механизмов мониторинга и оценки обеспечивают эффективность психологической помощи. Поэтому правильная организация психологической помощи в условиях стихийных бедствий является одним из важнейших условий обеспечения здоровья людей и социальной стабильности.

Ключевые слова: стихийные бедствия, психологическая помощь, психическое здоровье, первая психологическая помощь (ППП), управление проблемами плюс (УП+), самопомощь плюс (СП+), когнитивно-поведенческая терапия, ориентированная на травмы (КПТ-КТ), EMDR, посттравматическое стрессовое расстройство (ПТСР), межсекторальное сотрудничество, мониторинг, обучение персонала, методы психотерапии.

METHODOLOGY AND EFFECTIVENESS OF PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE IN NATURAL DISASTERS

Avezov Olmos Ravshanovich
Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology,
Asia International University

Annatation.

INTRODUCTION: This article discusses the methodological foundations and practical approaches to providing psychological assistance in natural disasters. The effectiveness of short-term interventions such as Psychological First Aid (PFA), Problem Management Plus (PM+), Self-Help Plus (SH+), and specialized methods such as TF-CBT and EMDR is analyzed. The importance of cross-sectoral cooperation, training, and monitoring mechanisms for the effective implementation of psychological assistance is also highlighted.

Natural disasters have a serious impact on human life and the stability of society. Disasters cause not only material damage, but also psychological trauma. Therefore, scientifically based methods of providing psychological assistance and assessing its effectiveness have become an important area of modern psychology.

THE GOAL: The purpose of this article is to study scientifically based methodologies for providing psychological assistance in natural disasters, analyze the effectiveness of short-term interventions such as PFA, PM+, SH+, and specialized approaches such as TF-CBT and EMDR,

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

and also justify the importance of intersectoral cooperation, staff training, and monitoring mechanisms in effectively organizing this assistance.

MATERIALS AND METHODS: In this study, international and local scientific sources on psychological assistance in natural disasters, methodological guides of authoritative organizations such as the World Health Organization (WHO), Inter-Agency Standing Committee (IASC) and Sphere Handbook were taken as the main material. Also, randomized clinical trials (RCTs) and meta-analyses aimed at studying the effectiveness of Psychological First Aid (PFA), Problem Management Plus (PM+), Self-Help Plus (SH+), Trauma-Focused Cognitive Behavioral Therapy (TF-CBT) and Eye Movement Desensitization and Reprocessing (EMDR) methods were analyzed as research material.

Methodologically, an analytical and comparative approach was used. Scientific articles, practical guides and statistical reports were studied using the content analysis method. Also, methods of summarizing the results of existing scientific research, comparing them and systematizing them were used. In the research process, international standard psychometric instruments (PHQ-9, GAD-7, PTSS-10) measuring the level of depression, anxiety, and post-traumatic stress disorder (PTSD) were considered as a theoretical basis to assess the effectiveness of psychological support.

Bugungi kunda global miqyosda Odam immuntanqisligi virusi (OIV) infeksiyasi hamda uning yakuniy bosqichi bo‘lgan “Orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi” (OITS) bilan yashayotgan shaxslar soni ortish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. So‘nggi 36 yil ichida OIV/OITS ning shaxs, oila va jamiyat hayotiga ta’siri bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik oqibatlar sezilarli darajada o‘zgardi. Dastlab ushbu kasallik asosan biologik xavf sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib u inson salomatligi bilan birga psixologik holati, ijtimoiy moslashuvi va hayot sifatiga ham bevosita ta’sir etuvchi kompleks muammo sifatida qaralmoqda.

Kasallik paydo bo‘lgandan buyon butun dunyo bo‘ylab 36-yil davomida kamida 75 million kishini zararlagan va 33 milliondan ortiq insonning hayotiga zomin bo‘lgan. Mamlakatimizda 36-yil davomida yurtimizda bu kasallik bilan kasallangan bemorlar soni 48 ming nafarni tashkil etmoqda, shundan 55 foizi erkaklar va 45 foizi ayollardan iborat. Kasallikka chalinganlarning 14 foizi esa 18 yoshga to‘lmagan bolalarga to‘g‘ri kelmoqda. Kasallanish ko‘rsatkichi eng yuqori hudud esa Toshkent shahri hisoblanadi .

Zamonaviy tibbiyotning jadal rivojlanishi, xususan antiretrovirus terapiya (ART) vositalarining keng joriy etilishi natijasida OITS bilan yashovchi shaxslarning hayot davomiyligi sezilarli darajada uzaydi. Bu holat OITS infeksiyasiga nisbatan ilgari hukm tarzida qaralgan o‘lim tasavvurlarining o‘zgarishiga olib keldi. Endilikda ushbu infeksiya surunkali, ammo boshqariladigan holat sifatida e’tirof etilmoqda . Shunga qaramay, bemorlarning jismoniy salomatligi bilan bir qatorda, ularning psixologik holati, ijtimoiy integratsiyasi va hayot sifati masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Aksincha, yolg‘izlik hissi, stigma, ijtimoiy izolatsiya, depressiya va o‘ziga bo‘lgan salbiy munosabatlar ushbu guruhdagi shaxslarning psixologik barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda.

Shunga ko‘ra, zamonaviy psixologik tadqiqotlar va terapevtik amaliyot yo‘nalishlari OITS bilan yashashning o‘zgaruvchan ijtimoiy va psixologik oqibatlarini chuqurroq tahlil qilishga yo‘naltirilmoqda. Ushbu jarayon bemorlarning ruhiy salomatligi, emotsional holati va ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashda psixologik xizmatlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Xususan, OITS bilan yashovchi shaxslarning hayot sifatini yaxshilash, ularning ruhiy zo‘riqish va depressiv holatlarini yengillashtirish, stigmatizatsiya va ijtimoiy ajratilish bilan bog‘liq salbiy oqibatlarni kamaytirish maqsadida psixologik yondashuvlar tobora kompleks tus olmoqda.

Bugungi kunda nafaqat klinik psixologiya, ijtimoiy psixologiya, psixoterapiya hamda reabilitatsion psixologiya sohasi ham mazkur dolzarb masalaga o‘ziga xos metodologik yondashuvlarni taklif qilmoqda. Psixologik yordam shakllari, jumladan kognitiv-behavioral terapiya, psixodinamik yondashuv, guruh psixoterapiyasi va stressni kamaytirishga yo‘naltirilgan intervensiyalar OITS bilan yashovchi bemorlar uchun ijobiy klinik natijalarni ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

OITS epidemiyasi davrida ushbu kasallik global sog‘liqni saqlash muammosi sifatida qaralish bilan birga, chuqur ijtimoiy va psixologik oqibatlarga ega bo‘lgan murakkab hodisa sifatida psixologik tadqiqotlar doirasiga faol kirib keldi. Ayniqsa, insonning ruhiy holati, emotsional moslashuv darajasi, ijtimoiy munosabatlar va stigmatizatsiya jarayonlari bilan bog‘liq psixologik omillar ilmiy jamoatchilik e’tiborini tortdi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

1981-yilning iyun oyida AQShning Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlari tomonidan e'lon qilingan haftalik epidemiologik hisobotda birinchi bor immun tanqisligi holati qayd etildi. Ushbu holatlar Los-Anjeles shahrida aniqlanib, bemorlarda Pnevmotsistis infeksiyasi pnevmoniyasi (PIP) — ya'ni Pnevmotsistis jirovecii mikroorganizmi tomonidan chaqiriladigan o'tkir pnevmoniya aniqlangan edi. Bu infeksiya odatda faqat immuniteti jiddiy darajada sustlashgan shaxslarda uchraydi va sog'lom immun tizimiga ega insonlar orasida deyarli kuzatilmaydi. Ushbu bemorlarda immun tizimining keskin zaiflashgani ularni turli infeksiyalarga nisbatan o'ta sezuvchan holatga keltirgan. Bu holat tibbiyot sohasidagi mutaxassislar orasida jiddiy xavotir uyg'otib, noma'lum sabablarga ega bo'lgan yangi infeksion kasallik borasida dastlabki shubhalarni yuzaga keltirdi. Mazkur holatlar keyinchalik Odam immunitet tanqisligi virusi (OIV) bilan bog'liq bo'lgan orttirilgan immun tanqisligi sindromi (OITS) epidemiyasining boshlanishi sifatida tarixda qayd etilgan.

OITS (AIDS) atamasi rasman 1982-yilda AQShning Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlari tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda kiritilgan bo'lib, unda bu kasallik orttirilgan immun tanqisligi sindromi sifatida tavsiflangan. Keyingi kuzatuvlar va epidemiologik tadqiqotlar OITS faqat ma'lum bir guruh vakillarida emas, balki turli yoshdagi, jinsdagi va ijtimoiy qatlamlarga mansub shaxslar orasida ham uchrashi mumkinligini ko'rsatdi. Bu holat kasallikning keng miqyosda tarqalish xavfini ochib berdi va unga qarshi kurashishda global sog'liqni saqlash tizimining kompleks yondashuvini talab qildi .

Dastlabki klinik holat tavsifidan ikki yil o'tib, Lyuk Montanye va uning jamoasi (Fransiyadagi Paster instituti) OIV virusini 1983-yilda birinchi marta aniqlagan. Ular virusni dastlab "Limfadenopatiya bilan bog'liq virus" deb nomlagan, chunki bu virus bilan zararlangan bemorlarda limfa tugunlarining shishishi — ya'ni limfadenopatiya eng ko'p uchraydigan va aniq namoyon bo'ladigan klinik belgi sifatida kuzatilgan. Shuning uchun, dastlabki bosqichda olimlar virusni aynan shu simptom bilan bog'lab nomlashga qaror qilishgan. Bu nomlanish virus tabiatining to'liq o'rganilmagan, ammo organizmdagi immunitet tizimi bilan bevosita aloqadorligi haqida dastlabki tasavvurlarni aks ettirar edi. Virusning keyinchalik aniqlangan tizimli ta'siri va boshqa klinik ko'rinishlari aniqlangach, unga "Odam immunitet tanqisligi virusi" (OIV) deb ilmiy jihatdan asoslangan nom berildi. Shunga qaramay, dastlabki nomi — "Limfadenopatiya bilan bog'liq virus" — OITSning tarixiy tadqiqotlarida muhim ilmiy bosqich sifatida tilga olinadi .

Virusga qarshi antitanalarni aniqlovchi testlarning yaratilishi epidemiologik tadqiqotlarning rivojlanishiga turtki bo'lib, xavf guruhidagi aholini keng ko'lamda tekshirish imkonini berdi. Bu testlar tufayli shifokorlar va tadqiqotchilar aholining virusga chalingan yoki yuqtirganligini aniqlashda ancha aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'la boshladilar. Natijada, OIV bilan kasallangan shaxslarni erta bosqichda aniqlash, ularga tezkor tibbiy yordam ko'rsatish va kasallikning keyingi bosqichlarga o'tishini sekinlashtirish imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, epidemiologik xaritalar tuzish, xavf guruhlarini belgilash, virus tarqalish yo'llarini chuqur o'rganish va profilaktika chora-tadbirlarini tizimli tashkil qilish kabi muhim yo'nalishlar yanada samarali yo'lga qo'yildi .

1980–1990-yillar davomida kasallik keng ko'lamda o'rganilgani tufayli, AQSh Kasalliklarni nazorat qilish markazi hamda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan OITS diagnostikasi bo'yicha mezonlar bosqichma-bosqich takomillashtirib borildi. Virusli infeksiya, uning organizmdagi rivojlanish bosqichlari, shuningdek, OITS va unga o'xshash sindromlar o'rtasida aniq klinik, immunologik va laborator farqlar kiritilib, ularni ajratib ko'rsatish bo'yicha mezonlar ishlab chiqildi hamda bu holatlar alohida diagnostik toifalar sifatida tasnif qilindi. OITS epidemiyasining dastlabki bosqichlarida OIV infeksiyasiga qarshi samarali davolash usullarining mavjud emasligi tufayli, infeksiyaga chalingan bemorlarning sog'lig'i asta-sekin

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

yomonlashib, kasallik orttirilgan immun tanqisligi sindromi (OITS) bosqichiga o‘tishi tabiiy va kutilgan jarayon sifatida baholangan .

Kasalliklarni nazorat qilish markazi hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti infeksiyaning yuqish yo‘llari, rivojlanish xususiyatlari, klinik ko‘rinishlari va kasallik bosqichlarini aniqlash bo‘yicha diagnostik tasniflarini izchil ravishda takomillashtirib, yangi ilmiy-tibbiy ma’lumotlar asosida mezonlarni muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqdi hamda global sog‘liqni saqlash tizimiga mos ravishda yangilab bordi. Aynan shu davrda kasallik yuqishi mumkin bo‘lgan yo‘llar o‘rganilib, aniqlashtirildi; bu yo‘llar quyidagi jadvalda keltirilgan. (1.1-jadval).

1.1-jadval

OIV/OITS infeksiyasining yuqish yo‘llari va ularning qisqacha tavsifi

№	Yuqtirish usuli	Izoh
1	**Jinsiy aloqa orqali**	Himoyalanmagan vaginal, anal yoki og‘zaki jinsiy aloqa orqali yuqadi.
2	**Qon orqali**	OIV bilan zararlangan qon, igna, shpritslar yoki tibbiy asboblar orqali.
3	**Onadan bolaga**	Homiladorlik, tug‘ruq yoki emizish jarayonida ona orqali bolaga yuqishi mumkin.
4	**Transfuziya (qon quyish)**	OIV bilan zararlangan qon yoki qon mahsulotlari orqali (bugungi kunda kam uchraydi, chunki qon tekshiriladi).
5	**Ignalarni birga ishlatish**	Asosan giyohvand moddalarni in’ektsiya yo‘li bilan iste’mol qiluvchilar orasida.
6	**Tibbiy yoki kosmetik muolajalar**	Sterilizatsiya qilinmagan asboblar bilan amalga oshirilgan muolajalar (masalan, tatuirovka, pirsing).

Yuqoridagi jadvalda ko‘rishimiz mumkinki OITS virusi bir necha yo‘llar bilan shaxslarga yuqishi mumkin.

OITS virusining pandemik shakli — ya’ni asosiy (M) guruhi deb ataluvchi turi — dastlab aniqlanganidan buyon o‘tgan davrda OITS infeksiyasi butun dunyo bo‘ylab keng tarqalgan epidemiya sifatida tan olingan. Shunga qaramay, epidemiyaning muhim xususiyatlari dunyoning turli mintaqalarida sezilarli darajada farq qilmoqda. Masalan, OITS dastlab paydo bo‘lgandan so‘ng 1980-yillarning oxiri va 1990-yillarning boshlariga kelib, OITS Nyu-York va Nyu-Jersi shtatlarida barcha etnik guruhlarga mansub yosh erkaklar o‘rtasida o‘limning asosiy sababiga aylandi, bu esa ayniqsa afro-amerikaliklarga eng katta ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, ushbu geografik hududda OITS 15–44 yoshdagi afro-amerikalik ayollar o‘rtasida ham o‘limning asosiy sababiga aylandi. OITSning keng tarqalishi va psixologik ta’siri bu guruhlarda nafaqat jismoniy salomatlikka, balki psixologik qarshilik va moslashuv darajasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Kasallikka chalingan shaxslar orasida stress, xavotir, depressiya va umidsizlik kabi psixologik holatlar keng tarqalgan bo‘lib, bu, o‘z navbatida, davolash jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday psixologik muammolarni yengish uchun, nafaqat fiziologik, balki psixologik yondashuvlar ham zarur bo‘lgan .

OITS infeksiyasi darajasi ba’zi geografik mintaqalarda oshib borayotgan bo‘lsa, boshqalarida esa kamaymoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar OIV/OITSdan eng ko‘p zarar ko‘rgan bo‘lib, eng yuqori tarqalish darajasi Sahroi Kabirdan janubiy Afrikadagi yosh kattalar o‘rtasida qayd etilgan. OITSdan vafot etish ko‘rsatkichi bo‘yicha ham xuddi shunday holat kuzatiladi. 2023-yil holatiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 33 milliondan ortiq odam OIV bilan yashamoqda va har yili taxminan 1,3 million yangi infeksiya holatlari qayd etilmoqda. Ushbu raqamlar nafaqat jismoniy salomatlikni, balki psixologik holatlarni ham jiddiy ravishda ta’sir qilmoqda. OIV/OITS bilan yashayotgan shaxslar ko‘pincha stress, depressiya, xavotir va

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

umidsizlik kabi psixologik qarshiliklarga duch keladilar. Bu psixologik holatlar, o‘z navbatida, davolash jarayonini murakkablashtirib, shaxslarning moslashuv qobiliyatini kamaytirishi mumkin. Shuningdek, psixologik yordam va qo‘llab-quvvatlash xizmatlari, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda, infeksiya bilan kurashish jarayonida samarali yordam ko‘rsatishi mumkin. Shunday qilib, OIV/OITS bilan kasallanganlarning psixologik holatini yaxshilash uchun, jismoniy va psixologik yondashuvlarning birgalikda amalga oshirilishi zarur.

Populyatsiyalar kasallikni tushunish va tasvirlashda, shuningdek, profilaktika va davolanishga madaniy jihatdan mos keluvchi javoblar qay darajada ekanligida farqlanadi. Bu farqlar, avvalo, har bir jamoaning o‘z madaniy qadriyatlari, ijtimoiy tuzilmasi va sog‘liqni saqlash tizimiga bo‘lgan ishonchi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu boisdan, OITSga qarshi olib borilayotgan strategiyalar turli guruhlarda turlicha samaradorlik ko‘rsatadi. Masalan, ba’zi jamiyatlarda OITS ochiqchasiga muhokama qilinmaydigan mavzu bo‘lib, kasallikni yashirishga moyillik yuqori bo‘lsa, boshqa hududlarda esa bu borada ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari faolroq bo‘lishi mumkin. Bu esa profilaktika choralarining joriy etilishi va davolanish jarayoniga jalb etilish darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Hatto Shimoliy Amerika ichida ham OITS etnik va irqiy omillar yoki infeksiya tarqalish usullari (masalan, jinsiy yo‘l, igna almashish yoki onadan bolaga o‘tishi) kabi omillarga qarab turli subpopulyatsiyalarda turlicha xususiyatga ega. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, OITS faqat biologik emas, balki sotsiomadaniy muammo sifatida ham talqin qilinishi lozim. Chunki har bir subpopulyatsiyaning kasallikka nisbatan qarashlari, uni aniqlash va unga qarshi kurashishda qo‘llaniladigan yondashuvlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, OITSni qanday aniqlash kerakligi bo‘yicha qarama-qarshi va ziddiyatli qarashlar akademik fanlar o‘rtasida turlicha bo‘lib kelgan. Tadqiqotchilar profilaktika choralarini faqat individual xatti-harakatlarga qaratishdan saqlanish kerakligini ta’kidladilar, chunki madaniy qarashlar va jinsiy amaliyotlarning ta’sirini hisobga olish zarur edi. Bu yondashuvlar nafaqat kasallikning jismoniy ta’sirini kamaytirishga, balki uning psixologik ta’sirini, ya’ni kasallikka chalingan shaxslar o‘rtasidagi umidsizlik, depressiya va ijtimoiy izolyatsiyani yengishga ham yordam beradi. Psixologik yordam, psixoterapiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari, ayniqsa, OIV/OITS bilan yashayotgan shaxslarning psixologik holatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. OITSga qarshi kurashishda nafaqat biologik, balki psixologik va madaniy yondashuvlarni integratsiyalash hamda har bir guruhning xususiyatlarini hisobga olish zarur .

R.G.Parker xatti-harakat, tibbiy va individual psixologik aralashuvlarning jinsiy xatti-harakatga sezilarli ta’sir ko‘rsata olmagan umumiy muvaffaqiyatsizligini qayd etdi. U antropologik tadqiqotlarning OIV bo‘yicha jimligini ta’kidladi, garchi antropologiya o‘zgaruvchan ijtimoiy-madaniy muhitlarda murakkab muammolarni o‘rganishda nazariy jihatdan kuchli bo‘lsa-da. U jinsiy xatti-harakatning ijtimoiy-madaniy ma’nolarini to‘liq qadrlamaslikni OIV profilaktikasi va davolash bo‘yicha yigirma yillik xatti-harakat va tibbiy yondashuvlarning samaradorligini cheklovchi omil sifatida aniqladi.

Shu bilan birga, Parker OIV profilaktikasida faqat biologik yondashuvlarning o‘ta muhimligini ta’kidlash bilan birga, psixologik va ijtimoiy omillarni ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatdi. Chunki jinsiy xatti-harakatlar ko‘pincha ijtimoiy va madaniy sharoitlar, oila va jamiyat tomonidan belgilangan me’yorlar bilan shakllanadi. Shuningdek, OIV bilan yashayotgan shaxslar orasida, psixologik jihatdan, umidsizlik, ijtimoiy izolyatsiya, va o‘zini past baholash kabi holatlar keng tarqalgan. Bu esa profilaktika va davolash jarayonlarini samarali amalga oshirishda yangi yondashuvlarni, masalan, psixoterapiya va qo‘llab-quvvatlash guruhlarini tashkil etishni zarur qiladi.

Biotibbiy yondashuv kasallikni aniq tashxislash va uni davolash yo‘llarini ilgari surgan bo‘lsa-da, ijtimoiy fanlar ushbu muammoning chuqur ijtimoiy, madaniy va psixologik ildizlariga e’tibor qaratadi. Ijtimoiy fanlar, shuningdek, kasallikning tarqalishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

omillarni, odamlarning kasallikka bo‘lgan qarashlarini va bu qarashlarning davolash jarayoniga qanday ta’sir qilishini chuqur tahlil qiladi. Natijada, profilaktika va davolanish harakatlari hamda ularning samaradorligi turli fanlar o‘rtasidagi yondashuv farqlari ta’sirida shakllanadi. Bu esa OITSga qarshi kurashishda universal yondashuvning samarasizligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, umumiy va global strategiyalardan tashqari, har bir mintaqa, xalq, va jamiyat uchun madaniy jihatdan moslashtirilgan va ularning an’analari, qadriyatlari, ijtimoiy tuzilmalari va resurslariga mos keladigan strategiyalar zarurligi aniq ko‘rinadi. Har bir hududda, kasallikni o‘rganish va unga qarshi kurashishda ijtimoiy va madaniy kontekstni hisobga olish nafaqat samarali, balki uzoq muddatli va barqaror natijalar beradi. Bu esa OITS bilan kurashishda faqat biotibbiy yondashuvlar emas, balki ijtimoiy, madaniy, va psixologik faktorlarni ham inobatga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Dabis va De Layning tadqiqotlarida qayd etilishicha, antiretrovirus terapiyasining (ART) jahon miqyosida keng qamrovli bo‘lishi nafaqat OITSdan o‘lim darajasini kamaytiradi, balki yangi infektsiya holatlarining oldini olishda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ya'ni, ART virus yukini (viral load) sezilarli darajada kamaytirib, OIVning boshqa odamlarga yuqishini deyarli nol darajasiga tushiradi. Bu esa davolanish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan har bir inson faqat o‘z salomatligi uchun emas, balki global epidemiologik xavfsizlik nuqtayi nazaridan ham muhim hisoblanadi. OIVning tarqalishi va uning boshqa odamlarga o‘tishini cheklash, butun dunyo miqyosida sog‘liqni saqlash tizimlarining samaradorligini oshiradi va global miqyosda yangi infektsiya holatlarining kamayishiga olib keladi. Shuning uchun, antiretrovirus terapiyaning ta’siri nafaqat individual darajada, balki xalqaro darajada ham sezilarli ahamiyatga ega.

Shuni aytishimiz mumkinki, OITSni tibbiy muammo sifatida samarali hal etishda antiretrovirus terapiyasini global darajada teng ta’minlash — dolzarb strategik yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Bu yo‘nalishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, moliyaviy resurslarni safarbar etish, infratuzilmaviy imkoniyatlarni yaxshilash va stigma bilan kurashish bo‘yicha maqsadli dasturlarni kengaytirish zarur. Aks holda, ART imkoniyatlarining chegaralanganligi global sog‘liqni saqlash tizimida surunkali inqiroz holatini yuzaga keltirishi mumkin. Shu bilan birga, global miqyosda bunday terapiya uchun teng ta’minotning yo‘qligi, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda, kasallikning keng tarqalishiga va virusning yangi avlodlarga o‘tishiga olib keladi. Shunday qilib, antiretrovirus terapiyasi faqat bemorlarning salomatligini tiklashda emas, balki kasallikning yangi avlodlarga tarqalishini oldini olishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun, global sog‘liqni saqlash tizimida bunday terapiyaga kirishni osonlashtirish va resurslarni muvofiqlashtirishga qaratilgan hamkorlik alohida e’tiborga loyiqdir.

Ikkinchidan, OITS infeksiyasining kech aniqlanishi nafaqat tibbiy, balki psixologik jihatdan ham dolzarb muammo sifatida qaraladi. Tibbiy jihatdan kech diagnostika bemorning immun tizimi allaqachon zaiflashgan, infeksiyalar rivojlangan va davolash natijadorligi pasaygan bosqichga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, psixologik nuqtai nazardan bu holat kuchli emotsional bosim, noaniqlikdan kelib chiqadigan xavotir, depressiya va umidsizlik holatlarini kuchaytiradi. OIV ning kech aniqlanishi, shuningdek, bemorning kasallikni qabul qilish va unga nisbatan psixologik moslashuvi uchun ham qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Tibbiy adabiyotlarda bu holat “kech aniqlangan OIV” deb yuritiladi. Bu atama ostida CD4 limfotsitlar soni 200/ml³ dan kam bo‘lgan yoki OITS bilan bog‘liq klinik belgilar aniqlangan bemorlar tushuniladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kech tashxis qo‘yilgan bemorlar orasida antiretrovirus terapiyasi kech boshlangani sababli birinchi yilda vafot etish ko‘rsatkichi yuqori bo‘ladi. Bu esa shuni anglatadiki, OIV ning ertaroq tashxisi va tezroq davolashga kirishish, bemorning uzoq muddatli hayot sifatini yaxshilashga va o‘lim ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada kamaytirishga imkon beradi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-14 «Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallikka qarshi kurashish tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to’g’risida»https://lex.uz/uz/docs/-6364828

2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-fevraldagi 84-son qarori “O‘zbekiston Respublikasida odam immunitet tanqisligi virusi infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurash bo‘yicha yoshlar faolligida olib boriladigan tizimli targ‘ibot tadbirlari” to’g’risida.

3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-sonli “Psixologiya sohasida kadrlarni tayorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora tadbirlari to’g‘risida”gi qarori.www.lex.uz/pdfs/4367731

4. Aaron Beck – "Cognitive Therapy: Basics and Beyond". The Guilford Press. ISBN: 978-1609185046. 1995. 338 p.

5. Abdullayev, A.N. (2022). OIVning onadan bolaga yuqishini oldini olish strategiyalari. *Toshkent pediatriya instituti ilmiy jurnali*.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАТСИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Radjabova Umida Ubaydulloyevna
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Manzil: O‘zbekoston, Buxoro shahri

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA INTELLEKT SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Xonzafarov Og‘abek Otabek o‘g‘li
Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya.

KIRISH: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida intellekt shakllanishining psixologik jihatlari, ularning rivojlanish omillari va ularga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy jarayonlar ko‘rib chiqiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual rivojlanish jarayoni va bu jarayonning psixologik asoslari haqida so‘z boradi.

Hozir jahonda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida intellekt shakllanishining psixologik jihatlari, ularni rivojlantiruvchi omillar va ularga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy jarayonlar dolzarb masalaga aylangan. O‘quvchilar intellekti shakllanish jarayoni va bu jarayonni rivojlantirib borishni boshlang‘ich sinfda boshlagan maqul. Bu o‘quvchilarda ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi va ularning qobiliyatlarini yanada o‘stirishga imkan beradi.

MAQSAD: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida intellekt shakllanishining psixologik asoslari, bolalarga intellekt shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar va intellektual rivojlanish jarayonini o‘rganib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektini rivojlantirish uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR: Boshlang‘ich ta’lim davri bolaning intellektual rivojlanishi uchun eng muhim hisoblangan davrlardan biri. Ushbu davrda bolalarning intellektual qobiliyatlari tez shakllanib boradi, chunki ular aqliy faoliyatining asosiy jarayonlari – mantiqiy fikrlash, tasavvur qilish, xotira va diqqatni faollashtiruvchi yangi bilimlar va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.Bu davrda bolalar shaxs sifatida shakllanish bosqichida bo‘lib, ularning psixologik xususiyatlari, bilish qobiliyatlari va ijodiy salohiyatlari faol rivojlanib boradi. Intellektual rivojlanishning psixologik asoslarini o‘rganish esa ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

XULOSA: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida intellekt shakllanishi ko‘plab psixologik va pedagogik omillarga bog‘liq hisoblanadi. Bu jarayonni to‘g‘ri tashkil etish orqali bolalarning nafaqat bilim olishga bo‘lgan qiziqishini, balki ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ham mumkin. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarga pedagoglar tomonidan individual yondashuv va zamonaviy usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Intellekt, kognitiv rivojlanish, diqqat, xotira, ijodiy tafakkur, motivatsiya, metod, mantiqiy fikrlash, individual yondashuv, tasavvur, qobiliyat, xarakter

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕЛЛЕКТА У УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Хонзафаров Огабек Отабекович
Международный университет Азии

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

Аннотация:

В данной статье рассматриваются психологические аспекты формирования интеллекта у учеников начальных классов, факторы их развития и основные процессы, оказывающие влияние на этот процесс. Особое внимание уделяется процессу интеллектуального развития учащихся начальных классов и его психологическим основам.

ВВЕДЕНИЕ: В настоящее время психологические аспекты формирования интеллекта у учащихся младших классов, факторы, их развивающие, и основные процессы, на них влияющие, стали актуальной проблемой во всем мире. Важно начинать процесс формирования и развития интеллекта учащихся еще в начальной школе. Это повышает интерес учащихся к обучению и позволяет им дальше развивать свои способности.

ЦЕЛЬ: Психологические основы формирования интеллекта у учеников начальных классов включают изучение факторов, влияющих на развитие интеллекта, а также процессов интеллектуального развития. Основная цель заключается в разработке рекомендаций для развития интеллекта учеников начальных классов.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: Период начального образования считается одним из важнейших периодов интеллектуального развития ребенка. В этот период интеллектуальные способности детей стремительно развиваются, они приобретают новые знания и умения, активизирующие основные процессы психической деятельности - логическое мышление, воображение, память и внимание. В этот период дети находятся на этапе становления как личности, активно развиваются их психологические особенности, познавательные способности и творческий потенциал. Изучение психологических основ интеллектуального развития позволяет более эффективно организовать образовательный процесс.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: Формирование интеллекта у учеников начальных классов зависит от множества психологических и педагогических факторов. Правильная организация этого процесса способствует не только повышению интереса детей к обучению, но и развитию их самостоятельного мышления и творческих способностей. В образовательном процессе важное значение имеет индивидуальный подход педагогов к ученикам и использование современных методик.

Ключевые слова: Интеллект, когнитивное развитие, внимание, память, творческое мышление, мотивация, метод, логическое мышление, индивидуальный подход, воображение, способности, характер.

PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF INTELLECT DEVELOPMENT IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Khonzafarov Og‘abek Otabekovich
Asia International University

Annotation.

INTRODUCTION: This article discusses the psychological aspects of intellect development in primary school students, the factors influencing their development, and the main processes that affect them. It focuses on the process of intellectual development in primary school students and the psychological foundations of this process.

Nowadays, the psychological aspects of the formation of intelligence in primary school students, the factors that develop them, and the main processes that influence them have become a pressing issue in the world. It is advisable to start the process of forming and developing the intelligence of students in primary school. This will increase students’ interest in learning and allow them to further develop their abilities.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

THE GOAL: The objective is to study the psychological foundations of intellect development in primary school students, the factors influencing the formation of intellect in children, and the process of intellectual development. Based on this, the goal is to develop recommendations for enhancing the intellect of primary school students.

MATERIALS AND METHODS: The primary education period is considered one of the most important periods for the intellectual development of a child. During this period, children's intellectual abilities are rapidly developing, as they acquire new knowledge and skills that activate the main processes of mental activity - logical thinking, imagination, memory and attention. During this period, children are at the stage of formation as individuals, and their psychological characteristics, cognitive abilities and creative potential are actively developing. Studying the psychological foundations of intellectual development allows for a more effective organization of the educational process.

CONCLUSION: The formation of intellect in primary school students is closely related to various psychological and pedagogical factors. By organizing this process correctly, it is possible not only to enhance children's interest in acquiring knowledge but also to develop their independent thinking and creative abilities. In the educational process, it is crucial for educators to apply individual approaches and modern methods, which play a significant role in fostering intellectual growth.

Key words: Intellect, cognitive development, attention, memory, creative thinking, motivation, method, logical thinking, individual approach, imagination, ability, character.

Intellekt (lotincha intellectus - «qabul qilish», «anglash», «tushunish»; «tushuncha», «aql») yoki aql — bu psixikaning sifati bo‘lib, yangi vaziyatlarni anglash, o‘rganish va tajriba asosida eslab qolish, abstrakt tushunchalarni tushunish va qo‘llash, shuningdek, o‘z bilimlarini atrof-muhitni boshqarish uchun ishlatish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Intellekt - bu insonning bilish va muammolarni hal qilish qobiliyatidir.

Boshlang‘ich ta’lim davri bolaning intellektual rivojlanishi uchun eng muhim hisoblangan davrlardan biri. Ushbu davrda bolalarning intellektual qobiliyatlari tez shakllanib boradi, chunki ular aqliy faoliyatining asosiy jarayonlari – mantiqiy fikrlash, tasavvur qilish, xotira va diqqatni faollashtiruvchi yangi bilimlar va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.Bu davrda bolalar shaxs sifatida shakllanish bosqichida bo‘lib, ularning psixologik xususiyatlari, bilish qobiliyatlari va ijodiy salohiyatlari faol rivojlanib boradi. Intellektual rivojlanishning asosi shakllanadi, bilim olishga qiziqish va bolaning kognitiv qobiliyatlari rivojlantiriladi. Intellektual rivojlanishning psixologik asoslarini o‘rganish esa ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Bu davrda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida intellekt rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillar quyidagilar:

Oilaviy muhit: Bolaning intellektual rivojlanishi ko‘p jihatdan oilaviy sharoitiga bog‘liq. Ota-onalarning farzandiga berayotgan e’tibori, ular tomonidan bolaga beriladigan bilim va amaliy ko‘nikmalar intellektual o‘sishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ota-onalarning bolalarni qo‘llab-quvvatlashi va rag‘batlantirishi bolaning bilim olish jarayonini yanada samarali qiladi. Oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlik o‘quvchilar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun muhimdir. Bu orqali bolaning intellektual va ijtimoiy rivojlanishi yaxshilanadi.

Maktab muhitining ta’siri: Maktab muhitida pedagoglarning o‘zaro muloqoti, dars jarayonida qo‘llaniladigan interaktiv metodlar va o‘quv dasturlari o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Psixologik rivojlanish xususiyatlari: Bolaning qobiliyati, xarakteri, o‘z-o‘zini baholash darajasi va uning hissiy holati intellektual rivojlanishiga kata ta’sir qiladi. Shu bilan birga bu davrda bolaning intellektual rivojlanishida quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

1.Kognitiv rivojlanish: Boshlang‘ich sinf davrida o‘quvchilarning bilish jarayonlari (diqqat, xotira, fikrlash va tasavvur) intensiv rivojlanadi. Bu bosqichda bolalarning ko‘rgazmali-obrazli va mantiqiy fikrlash qobiliyatlari shakllanadi. Piagetning fikriga ko‘ra, bu yoshdagi bolalar konkret operatsiyalar bosqichida bo‘ladilar. Ular aniq ma’lumotlarni tahlil qilish va ularga asoslanib xulosa chiqarishni o‘rganadilar.

2.Diqqat va xotira: O‘quvchilarda ixtiyoriy diqqat va mantiqiy xotira rivojlana boshlaydi. Bu ta’lim jarayonida bolaga axborotni tezroq o‘zlashtirish imkonini beradi.

3.Til va muloqot qobiliyatlari: Ushbu yoshda bolalarning so‘z boyligi va til qobiliyatlari faollashadi, bu esa ularga bilim olishlarini osonlashtiradi.

4.Ijodiy tafakkur: Ular o‘z qiziqishlari asosida yangi narsalarni o‘rganishga moyil bo‘lishadi, bolalarda ijodkorlik elementlari rivojlanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual rivojlanishini ta’minlash uchun quyidagi psixologik asoslar muhim:

Motivatsiya: O‘quvchilarda o‘quv motivatsiyasini shakllantirish ularning intellektual o‘sishining asosiy qismidir. Bolalarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi va motivatsiyasi ularning intellektual rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bolalar o‘zlariga qiziqarli va foydali bo‘lgan mashg‘ulotlarga ko‘proq qiziqish bildiradilar. O‘quvchilarni rag‘batlantirish va erishgan yutuqlari uchun maqtash motivatsiyani kuchaytiradi.

Individual yondashuv: Har bir bolaning qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos keladigan ta’lim metodlarini tanlash kerak. Har bir bolaning rivojlanishi va qobiliyatlari turlicha bo‘lib, o‘qituvchi va ota-onalar bu omillarni doim hisobga olishlari muhim.

Ta’lim jarayonining tashkil etilishi: Guruhda ishlash, muloqot va muhokama bolalarda ijtimoiy va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Chizish, qo‘lda ishlash va boshqa ijodiy mashg‘ulotlar bilan bolalarning tasavvur va tafakkuri rivojlantiriladi. Dars jarayonida o‘yin metodlari orqali ta’lim berish o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. O‘yin shaklidagi mashg‘ulotlar bolalarning mantiqiy fikrlashini, e’tiborini va xotirasini rivojlantiradi. Masalan, matematik masalalarni hal qilish yoki mantiqiy jumboqlarni yechish orqali bolalarning bilish qobiliyatlari faollashtiriladi. Dars jarayonida muammoli vazifalardan foydalanish o‘quvchilarning tahliliy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Muvofiqlashtirilgan muloqot: Bolalar bilan doimiy va ishonchli muloqot intellektual rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu bolada verbal-lingvistik intellektni rivojlantiradi. Verbal-lingvistik intellektning rivojlanishi natijasida bolada o‘z fikrlarini erkin bayon qilish, kata hajmdagi axborotni qayta ishlash, bahs jarayonida o‘z pozitsiyasini ishonchli hiumoya qilish qobiliyatlariga ega bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida intelektni qanday rivojlantirish mumkin? Bu savol ko‘plab psixolog va pedagoglarni qiziqtiradi, ular bolalarning aqliy faoliyat darajasi va sifatini oshirishni xohlaydilar. Ushbu savolga aniq va universal javob mavjud emas, chunki bunday rivojlanish ko‘plab individual va situatsion omillarga bog‘liq. Ammo, ba’zi umumiy tavsiyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

• Doimiy yangi narsalarni o‘rganish. Ta’lim olish yangi bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarni o‘zlashtirishga yordam beradi, shuningdek, miyadagi yangi neyron bog‘lanishlarini shakllantiradi ham. Eng asosiysi, ta’lim olish jarayoni o‘quvchi uchun qiziqarli, foydali bo‘lib, ijobiy hissiyotlarni uyg‘otishi kerak.

• Turli xildagi muammolarni hal qilishga o‘rgatish. Muammoli fikrlash — bu aqlning asosiy turlaridan biri bo‘lib, u odamdan tahlil, sintez, mantiq, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni talab qiladi. Muammolarni hal qilish bolada aqliy faollikni rag‘batlantiradi, ularning xotirasi va diqqatini rivojlantiradi, dunyoqarashi va tajribasini kengaytiradi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

• Yangi narsalarni yaratish. Ijodkorlik odamdan originalik, moslashuvchanlik, xayolparastlik va o‘zini ifodalashni talab qiladi. Bular o‘quvchilarning intellekti rivojlanishida kata rol o‘ynaydi.

Hozirgi rivojlanib borayotgan davrda bolalarning yoshligidan intellektini rivojlantirib borish zarur. Bu o‘quvchilarga faoliyatlari jarayonida vujudga keladigan turli mummolarni hal qilishga, qobiliyatlarini o‘stirishga va kelajakda yutuqlarga erishishiga ko‘maklashadi.

Boshlang‘ich sinf davri bolaning intellektual rivojlanishida muhim. Bu bosqichda bolalar tafakkuri, idrok qilish qobiliyati va mantiqiy fikrlash jarayonlari faol shakllanadi. Bu davrda bolalarda intellektual rivojlanishning asosiy psixologik jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Idrokning rivojlanishi: Bu yoshda bolalar dunyoni sezgi organlari orqali faol o‘rganadi. Vizual, eshituv va kinestetik idrok qilish orqali ular atrof-muhit haqida chuqurroq bilimlarga ega bo‘ladilar.

Mantiqiy tafakkurning shakllanishi: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari sodda tahlil va sintez qilish qobiliyatini o‘zlashtira boshlaydilar. Bu bosqichda muammolarni yechish, hodisalarning sabab-oqibatlarini aniqlash kabi intellektual faoliyatlar rivojlanadi.

Nutq va til rivoji: Nutq bolalar intellektining muhim tarkibiy qismidir. Bu davrda bolalar nafaqat yangi so‘zlarni o‘rganadi, balki mantiqiy va grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzishni ham o‘zlashtiradilar.

Ijodiy fikrlash: Boshlang‘ich davr o‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish uchun qulay vaqt hisoblanadi. O‘yinlar, rasmlar, musiqiy va boshqa mashg‘ulotlar ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi.

Xotira va diqqatni rivojlantirish: Bolalar ma’lumotni eslab qolish va diqqatni bir joyda to‘plashni o‘rganadilar. Bu intellektual rivojlanish uchun muhim omillardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, bu jarayonda oilaning, maktabning va muhitning roli beqiyosdir. Pedagog va psixologlarning hamkorlikdagi faoliyati orqali bolalarda intellektual qobiliyatlar rivojlanishiga ko‘maklashish kerak. Bolalarga individual yondashuv va ularni rivojlantiruvchi o‘quv mashg‘ulotlari bolalarda mustaqil fikrlash, qiziqish va bilim olishga bo‘lgan ehtiyojni oshiradi. Shu sababli, boshlang‘ich sinfda intellektual rivojlanishning psixologik asoslarini o‘rganish va amaliyotga joriy qilish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Азарова Л.Н. Как развивать творческую индивидуальность младших школьников // Начальная школа. - М., 1998. № 4. - 81.

2.Begmurzayevich, D. B. (2022). O‘quvchilarni intelektual rivojlantirishning metodologik asoslari. Ijodkor o‘qituvchi, 2(20),52-59.

3.Bolotova A.K. Prikladnaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov / A.K. Bolotova. – M.: Gardariki, 2006. – 382 .

4.Эльконин Д.Б. Психология обучения младшего школьника. - М. - 2009. – 98.

5.P.I. Ivanov Umumiy psixologiya. 1967y.

6.R.S. Nemov. Psixologiya. M. 1998y.

7.Смирнов А.А. Проблемы психологии памяти. - М.: Просвещение, 1966, 423.

8.Холодная М.А. Психология интеллекта. Парадоксы исследования. - 2-е изд., перераб. и доп. - СПб.: Питер, 2002, 272 .

9.3.Инченко Т.П. Памят в эксперименталной и когнитивной психологии. - СПб.: Питер, 2002,320.

MUALLIF HAQIDA MA’LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

Xonzafarov Og‘abek Otabek o‘g‘li
Osiyo xalqaro universiteti magistranti
Manzil: O‘zbekiston, 200100, Peshku tumani
xonzafarovo@gmail.com

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

9-son (2025-yil, sentabr)

Jurnal 2024-yildan chiqa boshlagan

Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

Orginal maket uchun mas’ul:
Mirshod SATTOROV

Maqolalarni qabul qiluvchi:
Ziyodullo ELOV

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi.

Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 28.09.2024

Tezkor bosma usulda bosildi.

Adadi – 100 nusxa

Buyurtma № 10
Bahosi kelishilgan narxda.

“BUXORO DETERMINANTI” MCHJ **bosmaxonasida chop etildi.**

Bosmaxona manzili: Buxoro shahri Namozgoh ko‘chasi 24-uy.

Eslatma: Jurnal “OSIYO XALQARO UNIVERSITETI” MCHJ va “BUXORO DETERMINANTI”

MCHJ Kamolot nashriyoti tasarrufidadir.

Jurnaldan ko‘chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ АДМИНИСТРАЦИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ АХБОРОТ ВА ОММАВИЙ КОММУНИКАЦИЯЛАР АГЕНТЛИГИ

ГУВОХНОМА

№ 250649

"BUXORO DETERMINANTI" MASULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
С-5669527

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
309343334

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
04.04.2024дан - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Бухоро вилояти, Бухоро шаҳри, Намозгоҳ, дом 24

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги

04.04.2024 14:09
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



Гувоҳнома № 250649

Фаолият тури

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Қўшимча маълумотлар

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Оммавий ахборот воситасининг тили	Оммавий ахборот воситасининг тури
OSIYO XALQARO UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI	O'zbek, rus, ingliz, turk tillari	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Ҳудуд	Тарқатилиш шакли
Республика миқёсида		Онлайн

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 04-aprel №25-0649-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI OLIY ATTESTATSIYA KOMISSIYASI

SUPREME ATTESTATION COMMISSION AT THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

№01-07/2803 «28» 08 2024 y.

Осиё халқаро университетига

Олий аттестация комиссияси Осиё халқаро университетининг мурожаатига (08.08.2024 й., №01-563) кўра ОАК Раёсатининг 2024 йил 28 августдаги 360/5-сон қарорига мувофиқ педагогика ва психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илмий даражасига талабгорларнинг диссертация ишлари юзасидан диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган миллий илмий нашрлар рўйхатига "Осиё халқаро университети ахборотномаси" илмий-назарий ва методик журнали (http://scientificjournal.uz) киритилганлигини маълум қилади.

Изоҳ: Педагогик технологиялар ва психологик тадқиқотлар (23.08.2024 й., №8) бўйича эксперт кенгаши тавсияси; ОАК Тартиб-қоида комиссияси қарори (27.08.2024 й., №8/23); ОАК Раёсатининг қарори (28.08.2024 й., №360/5).

Бош илмий котиб **А.А.Шермухамедов**

Ижрочи: Т.Ш.Маматмусаев

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360-son qaroriga asosan pedagogika, psixologiya, fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxati” ga kiritilgan.

ISSN 3030-3796 e
ISSN 3060-4915 p

https://scientificjournal.uz/

ISSN 3030-3796 e

ISSN 3060-4915 p

2025, № 9